


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“ SHARQ FALSAFASI TARIXINING ASOSIY DAVRLARI VA  
YO‘NALISHLARI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘QUV –USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent — 2022**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: f.f.n., prof. D.A.Pulatova  
katta o‘qituvchi J.B.Sulaymonov

Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, dotsent Izzetova Emine  
Mustafayevna  
Falsafa fanlari doktori, professor Rozmatova Gulnoz  
Mirahrarovna

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil dekabrda № -sonli ba’nomasi)

## MUNDARIJA:

<b><u>I.</u></b>	<b><u>ISHCHI DASTUR</u></b> .....	<b>3</b>
<b><u>II.</u></b>	<b><u>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI</u></b> .....	<b>14</b>
<b><u>III.</u></b>	<b><u>NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u></b> .....	<b>13</b>
<b><u>IV.</u></b>	<b><u>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u></b> .....	<b>63</b>
<b><u>V.</u></b>	<b><u>KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI</u></b> .....	<b>102</b>
<b><u>VI.</u></b>	<b><u>GLOSSARIY</u></b> .....	<b>103</b>
<b><u>VII.</u></b>	<b><u>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</u></b> .....	<b>120</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalarini, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishini, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari va oqimlarini, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma'naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rnini va ta'limdagi imkoniyatlarini haqida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

### **Modulning vazifalari:**

- Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalarini;
- IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishini;
- o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari va oqimlarini;
- Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma'naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rnini haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalarini;
- IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishini;
- o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari va oqimlarini **bilishi** kerak.
- globallashtirish sharoitida Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy, ma'naviy, falsafiy merosida o'z aksini topgan ahloqiy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatiga oid bilimlardan tinglovchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirishda foydalanish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan mutaxassislik fanlari bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- Sharq falsafasi va madaniyati rivojida vorislik va innovatsion jarayonlarni o'rganish hamda tadqiq etish dasturlarini ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

## Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress- so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Sharq falsafasi tarixining asosiy davrlari va yo‘nalishlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yaqin, O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji”, “Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma’naviy merosining gumanistik xarakteri (VIII-XVIII asrlar)” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan.

### Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar globallashuv sharoitida Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy, ma’naviy, falsafiy merosida o‘z aksini topgan ahloqiy qadriyatlarining mohiyati va ahamiyatidan mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o‘rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari.	6	2	4	
2.	Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Zardo‘shiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi.	6	2	4	
3	Hind falsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari	6	2	4	

4	Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari	4	2	2	
5	Yaponiya va Koreyada falsafiy fikr rivojining muhim xususiyatlari. Sharq va G'arb falsafasi tarixiy rivojlanishining o'zaro aloqadorligi. Globallashuv sharoitida Sharq falsafasi va madaniyatini o'rganishning ahamiyati	6	4		2
	<b>Jami:</b>	<b>28</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>2</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari**

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sharq va G'arb falsafasi va madaniyatining o'zaro ta'siri.
3. Sharq renessansi tushunchasi, mohiyati.
4. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm- fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

### **2- mavzu. Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi.**

1. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi.
2. Buddaviylikning ikki jihati. Buddaviylikning Mohayana falsafiy tizimi.
3. Markaziy Osiyoda moniylik ta'limotining vujudga kelishi va uning falsafiy- ilohiy ta'limoti.
4. Qadriyatlar mavzusi Mazdak ta'limotida.
5. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk asari».
6. Xalq og'zaki ijodida milliy qadriyatlarining aks etishi.
7. Turkiy xalqlar yozuvi.

### **3-mavzu. Hind falsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari**

1. Braxmanizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Vedalarda oriy qabilalar dunyoqarashining aks ettirilishi.
3. Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi.
4. Yevropada Vedalarning o'rganilishi.
5. Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi.
6. Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlardagi yangicha talqin.
7. Hayot charxi haqidagi ta'limot.

**4-mavzu. Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari**

1. Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushunchalar.
2. Xitoy falsafasiga donishmand erlar ta'siri.
3. Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari.
5. Maktablar haqidagi yozma manbalar.
6. Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari.
7. Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari.
8. Mumtoz kitoblar haqida.
9. Inson bilimi va ziyoli er vazifasi.

**5- mavzu. Yaponiya va Koreyada falsafiy fikr rivojining muhim xususiyatlari. Sharq va G'arb falsafasi tarixiy rivojlanishining o'zaro aloqadorligi. Globallashuv sharoitida Sharq falsafasi va madaniyatini o'rganishning ahamiyati.**

1. Qadimgi Koreyadagi ilk diniy-falsafiy tasavvurlar.
2. Qadimgi Koreyada mifologiya va shamanizm.
3. Qadimgi Chosonda dastlabki falsafiy qarashlarning shakllanishi.
4. Yaponiya qadimgi davrda.
5. Yaponlarning ilk e'tiqodlari.
6. Sintoizm.
7. Koreyada konfusiychilik.
8. Buddaviylik.
9. Daosizm.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg'ulot. Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari. (4 soat).**

Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari

**2-amaliy mashg'ulot. Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi. (4 soat).**

Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi.

**3-amaliy mashg'ulot. Hind falsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari (4 soat).**

Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi.

**4-amaliy mashg'ulot. Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari (2 soat).**



## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

Yaponiya va Koreyada falsafiy fikr rivojining muhim xususiyatlari. Sharq va G‘arb falsafasi tarixiy rivojlanishining o‘zaro aloqadorligi. Globallashuv sharoitida Sharq falsafasi va madaniyatini o‘rganishning ahamiyati (2 soat).

TDSHU “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida Sharq falsafasi va madaniyati tarixiga doir o‘quv dasturlar va darslik, qo‘llanmalar bilan tanishish va ko‘rish.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### “Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtrish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalga qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assisment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim

darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assisment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



#### Тест

Янгилик — бу:

- A) Xabar
- V) Ma'lumot
- S) Dalil



#### Қиёсий тahlil

Ekologiya va landshaft, qurilish, sanoat ekologiyani qiyosiy tahlil qiling.



**Tushuncha tahlili** Shafarsozlik va ekologik arxitekturani izohlang...



#### Amaliy ko'nikma

Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik asoslarini aniqlang

### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.


### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning

o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.

#### 1. Mavzu: Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o‘rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari

##### Reja

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Sharq va G‘arb falsafasi va madaniyatining o‘zaro ta’siri.
3. Sharq renessansi tushunchasi, mohiyati.
4. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm- fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rni va ahamiyati.

*Tayanch iboralar:* Sharq falsafasining asosiy davrlari, Sharq madaniyati tarixi, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, diniy va mifologik dunyoqarash, falsafa, Fales, Yunon madaniyati, falsafiy matnlar, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G‘arb madaniyatlari rivoji va aloqadorligi, Sharq va G‘arb sivilizatsiyasi, birlamchi fanlar.

Falsafa, inson tafakkurining umumbashariy shakli sifatida, jamiyatdagi mavjud holatdan qoniqmaslikning ma’naviy ifodasi, uni yanada takomillashtirish, rivojlantirishning, butun olam-tabiati, jamiyatning mazmun-mohiyati, inson, insoniyat, xalq, millatning maqsad- muddaosi muammolarini chuqur o‘rganishga asoslangan holdagi ilmiy- nazariy omilidir. Demak, falsafa, birinchi galda, jamiyatga va faqat shu bois, o‘quv yurtlari, ilmiy muassasalar uchun kerak. Darhaqiqat, voqeylikda, insonlar va jamiyat hayotidagi keskin o‘zgarishlar, yangilanishlar yuz bergan sari falsafaga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi ham muqarrarlashadi.


Ajdodlarimiz, Sharq va G‘arb xalqlari vakillari yaratgan falsafiy ta’limotlardan yurtdoshlarimizni bahramand qiluvchi, ularga hozirgi zamon falsafasining turli-tuman, hatto qarama-qarshi fikrlarini chuqur bilish imkoniyatini beruvchi ma’naviy muhitni shakllantirish, tegishli yo‘nalishdagi, davr talablariga monand tadqiqotlarni amalga oshirish, mazkur sohaga oid darsliklarni yaratish lozimligini uqtirish – ushbu da’vatning muhim qirralarini tashkil etadi. Zero, xuddi mana shunday jiddiy falsafiy zamingina, o‘zida xalqimizning ezgu niyatlari, orzu-umidlarini jo etgan, milliy g‘oya va ijtimoiy mafkuralarni yaratishning mustahkam ilmiy-nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot asosida mavjud holatdan qoniqmaslik hissi yotadi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengish, yangi kuch, g‘ayrat to‘plash uchun, rivojlanishning zaminini tayyorlash uchun insonga chidam, sabr-toqat kerak.

Sabru toqat rivojlanish jarayonining vaqtinchalik shakli, mukammallikka intilish, ehtiyojlarning yuksalishi esa – doimiy holatdir. Insonning erkinlikka, adolatga, mehr-muhabbatga, go‘zallikka, kamolotga intilishi, qobiliyatlarini namoyon etishga, ijod etishga urinishi – uning ma’naviy ehtiyojidir.

Ehtiyojlar sog‘lom va nosog‘lom bo‘lishi mumkin. Insonning erkin kamolotiga xizmat qiladigan, undagi ijobiy qobiliyatlarini, fazilatlarini boyitadigan, rivojlantiradigan ehtiyojlar sog‘lom ehtiyojlardir. Aksincha, nafs xohishlarining cheksiz avj olishiga, molparastlikka, shahvatparastlikka, mansabparastlikka, insondagi salbiy jihatlarning kuchayishiga xizmat qiladigan ehtiyojlar nosog‘lom ehtiyojlardir.

Buyuk yunon faylasufi, yetti donishmandning biri hisoblangan Fales “Yomon vositalar orqali boyimagin” degan edi.



Insonda moddiy va ma’naviy ehtiyojlar muttasil yuksalib boradi. Bir ehtiyojning qondirilishi bilan undan yuksakroq yangi ehtiyoj tug‘iladi. Avvalgidan yaxshiroq, qulayroq, go‘zalroq buyumni yoki san‘at asarini yaratishga intilish, oldingisidan teranroq, aniqroq bilimni egallashga, mukammalroq texnikaviy asbob-uskunalarni ixtiro etishga urinish, turmush darajasini yanada yaxshilash va farovonlashtirishga intilish – insonga xos xususiyatdir. Bu – tabiiy ravishda tug‘iladigan ijtimoiy ehtiyojdir.

Uzoqni oldindan ko‘ra bilish, uni tahlil va taxmin qilish – falsafaning muhim vazifasidir. Falsafa tasodifiy hodisalar, juz‘iy holatlarni emas, balki ularning tubidagi, ortidagi muhim, barqaror, doimo takrorlanib turadigan munosabatlar – qonuniyatlarni o‘rganadi, o‘tmishni, mavjud vaziyatni tahlil qiladi va istiqbolni ilmiy taxminini beradi.

Falsafa dunyoqarash sifatida ikki savolga javob berishi lozim. Birinchisi – insonning o‘zi nima, uning mohiyatini, tabiatini nima tashkil etadi? Ikkinchisi – insonning yashashdan maqsadi nima, u nimaga intilishi

kerak?

Falsafa sababiyat to'g'risidagifandir. Biron-bir narsaning, hodisaning asl sababi aniqlanmas ekan, demak unga tegishli tarzda ta'sir ko'rsatishning iloji ham bo'lmaydi. Masalan, jamiyatni boshqarish usuli undagi hukmron-mulkiy munosabatlarga mutanosib bo'ladi; shu sababdan, ibtidoiy jamiyatdagi ilk demokratik boshqaruv usulidan xususiy mulkning kelib chiqishi munosabati bilan siyosiylikka o'tilgan; davlat siyosiy tizimning asosiy bosh bo'g'inini tashkil qiladi; u vujudga kelgan paytdan boshlab, jamiyatdagi manfaatlarni kerak bo'lganda, zo'rvonlik bilan "muvozanatga" keltirib turgan; davlat boshqaruvi tizimiga ta'sir ko'rsatish manfaatdor kuchlar uchun "foydali" ish bo'lgan; yangi davr demokratik (saylovlar, siyosiy partiyalar) tartibotlarning qaror topishiga olib kelgan. Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyoni Tohiriylar (821-873), Safforiylar (873-904), Somoniylar (875-999), G'aznaviylar (977-1186), Qoraxoniylar (999-1212) va Xorazmshohlar (1077-1231) kabi sulolalar boshqargan. Saljuqiylar (1033-1300) XII asrning boshlariga kelib, bugungi O'rta Osiyo hududini butunlay o'z nazorati ostiga oladilar.

Ma'lumki, saljuqiylar sulolasi ilgarigi mavqei yo'qolgan xalifalikni boshqarayotgan Bag'dod xalifasining rasmiy hukmronligini saqlagan holda, amalda markazlashgan davlatning dunyoviy ishlarini boshqarar edilar. Saljuqiy Malikshoh davrida uzoq vaqt vazirlik qilgan fan homiysi Nizomul Mulk Abu Homid G'azzoliy va Mahmud az-Zamaxshariy kabi olimlarni ham qo'llab-quvvatlagan. U Bag'dodda rasadxona ishini rivojlantirib, mashhur falakshunos olimlarni to'playdi. Nizomul Mulk tashabbusi bilan Buxoro, Hirot, Nishopur, Samarqand, Bag'dod kabi shaharlarda "Nizomiya" nomidagi madrasalar ochilgan.

*Салжуқий Маликшоҳ даврида узоқ вақт вазирлик қилган фан ҳомийси Низомул Мулк Абу Ҳомид Ғаззолий ва Маҳмуд аз-Замахшарий каби олимларни ҳам қўллаб-қувватлаган. У Бағдодда расадхона ишини ривожлантириб, машҳур фалакшунос олимларни тўплайди. Низомул Мулк ташаббуси билан Бухоро, Ҳирот, Нишопур, Самарқанд, Бағдод каби шаҳарларда “Низомия” номидаги мадрасалар очилган.*

Ushbu davr ilm-fan taraqqiyotining e'tiborli tomoni shundaki, ko'pgina olimlar o'z sohalarida yangiliklarga asos soladilar. Masalan, birinchi bo'lib, Umar Xayyom taqvimiga tuzatish kiritadi. Ayniqsa, bu davr arab va fors adabiyotining taraqqiyot davri bo'lgan. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda ko'plab o'zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida muhim obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O'z navbatida Movarounnahr diyorida ham ilm-fan ravnaqi uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan. Aytish mumkinki, bunday imkoniyatlar XX asrning boshlarigacha hech vaqt vujudga kelmadi. Bu

muammo butun Yaqin va O'rta Sharqqa, hatto Xitoy va Hindistonga ham xos xususiyatdir. Shu boisdan bo'lsa kerak, Sharq mamlakatlari Yevropadan orqada qolib ketdi. Hozirgi zamon ingliz va rus olimlarining fikricha, buning sababi Sharqda hozirgacha milliy innovasion tizimning yo'qligidir.

Savol tug'iladiki, u yoki bu mamlakatning ixtirolar yo'lidan bormaslik natijasidagi muvaffaqiyatsizliklarini tushuntirib beruvchi nazariya mavjudmi? Bunga rus olimi Natalya Ivanova shunday javob beradi: Buyuk Britaniya olimi Nidxem o'z vaqtida shunday muammoni ko'ndalang qo'ygan edi: nima uchun porox, qog'oz, kompas va juda ko'plab ajoyib narsalarni o'ylab topgan va XIV-XV asrlarda yetakchi ixtirolar mamlakati bo'lgan Xitoy, to'satdan bularning barchasini yo'qotdi va jaholatga g'arq bo'ldi. Bu savolga javob berishga uringan bir qator maktablar mavjud. Iqtisodiy rivojlanishga doir Nobel mukofotini olgan nazariyalar ham mavjud, ammo iqtisodiy tushkunlikni, iqtisodiy tizimlar buzilishini tushuntirib berishga qodir bo'lgan nazariyalar hozirgacha yo'q.

Milliy innovasion tizim – bu, umuman Yevropacha g'oya bo'lib, bir necha vaqtdan keyin AQShda o'z izdoshlarini topgan. Nelson uning asoschi – otalaridan biri edi. Ammo Yevropada, har doim bo'lganidek, ko'proq so'zamolik va siyosiy qarorlar qabul qilishlik, ko'proq darajada ilmiy maktablarni shakllantirish ustunlik qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa ko'pincha ishchanlik hukmronlik qiladi. Ana shu Amerikada XX asrning 80-90- yillarida hozirgi zamon texnologik taraqqiyotiga muvofiq keladigan Milliy innovasion tizimning qonuniy zamini yaratildi.

*Milliy innovasion tizim – bu, umuman Yevropacha g'oya bo'lib, bir necha vaqtdan keyin AQShda o'z izdoshlarini topgan. Nelson uning asoschi – otalaridan biri edi. Ammo Yevropada, har doim bo'lganidek, ko'proq so'zamolik va siyosiy qarorlar qabul qilishlik, ko'proq darajada ilmiy maktablarni shakllantirish ustunlik qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa ko'pincha ishchanlik hukmronlik qiladi. Ana shu Amerikada XX asrning 80-90-yillarida hozirgi zamon texnologik taraqqiyotiga muvofiq keladigan Milliy innovasion tizimning qonuniy zamini yaratildi.*

Hozirgi vaqtda ilg'or Sharq mamlakatlari Yevropa va Amerikadan ushbu usulni o'zlashtirmoqdalar. Bunga II jahon urushidan keyingi Yaponiya, Janubiy Quriya, Singapur, Malayziya, Tailand, Tayvan va keyingi 30 yil ichida to'xtovsiz islohotlar bilan band bo'lgan Xitoy misol bo'la oladi. Islom dunyosi mamlakatlari katta mablag' manbalariga ega bo'lsalar ham, hali hozir milliy innovasion tizimga o'tayotganlari yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "ko'rinib turibdiki, moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir- birini to'ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat



o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishni doimo davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markaziga qo‘yib kelmoqdamiz”<sup>1</sup>.

Falsafaning nima ekanligidan xabar beruvchi o‘nlab ta’riflarni keltirish mumkin. Masalan, IX asrda yashagan arab faylasufi Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy (801-866) xalifa Mu’tasimga bag‘ishlab yozgan “Birinchi falsafa” asarida falsafaga ta’rif berib, “Insonning toqati yetguncha narsalar haqiqatini bilish ilmi” yoki “Maba’di ut-tabia” (“Tabiatdan keyin keladigan narsalar”) kitobida “Har bir haqiqat sababini birinchi haqiqatga olib boruvchi ilm” deb atagan. Uning fikricha, “Haqiqat izlovchi uchun hech bir narsa haqiqatning o‘zidan qimmatroq emas”.

Dastlabki fanlar tasnifini birinchilardan bo‘lib al-Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta’limotni shakllantirdi. U birinchi bosqichni mantiq va matematika; ikkinchi bosqichni fizika (aniq fanlar); uchinchi bosqichni esa metafizika bilan bog‘liq bilim, deb hisobladi.

*“Birlamchi fanlar” deb atalgan, ayniqsa uning rasional qismi hisoblangan fanlarning vujudga kelishi bilan islom dunyosida ko‘proq aqliy mushohadaga murojaat qiladigan bo‘ldilar va shularning natijasi sifatida “Islom falsafasi” nomi ostida alohida fan paydo bo‘lib, rivojlandi.*

~~Bungacha~~ mu’tazila guruhi tufayli haqiqatlarni kashf etish va diniy ahkamlarni asoslashga aqliy mushohada va rasional muhokamalardan foydalanish boshlangan edi. Mu’tazila oqimi islom tafakkuri tarixida rasionalizm tarafdori sifatida ma’lumdir. “Ular Kur’on va hadislarni zohiriy tomondan sodda anglashdan yuqori ko‘tarilib, aqliy muhokamalarga tayangan holda dinni himoya qila oldilar”.

Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy X asrda falsafaga quyidagicha ta’rif bergan edi:

“Mavjudot haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa, shu haqda ta’lim berilsa, mavjudotdan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma’nosi tushuNilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma’lumotga doir fanni falsafa deymiz”.

Haqiqatan ham “falsafa voqelikdagi barcha narsa va hodisalarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B.68-69.

eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandır”.

Forobiyning ulug‘ xizmati faqat uning falsafani chuqur anglab yetganida va yangi g‘oyalar, fikrlar berganidagina emas, balki din va falsafa orasidagi munosabatlarni qat’iy va aniq ifodalagani hamda bu ikki sohaning insonlar ongida birga yashashi mumkinligini uyg‘unlashtirib isbotlab berganligidadir.

Forobiy dinga jiddiy munosabatda bo‘lib, shariatning zohiriy tomoniga qarshi chiqish o‘rniga, uning botiniy mohiyatiga falsafiy ma’no berdi.

Forobiy o‘zining “Al-huruf” (Harflar) asarida shunday deydi: “Agar din barcha umumiy jihatlari bilan takomillashadigan falsafaga itoat etsa, unda u haq va to‘g‘ridir. Ammo agar din to‘g‘ri tahliliy falsafa hali shakllanmay, balki halq tafakkuri, g‘oyasi bo‘lgan ritorika (balog‘at san‘ati, so‘zamollik), dialektika (bahs) va sofistika (har qanday vosita bilan bo‘lsa ham raqibni so‘zda lol qoldirish) bilan band bo‘lgan davrda paydo bo‘lsa, bunday falsafaga bo‘ysungan din ham yolg‘on va xatolardan xoli bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda u boshidan oxirigacha noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega, chunki falsafa – mag‘z, din – po‘stloq, aniqrog‘i – falsafaning qurolidir”.

Uning fikricha, din juda katta ahamiyatga ega. Zero, bir tomondan uning mohiyati yana o‘sha oliy falsafadir, boshqa tomondan esa shariat insoniyat jamiyati mavjudligi va ijtimoiy tartib barqarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (tahlil va tadqiq)ga qurilgan falsafadir. Uningcha, haq din bilan haqiqiy falsafa birdir. Faqat falsafa – xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomga ham tushunarlidir<sup>2</sup>.

Forobiy fikricha, payg‘ambarlar va faylasuflar bilimlarining manbai bittadir. Faylasuf faol aql bilan qo‘shilib, haqiqatni biladi, Payg‘ambar esa – haqiqatning in‘ikosi bo‘lmish vahiy orqali biladi. Din esa vahiy asosidagi haqiqatdir. Din va falsafa – har ikkisi ham bilim va mushohadadir, farq shundaki, din soddallashtirilgan falsafadir. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa o‘sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning din va falsafaning yagona birligi haqidagi mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik, Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo‘yganligiga urg‘u bera boshladilar. Ba‘zilar, jumladan andaluziyalik faylasuf Ibn Tufayl uni bu masalada keskin tanqid qildi. Andaluziyalik faylasufning daliliga ko‘ra, Forobiy

---

<sup>2</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. R. 12.

faylasuf darajasini go‘yo payg‘ambarlikdan ham yuqoriroq qo‘ygan. Ammo, Forobiy “Din falsafaning misollaridir” deganda payg‘ambar xalq tilida so‘zlashishga majbur ekanligini ham alohida qayd etib o‘tadi. Chunki, omma daliliy hukmlarni tushunmaganligi sababli, daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o‘zga imkoniyat yo‘q. Binobarin, payg‘ambar ham faylasufdir. Forobiyning fikriga ko‘ra, avomning diniy qarashlari, uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yo‘q. Shuning uchun u o‘z fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb ham o‘ylamagan va aksincha bundan xavotir ham olganki, uningcha “avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi”.

Rasional islom falsafasi o‘zining paydo bo‘lish vaqtidan boshlab musulmon jamiyatida ikkita qudratli raqibga duch keldi. Birinchisi – dinni va aqlini aqidaparastlarcha, qotib qolgan fikr (dogma) sifatida qabul qilish bo‘lsa, ikkinchisi – tasavvuf va irfon edi. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyoni ifodasi edi. Yunon falsafasining keyingi irfoniy oqimlar bilan o‘xshashlik jihatlari mavjud.

*Rasional islom falsafasi o‘zining paydo bo‘lish vaqtidan boshlab musulmon jamiyatida ikkita qudratli raqibga duch keldi. Birinchisi – dinni va aqlini aqidaparastlarcha, qotib qolgan fikr (dogma) sifatida qabul qilish bo‘lsa, ikkinchisi – tasavvuf va irfon edi. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyoni ifodasi edi. Yunon falsafasining keyingi irfoniy oqimlar bilan o‘xshashlik jihatlari mavjud.*

Ikki asr davomida loyullab turgan kalom ilmiy sohadagi bahslar alangasini o‘chirishi oson emas edi. Kalom va tasavvuf islom falsafasining tarkibiy qismlari sifatida maydonga chiqdi. Bu nazariy maktablar islom falsafasini yaratishga shart-sharoit yaratdilar.

Forobiy falsafasining inkor etib bo‘lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo‘lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo‘ydi. Falsafalar o‘rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg‘ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘q. Bunday qarash o‘z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi. Shuning uchun ham Forobiyning ma‘lum ma‘noda islom falsafasining muassisi, ya‘ni asoschisi, deb bilmoq kerak.

Islom falsafasi o‘z tarkibiga besh yo‘nalishni qamrab oladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar.

Bularga hozirgi zamon eron faylasufi Muhammad Xotamiy quyidagicha ta'rif beradi:

“Amalda musulmon jamiyatining rasional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to'rtta tamoyil (yo'nalish)ni ko'rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg'unlik munosabatlarini oliy darajada qo'ygan oqim.

2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko'radigan oqim.

3. Aql va falsafaning qo'li qisqa, oyog'i cho'loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, degan irfon va tasavvuf oqimi. Sufiylar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deydilar va “dalil keltirib isbotlovchilarning oyog'i yog'ochdandir”, ular haqqa yetishishga ojiz, deb aytadilar.

4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta'kidlovchi oqim”<sup>3</sup>.

Ushbu oqimlar boshqa xalqlar va madaniyatlar, jumladan yunon olimlari qarashlaridan bahramand bo'lgan holda vujudga kelgan edi. Abu Yaqub ibn Ishaq al-Kindiy Forobiydan yuz yil oldin falsafani jiddiy o'rganishga kirishgan edi, boshqa olimlar esa falsafiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish bilan chegaralanardilar. Biroq Forobiy bilan al-Kindiy orasida katta farq bor. Bu shunda namoyon bo'ladiki, Forobiy yangi yo'l ochgan o'zining yangi maktabiga asos solgan faylasuf bo'lsa, al-Kindiy o'zlashtirilgan fikrlarni tadqiq etgan olimdir.

Ibn Sino (980-1037) o'zining “Donishnoma” asarida ta'kidlashicha, “harakat deb, odatda makonda sodir bo'ladigan narsaga aytiladi; ammo bu tushunchaning ma'nosi hozir boshqacha, makon harakatdan ko'ra, umumiyroq ma'noni anglatadi: imkoniyatdagi narsa bo'lgan biror-bir narsaning istalgan holati va harakati shu imkoniyat sababidan harakat deyiladi”.

Ibn Sino fikriga ko'ra, barcha falsafiy ilmlar ikki qismga bo'linadi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, Ibn Sino ta'kidicha, ikki turga bo'linadi: birinchisi bizning shaxsiy xatti- harakatimiz bilan tanishtiradi va u “amaliy ilmlar” deb nomlanadi <sup>4</sup>. Chunki bu bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo'lishi uchun kerak bo'ladi.

---

<sup>3</sup> Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. –T.: Minhoj, 2003. –B.58.

<sup>4</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. R. 14.

Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo‘lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O‘z o‘rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi.

Makon Ibn Sino nuqtai nazaridan jism ham, shakl ham emas. Bu unda jism o‘rin oladigan “hech nima”. U har qanday jismni qurshab oladi. “O‘rin”ning borligi “to‘ldirilgan” makonning mavjudligini asoslaydi. Uning fikricha, “dahr” moddaning, uning o‘zgarishiga bog‘liq abadiy va mutlaq vaqt bo‘lib, qanday bo‘lmasin, makon va harakat bilan tor aloqada mavjud.

Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasi keyinchalik islom falsafasida tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy bilimlar konsepsiyasini ishlab chiqishda diniy va ilmiy bilimlarni uyg‘unlashtirishda muhim vosita bo‘lgan. O‘z navbatida bilishning bu ikki shakli bir-biriga halal bermasligi kerak, degan g‘oya ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki ular bir maqsad – haqiqatni topishi va unga erishish yo‘lida harakat qiladilar, degan yondoshuv konsepsial asosga ega edi.

“Ikki haqiqat nazariyasi” mutakallimlar bilan mu‘taziliylar, aql bilan e‘tiqod o‘rtasida kelishuv vujudga kelganligidan darak beradi. Chunki keyingi davr musulmon xalqlari tarixidan o‘rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizi uning asosiga qurilganini ko‘rish mumkin. “Ikki haqiqat” tarafdorlarining qarashlaridagi bunday xulosalar aslida qadimgi yunon faylasufi Aflotun falsafasiga asoslanar edi. Agar Aflotun falsafasida narsalar dunyosidan oldin, unga nisbatan birlamchi, o‘zgarmas mohiyatga ega bo‘lgan “g‘oyalar dunyosi” mavjudligi e‘tirof etilsa, unda bu o‘zgarmas mohiyatni anglab yetishning ham ikki yo‘li mavjuddir, deb ishonch bildiradi.

Uning fikricha, bu dunyoning o‘zgarmas mohiyati alohida qobiliyatga ega, o‘ta sezgir odamlarning faoliyati orqali anglab olinadi. Buning ikkinchi yo‘li esa, kishilar tomonidan g‘oyalar dunyosi (mohiyat)ning hosilasi bo‘lmish, narsalar dunyosini tashkil etuvchi voqea va hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, sifat hamda xossalarni o‘rganish asosida ham mohiyatni anglab olish mumkin.

Zamonaviy islomning falsafiy asoslarini o‘rganishda Sharq va G‘arb tajribasini birgalikda olib borish zarurligi haqida T.J.Uinter o‘zining “XXI asrda islom” nomli asarida quyidagilarni yozadi:

“Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi G‘azzoliy tufayli mashhur bo‘lib ketgan edi, o‘sha madrasada fiqh bilan bir qatorda yunon an‘analari asosidagi falsafiy ilohiyotshunoslik ham o‘qitilar, shuningdek, o‘sha vaqtdagi rahnamolarni raqib mafkuralarining oyog‘ini osmondan qiladigan zarur qurol bilan ta‘minlar edi. Bizga yangi minglikda mujaddid, mu‘tadil, bag‘rikeng, ruhoniylar ko‘zqarashga ega, dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmasdan, uni tushunadigan va u bilan bahsga kirisha oladigan daho

G‘azzoliy kerak. Xususan, bunday shaxs yangi zamonga o‘z hukmini o‘tkazayotgan ma‘naviyat, san‘at va atrof-muhit masalalarini puxta bilishi darkor. G‘arb kishisiga nima ta‘sir etishi va uni nima harakatlantirayotganidan xabardor g‘arblik musulmon mutafakkirlari biladiki, mabodo islom diskursi ushbu masalalarga e‘tibor qaratib, muvaffaqiyatga erishadigan, ekstremizmning yovuz ruhini quvadigan bo‘lsa, dinimiz nafaqat gullab-yashnashi, qolaversa, yangi asrning diniy kurashlarida markaziy o‘rinni qayta egallashi ham mumkin”.

Rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga tadrijiy (evolyusion) va sakrashsimon (inqilobiy) o‘zgarish, eski sifatdan yangi sifatga o‘tish kiradi. Bu ikki turdagi o‘tish fan taraqqiyoti uchun ham xosdir.

Yevropaning musulmon viloyatlarida, ayniqsa, mavrlar Ispaniyasida, musulmon, yahudiy, xristianlar ta‘lim berishgan. Uchchala e‘tiqod vakillari o‘z diniy aqidalarini yunon falsafasi g‘oyalari bilan himoyalashga urinishgan, bu albatta xristian sxolastikasiga ta‘sir etgan.

Siyosatdagi kabi falsafada ham arab-musulmon mutafakkirlari inqilob sodir etishgan emas, balki dastlabki g‘oyalar bilan cheklanishga va shakllantirish mumkin bo‘lganlarini shakllantirishga harakat qilishgan. Lekin ularning fan va falsafaga qo‘shgan hissi jahon, ayniqsa, Yevropa falsafiy va ilmiy dunyoqarashiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Abu Homid G‘azzoliy falsafiy dalillarga qarshi raddiya yozganidan keyin islom ilmi falsafa bilan birlashib, bundan keyingi har qanday kelishmovchiliklar bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan adashishlar va xatoliklardan iborat ekanligi yana bir bor ta‘kidlandi. Natijada agar falsafa o‘zgaruvchan bo‘lmaganda, xato va adashishlar ham kelib chiqmas edi – degan xulosaga kelindi. Garchi, borliq, mavjudotlarning asosi va minerallar olami haqidagi gaplar xuddi qadimgi yunon falsafasidagidek bo‘lsa-da va islom faylasuflari haqiqiy falsafaga xos xususiyat bo‘lgan ashyolarning mohiyati haqida bahs yuritgan bo‘lsalar ham, ammo bahslarning ma‘no va mazmunida chuqur o‘zgarishlar yuz bergan edi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Sharq va G‘arb falsafasi va madaniyatining o‘zaro ta‘siri qanday?
3. Sharq renessansi tushunchasiga ta‘rif bering?
4. Sharq renessansini mohiyati nimada?
5. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rni va ahamiyati.
6. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rnini izohlang.

7. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'рни va ahamiyatini aytib bering.

## **2. Mavzu: Qadimgi Markaziy Osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi.**

### ***Reja:***

1. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi.
2. Buddaviylikning ikki jihati. Buddaviylikning Mohayana falsafiy tizimi.
3. Markaziy Osiyoda moniylik ta'limotining vujudga kelishi va uning falsafiy-ilohiy ta'limoti.
4. Qadriyatlar mavzusi Mazdak ta'limotida.
5. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk asari».
6. Xalq og'zaki ijodida milliy qadriyatlarning aks etishi.
7. Turkiy xalqlar yozuvi.

**Tayanch iboralar:** *Gautama, Sidharta, Buddha, nurlangan, insonlar tengligi, Ashoka, Hindiston, draxmalar, ashyolarning hujayralari, yogacha usul, nirvana-betashvish holat, ruhiy xotirjamlik, Mohayana, sabr-toqat, tarki dunyochilik, dunyoning doimiy o'zgarishda ekanligi. Moniy (mil.III asr), Mazdak (mil.VI asr), «Xuastuanift», Suza, «Moniy yozuvi», yagona din, «zulmat va ziyo dunyosi», yovuzlik – boylikka hirs qo'yish, Qubod I (mil.488-581yy.), adovat va hasadni yo'q qilish, Qadimgi turkiy xalqlar, Mahmud Qoshg'ariy, «Devonu lug'otit turk», mardlik, jasorat, ilm, kasb-hunar, halollik, sadoqat, fidoyilik, To'maris, Shiroq, Rustam, «Zarina va Striangiya», «Siyovush», runiy (sirli) bitiklar, urxun-yenisey yozuvi, Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlari, sug'd, uyg'ur yozuvi, moniy yozuvi, Qoraxoniylar, arab yozuvi.*

### ***Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi***

Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limoti ajdodlarimiz bir qismining qadriyatiga aylangan edi. Bu ta'limot Qadimgi Hindistonda miloddan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik jahon dinlaridan biriga aylangan. Bu ta'limotga asos solgan kishi Gautama urug'idan chiqqan Sidharta bo'lib, keyinchalik Buddha, ya'ni nurlangan, degan nomga sazovor

bo'lgan. Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, insonning oliy maqsadi qayta tug'ilish emas, balki huzur-halovatli holat bo'lgan nirvanaga (yakka jonning mutlaq jon bilan qo'shib ketishiga) erishishdir.

Buddaviylik jamiyatining tabaqalarga bo'linishiga qarshi qaratilgan bo'lib, azob-uqubat va undan qutilish borasida barcha insonlar tengdirlar, degan g'oyani ilgari surgan. Miloddan avvalgi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni hukmron mafkuraga aylanishiga va Hindiston hududidan tashqariga, shu jumladan, Markaziy Osiyoga yoyilishiga sababchi bo'lgan.

Buddaviylikning yoyilishi murakkab jarayon bo'lib, u Markaziy Osiyo orqali Xitoy, Yaponiya va Quriyaga tarqaldi. Xitoy manbalarida Baqtriya, So'g'd va Parfiyadan chiqqan, ilohiyotga doir jiddiy risolalar yozib, ularni Xitoy tiliga tarjima qilgan buddaviy rohiblarning ismlari tilga olingan. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyolik rohiblarsiz II-IV asrlarda Xitoy buddaviylik haqida deyarli hech narsa bilmagan bo'lar edi<sup>5</sup>.

Markaziy Osiyoda Vaybxashika buddaviylik maktabi tarqalgan edi. Vaybxashika maktabiga mansub bo'lganlar o'zlarining bilish nazariyalarida obyektiv dunyodan kelib chiqdilar, uni bilish his-tuyg'u a'zolari orqali amalga oshiriladi. Ashyolarning javhari besh doimiy unsurdir. Barcha obyektlar pirovardida atomlarga kelib taqaladi.

Vaybxashika tarafdorlari fikricha, Buddha oddiy odam bo'lgan va to'la- to'kis nirvana holatiga erishgach, o'z mavjudligiga barham bergan. Biroq unda ilohiy unsur-haqiqatni ichki tushunish mavjud bo'lgan. Buddaviylik bilan bir qatorda Markaziy Osiyoga hindlarning dunyoviy fan va madaniyatining unsurlari ham tarqaldi.

### ***Buddaviylikning ikki jihati. Buddaviylikning Mohayana falsafiy tizimi***

Buddaviylik ikki jihatni, ya'ni narsalar tabiati haqidagi va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Uning narsalar tabiati haqidagi ta'limoti asosida draxmalar – «o'zining belgilariga ega bo'lgan zarrachalar» yoki «unsurlar» to'g'risidagi tushunchalar yotadi. Draxma-zarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo'lib, har lahzada shu'lalanib va

---

<sup>5</sup> Qarang: Belenitskiy A.M. Voprosi ideologii i kultov Sogda po materialam pyandjikentskix xramov//Jivopis Drevnego Pyandjikenta. –M., 1954; V.A. Litvinsky. Outline of Buddhism in Central Asia, –Moscow, 1968.



uchib turadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o'zgarishda ko'rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g'oyasi yotadi.

Buddaviylikning ikkinchi jihati, ya'ni bilishning yo'llari haqidagi ta'limot yogacha usulda mushohada qilishning subyektiv-g'oyaviy usuli bilan bog'liqdir. Uning mohiyati ichki betashvish holat bo'lgan *nirvanaga*, ya'ni ruhiy xotirjamlikka erishishdir.

Buddaviylikning Markaziy Osiyoda amalda bo'lgan Mohayana falsafiy tizimi axloqqa oid muammolarni qamrab olgan bo'lib, xalq ommasini sabr- qanoatga da'vat etgan. Buddaviylikning asosiy qoidasi bo'lgan azob-uqubat- dan tarki dunyochilik orqali qutilish g'oyasi ko'pchilikni o'ziga jalb etar edi.

### ***Markaziy Osiyoda moniylik ta'limotining vujudga kelishi va uning falsafiy-ilohiy ta'limoti***

Milodiy II-III asrlarda Markaziy Osiyoda va unga qo'shni bo'lgan hududlarda iqtisodiy tanazzul va uning g'oyaviy ifodasi sifatida yangi mafkuraviy oqim bo'lgan moniylik ta'limoti vujudga kelgan edi. Bu ta'limotning asoschisi 216 yilda Bobilda tug'ilgan, 25 yoshida Hindistonga borib, o'z hamfikrlari jamoasini tuzgan va keyinchalik Fors va Suzada yashagan Moniy edi. U «moniy yozuvi» nomi ostida yangi alifbo kashf etib, uni tavsiya etdi. Uning orzusi hammaga ma'qul tushadigan, umumiy yagona dinni yaratish edi.

Moniyning falsafiy-ilohiy ta'limotida ma'naviy qadriyatlarga katta e'tibor berilgan. Uning fikricha, ikki dunyo – «zulmat va ziyo dunyosi» mavjud bo'lib, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik hukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir.

Moniy ta'limoti ozod dehqonlarga qaratilgan bo'lib, ular manfaatining g'oyaviy ifodasi edi. Shuning uchun III va undan keyingi asrlarda ham Eron, Markaziy Osiyo, Baynalnahr, Suriya, Misr va Rim imperiyasining Sharqiy viloyatlarida uning g'oyaviy ta'siri keng yoyilgan edi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab buddaviylik ta'limotining tarqalishiga qadar Eronda quvg'inga uchragan Moniyning maslakdoshlari Markaziy Osiyodan panoh topgan edilar. Moniylik g'oyalari uyg'ur tarqalishiga katta ta'sir o'tkazgan. Moniylikning uyg'ur tiliga qilingan tarjimasi tarzida saqlangan diniy yodgorligi «Xuastuanift» (moniylikning tavba namozi) aniq, tushunarli tilda yozilgan. Moniylik VIII asrda uyg'ur davlatining davlat diniga aylangan.

### ***Qadriyatlar mavzusi Mazdak ta'limotida***

Qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak ta'limotida ham ko'zga tashlanadi. Mazdak aqidasi ko'ra, dunyoda sodir bo'ladigan jarayonlar ongli maqsadga yo'naltirilgan ezgulik va uning manbai bo'lgan yorug'lik bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakat qiluvchi qorong'ulik (johillik) o'rtasidagi kurashdan iborat. Asosiy yovuzlik – boylikka hirs qo'yishdir.

Tabiat uch unsur: suv, olov va tuproqdan tashkil topgan bo'lib, ularning ko'shilishidan ijobiy va salbiy hodisalar kelib chiqadi. Ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash ezgulikning g'alabasi va yovuzlikning yo'q qilinishi bilan barham topadi. Mazdakchilarning ijtimoiy dasturi keskin talablar qo'ydi: barcha odamlarning teng huquqligi, iste'molda tenglik, barcha mulklarning va avvalo yerning umum ixtiyorida bo'lishi; yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berilishi.

Bunday ta'limotga asoslangan Mazdak boylarning mol-mulkini tortib olib, kambag'allarga bo'lib berishga boshchilik qilgan.

Eron shohi Qubod I (mil.488-581yy.), avval boshda Mazdakni qo'llab-quvvatlab, uni butun mamlakatga qozi qilib tayinlagan edi. Mamlakatda katta yer egalari, amaldorlar va kohinlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan so'ng, shoh Qubod I Mazdak bilan aloqani uzadi. 529 yili mazdakiylarning inqilobiy harakati bostirilib, Mazdakni qatl etiladi. Ammo uning ta'limotidagi adovat va hasadni yo'q qilishga qaratilgan tadbirlar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish muqaddas vazifa ekanligi haqidagi g'oyalar jazibakor mafkura sifatida uzoq vaqtgacha xalq qalbida saqlanib qoladi.

### ***Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk asari»***

Eng qadimgi turkiy xalq qo'shiqlari bizga qomusiy bilim sohibi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari orqali yetib kelgan. Turkiy xalqlar og'zaki ijod namunalarida vatanparvarlik, insoniylik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, ilm o'rganish, kasb-hunar egallashga da'vat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do'stlik sadoqat, kamtarlik, fidoyilik kabi turli-tuman insoniy fazilatlar o'zining badiiy ifodasini topgan.

### ***Xalq og'zaki ijodida milliy qadriyatlarning aks etishi***

Agar «To'maris», «Shiroq», «Rustam» singari xalq og'zaki ijodi namunalarida do'stlik, el-yurt himoyasiga o'tlanish va bu yo'lda jonini ham tikish, xalqni g'ayritabiiy kuchlar, ofatlardan himoya qilish singari yuksak g'oyalar mujassamlashgan bo'lsa, «Zarina va Striangiya», «Siyovush» singari

afsonalarda milliy qadriyatlarimizning boshqa jihatlarini ham tasvirlangan.

### ***Turkiy xalqlar yozuvi***

Turkiy xalqlarning bizga ma'lum yozuv tarixi hozirgi kunda runiy yoki urxun-yenisey nomi bilan yuritiluvchi bitiklardan boshlangan edi. Bu yozuv fan olamiga XVIII asrdan boshlab ma'lum bo'lgan. Markaziy Osiyoning katta qismida, jumladan, O'rta Osiyoda ham mazkur yozuv keng yoyilgan edi. Turk runiy yozuvidagi yodgorliklarning eng yirik namunalari turk amaldorlari xotirasiga qo'yilgan qabr toshlarida mujassamlangan. Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlari VI-VII asrlarga taalluqlidir. Bu xatning toshlardan tashqari oltin, kumush, suyak, yog'och, sopol buyumlarga yozilgan namunalari ham mavjud. Sharqiy Turkistondan qog'ozga bitilgan yodgorlik ham topilgan.

Qadimgi turk davrida alfavitli yozuvning boshqa turlari ham qo'llanilgan. Sug'd, uyg'ur, moniy, qisman qo'llanilgan braxma yozuvi shular jumlasidan ekanligi ilmiy tadqiqotlarda isbot etilgan.

Sug'dlar va turkiy xalqlarning madaniy aloqalari natijasida milodiy VI-VIII asrlarida uyg'ur yozuvi shakllangan. Turk xoqonligi davrida turk runiy yozuvi asosiy yozuv bo'lsa, keyinchalik uning o'rnini uyg'ur yozuvi egallagan. X asrga kelib Qoraxoniylar davlatida islom rasmiy din sifatida qabul qilingan. Shu munosabat bilan arab yozuvi boshqa barcha yozuvlar o'rnini o'ziga boshlagan.

O'rta Osiyoning turkiy xalqlari XV asr oxirlariga qadar uyg'ur va arab yozuvidan barobar foydalanib kelgan.

### **Nazorat savollari:**

- 1. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limoti to'g'risida nimalar bilasiz?*
- 2. Budda ta'limotiga ko'ra, insonning oliy maqsadi qanday bo'lishi kerak?*
- 3. Mohayana maktabining asosiy g'oyalari nimalardan iborat?*
- 4. Buddaviylikning ikki jihati deganda nimalarni tushunasiz?*
- 5. Moniyning falsafiy-ilohiy ta'limotida ma'naviy qadriyatlar qanday o'rin tutadi?*
- 6. Moniy ta'limotining falsafiy mohiyati qanday edi?*
- 7. Mazdak ta'limotining asosiy g'oyasi nimalarni ko'zda tutar edi?*
- 8. Mazdak ta'limotida qanday qadriyatlar o'rin egallagan?*
- 9. Qadimgi turklar kimlar?*

10. Qadimgi turkiy bitiklar to'g'risida eng dastlabki ma'lumotlar qaysi asarda berilgan?
11. Qadimgi turkiy bitiklarda qanday falsafiy g'oyalar mavjud? 12. «To'maris», «Shiroq», «Rustam» afsonalarida milliy qadriyatlarimizni aks etuvchi qanday g'oyalar mavjud?
13. Turkiy xalqlar yozuvi qaysi manbalardan boshlangan?
14. To'nyuquq, Bilga xoqon va Kultegin bitiktoshlarida nimalar aks etgan?

### Adabiyotlar

1. Sodiqov Q.: Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari. –T.: ToshdSHI nashriyoti, 2004.
2. Sodiqov Q. Ajdodlarimiz bitigi. –T.: Fan, 1990.
3. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. –T.: ToshdSHI nashriyoti, 2008.
4. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1995.
5. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: Yozuvchi, 2000.
6. Istoriya Vostoka. T.I. Vostok v drevnosti. –M.: Vostochnaya literatura; RAN, 2002.
7. Malov S. YE. Pamyatniki drevne tyurkskoy pismennosti. –M-L., 1951.
8. Tugusheva L.Y. Yarliki uygurskix knyazey iz rukopisnogo sobraniya LO IV AN. –Tyurkologicheskiy sbornik, 1971, –M., 1972.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T.: O'zbekiston, 1996.
10. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1995.
11. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I. –Toshkent, 1968.
12. Belenitskiy A.M. Voprosi ideologii i kultov Sogda po materialam pyandjickentskix xramov//Jivopis Drevnego Pyandjickenta. –M., 1954.
13. Ismatov B. Panteisticheskaya filosofskaya traditsiya v persidsko- tadjickskoy poezii IX-XV vv. –Dushanbe: Donish, 1986.
14. Stepanyans M.T. Vostochnaya filosofiY. Vvodniy kurs. –M., 1997.
15. Litvinsky V.A. Autline of Buddhism in Central Asia. –Moscow, 1968.

### 3-Mavzu: Hind falsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari

#### Reja:

1. Braxmanizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Vedalarda oriy qabilalar dunyoqarashining aks ettirilishi.
3. Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi.
4. Yevropada Vedalarning o'rganilishi.
5. Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi.
6. Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlardagi yangicha talqin.
7. Hayot charxi haqidagi ta'limot.

**Tayanch iboralar:** *Qadimgi Hindiston, braxmanizm, vedalar, veda adabiyoti, braxmanlar, Upanishadlar, Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Adxarvaveda, madhiya, alqov, sutra, Shrautasutra, Grxyasutra, Dxarmasutra, Agni, Indra, Mitra, Voruna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam, duolar, G. T. Kolbruk, T. Benfey, A. Veber, D. Uitni, G. Oldenberg, L. Renu, I. Xertel, P. Time, Upanishadlar, Vedalar, Qadimgi Hindiston, Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaki, Rigveda, Kena, Katxa, Isha, Shvetashvatara, Mundaka, Maxanarayana, Prashna, maytri, Mandukya, At- xarvaveda, monoteistik g'oya, Purusha, braxma, atman, sankhya, yoga, mimansa, Bxagavatgita, hayot charxi, Braxmasutra, Shankara, Ramanudji, Ram Mohan Ray, Gandi, Anketil, Dyuperron, Shopengauer, Budda, Buddha, Siddxartxa, Guatama, buddaviylik, Shakya-muni, braxmanlar, Uruvilva o'rmoni, tarki dunyochilik, dxarma, shoh Ashoka, karma, nirvana, sansara, madxyamika, yoga, chirog', shu'la, oqim, Radjagrixia, Vayshala, Pataliputra, Kashmir, Mohayana, Xinayana, Andxra, Kumaragupta I, Nalanda, Vaybxashika, Sautrantika, Yogachara, Vidjnyanavad, Dignaga, Dxarmakirti, «Pramanavartika», Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston, Yaponiya, Gupta, Pala, hinduviylik, Jaynizm, buddaviylik, Mohavira Jina Vartxaman, shvetambarlar, dualizm (sanaviyat), ruhiy (jiva), moddiy (adjiva), karma, hayot charxi, tarkidunyochilik, shaxs borlig'i, azaliy ibtido, mukammal, nomukammal, nirvana, moksha, ichki tuyg'u, aximsa.*

#### **Braxmanizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Miloddan avvalgi II minginchi yilning oxirlariga kelib, temir qurollarning tarqalishi natijasida Gang vohasida yashovchi xalqlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshlashgan. Ular o'rmonlarni kesib, botqoqlik yerlarni qurita boshlashdi. Ko'chmanchi chorvadorlar uchun ovchilikka nisbatan o'troqlashgan dehqonchilik ustun turar edi. Gang

vohasida yashovchilarning iqtisodiy hayotlarining asosini dehqonchilik tashkil etardi.

Miloddan avvalgi II minginchi yilning oxiri va I minginchi yillarning boshida jamiyatda tashkil topayotgan mafkuraviy hayotda buyuk o'zgarishlar yuz bera boshladi. Keyinchalik hind jamiyatida o'z ijtimoiy vazifalariga binoan teng huquqli kishilar to'rt guruhga yoki varnalarga bo'lina boshlandi, ya'ni *Braxmanlar* (davlat rahbarlari va donishmandlar), *Kshatriylar* (harbiylar), *Vayshyalar* (noz-ne'matlarni yaratuvchi kishilar) va *Shudralar* (jamiyatdagi eng og'ir va iflos ishlarni bajaruvchilar) (1- ilova). Bu tabaqalar bir-birlaridan ijtimoiy mavqelari, haq-huquqlari va bajaradigan ishlari bilan farqlanadilar.

Hindistonda bu davrda *Braxmanizm* yetakchi dinga aylangan edi. Dunyoda birdan bir reallik (mavjudlik) bu *Braxma*, ya'ni Braxma xudosidir. U birdan bir real dunyoviy ruh, shaxssiz, sifatsiz ilohiy substansiya, hayot manbai, barcha borliqning asosidir. Braxmanizm dinida «*Karma*» haqida ta'limot yaratildi. Bu ta'limotga asosan jon bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib yurishi ta'kidlangan. Karma qonuniga binoan inson foniy dunyoda qilgan xatti-harakatlari uchun narigi dunyoda javob beradi.

Braxmanizmda Braxma xudosi – olamni yaratuvchi bo'lib, unga qurbonlik keltirishni buyurgan. Braxmanlar o'zlarini odamlar orasida eng yaxshilari deb, *inson qiyofasidagi xudolar*, deb bilib, jamiyat fuqarolari esa, ularga bo'ysunishlari shart deb hisoblaganlar. Braxmanizm dini keyinchalik Hindiston bo'ylab yoyildi. Ilk o'rta asrlarga kelib, Hindistonda yangi din – *hinduizm* shakllanib, u butun Hindiston bo'ylab yoyildi<sup>6</sup>.

### ***Vedalarda oriy qabilalar dunyoqarashining aks ettirilishi***

Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta'limot beruvchi birinchi manba Vedalardir. *Veda* so'zining sanskrit tilidagi lug'aviy ma'nosi «*bilim*» deganidir<sup>7</sup>. Vedalar kitobi diniy mazmunda bo'lsa ham, iqtisodiy yuksalish va jamiyatning tarkibi, dunyo to'g'risidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Vedalarda oriylarning ibtidoiy dunyoqarashi aks etgan.

Veda adabiyotining ikkinchi qatlami braxmanlar bo'lib, unda dunyoning paydo bo'lishi va hamma narsaning asosida birinchi ibtido sifatida suv turishi haqidagi rivoyatlar uchraydi. Braxmanlarda mukammal diniy- falsafiy tizim bo'lmasa ham, keyinchalik Upanishadlarda asosiy mavzu bo'lgan ba'zi tushunchalar birinchi marta ifodalangan.

---

<sup>6</sup> Ahmedova M., Yo'ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi.// Sharq falsafasi. – T.:ToshdSHI nashriyoti. 2006. –B.104.

<sup>7</sup> O'sha asar. –B.105.

Vedalar miloddan avvalgi II-ming yillik oxiri va I-ming yillikning birinchi yarmida paydo bo'lgan qadimgi hindu (veda) tilida yozilgan. Vedalarning eng qadimgi qismi to'rtta yirik hajmdagi madhiya, duolar va alqovlardan iborat bo'lib *Rigveda*, *Samaveda*, *Yajurveda*, *Atxarvaveda* deb atalgan (2-ilova). *Rigveda* 1028 madhiyani o'z ichiga olgan bo'lib, matnlar sakkiz qismga, ya'ni ashtakaga bo'lingan. *Rigvedada* asosiy o'rinni yuksak badiiy ifodalardagi qofiyalarda bayon qilingan Agni, Indra, Mitra, Varuna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam va boshqa xudolarga murojaat, tabiatning turli tomonlarini o'zida mujassamlashtiruvchi kuchlarni maqtash tashkil etgan.

### ***Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi***

Vedalar bilan aloqasi borligiga qaramasdan Upanishadlarga mohiyatan falsafiy va diniy fikrlar rivojiga yangi yo'nalish berib, keyingi vujudga keladigan tizimlarga asos bo'lgan. Agar Upanishadlarda asosiy e'tibor falsafiy muammolarga qaratilgan bo'lsa, Vedalar bilan bog'liq sutralar (*Shtrautasutra*, *Prxyasutra*, *Dxarmasutra*) avvalo diniy marosimlarga va qisman huquq muammolariga (*Dxarmasutra*) bag'ishlangan.

Qadimgi Hindiston falsafasi, dini va madaniyati tarixini o'rganish bo'yicha birinchi darajali ahamiyat kasb etgan Vedalarni o'rganishga qiziqish kuchli bo'lib, bu sohada Hindistonni o'zida 25 asrlik an'ana mavjud. *Rigvedaning* mashhur sharhchilari Panini, Shankara, Sayanilardir.

### ***Yevropada Vedalarning o'rganilishi***

Ma'lumki, Sharq azaldan o'zining jozibasi bilan dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan. Xususan, hind madaniyati va falsafasi ham doimo tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Shunday tadqiqotlarning aksariyati G'arbiy Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Yevropada Vedalarga qiziqish XIX asr boshida paydo bo'lgan (Angliyada G.T.Kolbruk, keyinchalik R.Rot, T.Benfey, T.Aufrext), A.Veber (Germaniya), M.Myuller (Angliya), D.Uitni (Amerika). XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan yirik olimlar G.Grasman, G.Oldenberq, A.Xillebrand, R.Pishel, K.Geldner, A.Lyudvig (Germaniya), A.Bergen (Fransiya), M.Baumfild (Amerika), A.Kit, A.Makdonell (Angliya), oxirgi o'n yilliklarda esa, L.Renu (Fransiya), I.Xertel, G.Ertel, G.Lyuders, P.Time (Germaniya) va boshqalar Vedalarni o'rganishga muhim hissa qo'shganlar.

### ***Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi***

Upanishadlar (haqiqatni bilish maqsadida o'qituvchi oldida o'tirish) Vedalarning to'rttasidan biriga an'anaviy tarzda qo'shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi bo'lib, Veda adabiyotining yakuniy qismi – Vedanta («vedalar xotimasi») ni tashkil etadi. Odatda Upanishadlarga 108 asar taalluqli (hammasi bo'lib ularning 200 tasi ma'lum) ekanligi aniqlangan. Upanishadlarning eng qadimgisi miloddan avvalgi VI-III asrlarda vujudga kelgan. Upanishadlar keyingi davrlarda ham, hatto XIV- XV asrlargacha paydo bo'lishda davom etganlar.

Upanishadlarning eng qadimgi qatlamlari Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaka (keyingi ikkitasi Rigvedaga borib taqaladi) va Kena bo'lib, ushbu asarlar Upanishadlarning eng qiziq va obro'li qismini tashkil etadilar. Ulardan biri keyinroq yozilgan Katxa, Isha, Shvetashvatara, Mundaka, Maxanarayana qofiyadosh shakldadirlar. Prashna, Maytri va Mandukya keyinchalik yaratilgan guruhni tashkil etadilar. Atxarvedaga ko'proq taalluqli, deb topilgan Upanishadlarning qismi zamon jihatdan oxirgisi bo'lib, eng kengrog'i ham hisoblanadi.

### ***Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlardagi yangicha talqin***

Vedalar davriga taalluqli bo'lgan ko'plab muhim mavzu va g'oyalar (koinotga tegishli bir qator tasavvurlar, butun borliqning yagonaligi haqidagi g'oyalar) Upanishadlarda yangicha talqin etilgan. Ilk davrda yozilgan Upanishadlar Vedalar dinini qabul qilib, uning monoteistik g'oyalarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Upanishadlar Hindiston tarixida birinchi marta qo'yilgan falsafiy muammolarning manbasi ekanligi: «biz qayerdan kelib chiqqanmiz, biz qayerda yashayapmiz va qaysi tomonga qarab harakat qilyapmiz..., kimning hukmiga binoan biz gohida azob-uqubatda, ba'zida esa, rohat-farog'atda mavjudmiz? Bunga zamon sababmi yoki tabiatmi, yoki zaruriyatmi, tasodifmi, yoki unsurlarmi, yoki bo'lmasa Oliy Ruhni o'zida mujassamlashtirgan *Purusha*, deb atalgan odammi?» (Shvetashvatara-Upanishadlar). Bu kabi savollardan eng muhimi dunyoviy ruhning tabiati haqida bo'lib, unga muvofiq Upanishadlar falsafasining ikkita asosiy tushunchasi – *braxman* va *atman* kelib chiqqan. *Braxman* – muayyan biror narsaga ega bo'lmagan mutlaq ibtido bo'lib, butun Koinotni to'ldiradi va undagi bor narsani vujudga keltiruvchi oliy obyektiv borliqdir. *Atman* hamma narsa ichiga kira oluvchi



subyektiv voqelik sifatida o'zini namoyon etadi: u – «katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong'iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta'msiz, ko'zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning «oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo'q... (Brixadaranyaka – Upanishadlar).

### ***Hayot charxi haqidagi ta'limot***

Upanishadlarning eng muhim qismi hayot charxi to'g'risidagi ta'limot (*sansara*) va u bilan mustahkam bog'langan qilmishiga yarasha mukofotlash qonuni bo'lgan *karmadir*. Hayot charxi to'g'risidagi ta'limotga ko'ra, inson hayoti uzluksiz qayta tug'ilish zanjirining muayyan shakli sifatida tushuniladi. Hayot charxi abadiy bo'lib, dunyodagi barcha narsalar unga bo'ysunadi. Upanishadlar Hindistondagi keyingi tafakkur taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Upanishadlarning Bxagavatgitaga ta'sir o'tkazgani hammaga ma'lum. Upanishadlar falsafasining ko'p jihatlari sankhya va yoga, qisman Mimansa yo'nalishlari bilan umumiylik borligi qayd etilgan. Upanishadlarning g'oyalari Braxma-sutrada, keyinchalik Shankara Ramanudji va Vedantaning boshqa mashhur faylasuflari tomonidan to'planib sharhlangan. Upanishadlarning ta'siri Ram Mohan Ray, Gandi va boshqalarning dunyoqarashlarida namoyon bo'lgan.

Yevropada Upanishadlar bilan XIX asrning boshlarida Anketil Dyuperron tarjimalari orqali forscha qayta ishlanganligi tufayli tanishganlar. Upanishadlarning g'oyalari Yevropa falsafasiga, ayniqsa Shopengauer va XX asr boshidagi rus faylasuflari qarashlariga sezilarli ta'sir o'tkazganligi ham ma'lum.

### ***Budda ta'limotining shakllanishi va unda insonlarning tengligini e'lon qilinishi***

Budda (to'g'rirog'i Buddha, sanskrit tilida – oydinlashgan, nurlangan ma'nosida) Guatama urug'idan chiqqan Siddxartxa ismli shaxs bo'lib, buddaviylik an'anasiga ko'ra, buddaviylik falsafasi va dinining asoschisidir. Siddxartxa Shakyamuni podsho Shuddxodan xonadonida tug'ilgan bo'lib, yoshligida braxman o'qituvchilarining nasihatlarini tinglagan. 29 yoshida saroyni tark etib, Uruviyava o'rmonida tarki dunyochilik holatida mushohada orqali dunyoning abadiy ravishda shakllanib turishini tushunib yetgan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi uchinchi asrda kishilar uni yerdagi buddaviylik dinining asoschisi hisoblashgan va ushbu din ijtimoiy holatdan yuz o'girishni, zo'rlikka qarshi chiqmaslikni va taqdirga tan berishni targ'ib etgan. Hozirgi zamon fani Budda hayotini miloddan avvalgi 563-483 yillarga taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

Buddaviylik qadimgi hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqalarga (kasta) bo'linish va kohinlarga qarshi chiqqan. Barcha insonlarning tengligining e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Yirik davlatlar tashkil topishi sharoitida braxmanlik dinining kohinlariga qarshi qaratilgan bo'lganligidan, buddaviylik katta davlatlar hukmdorlariga foy-daliroq edi. Miloddan avvalgi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni Hindistondan chetga chiqib yoyilishiga hissa qo'shgan edi. Buddha dini o'z navbatida urf-odatlar, sig'inish marosimlari va aqidalar tizimini ishlab chiqqan. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan ruhlarning ko'chib yurishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, buddaviylik tirik mavjudotlarning qayta tug'ilish aqidasi o'lg'a surgan. Uning ta'kidlashicha, tirik mavjudotning o'limi uning zarrachalardan tashkil topgan tanasining sochilib ketishi bo'lib, shundan keyin uning yangi unsurlari bo'lgan – dxarmalarning yangidan tashkil topishi yuz beradi.

Dxarmalarning yangi kombinatsiyasi ilgari ko'chib yurish doirasida vujudga kelgan barcha xayrli ishlar va gunohlar majmuasiga bog'liq bo'lgan karma orqali tayin etiladi. Buddaviylikning ezgu orzusi – ruhning ko'chib yurish jarayonini to'la barham topishi va shu yo'l bilan go'yo hayot mohiyatini tashkil etuvchi azob-uqubatdan qutulish holati – *nirvanaga* erishish edi.

### ***Buddaviylikning falsafiy mazmuni***

Buddaviylikning falsafiy mazmuni ikki jihatni o'z ichiga oladi: narsalar tabiati haqidagi ta'limot va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot. Buddaviylikning narsalar tabiati haqidagi ta'limoti asosida dxarmalar – «o'zining belgilariga ega bo'lgan zarrachalar» yoki «bo'lakchalar», «unsurlar» to'g'risidagi tushunchalar yotadi. Bu ta'limotga ko'ra, dxarmazarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo'lib, har lahza shu'lalanib va o'chib turadi. Uning har bir o'chishi yangidan shu'lalanish va boshqatdan o'chishni anglatadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o'zgarishda, qaytadan tug'ilishda ko'rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g'oyasi yotadi.

Buddaviylikda dxarma – unsurlari uchun bir necha tasniflash ishlab chiqilgan. Ilk buddaviylik namoyon bo'lgan borliq – sansara va namoyon bo'lmagan borliq – nirvanaga bo'linishni qayd etgan edi. «Namoyon bo'lgan borliq» charxida bo'lish azob-uqubatlari tortish bilan hamroh bo'lib, undan qutulish – «axloqiy amalning sakkiz a'zoli yo'li»ni tushunishga olib boradi. Buddaviylik moddiy va ruhiy dunyolar yagonaligini ta'kidlaydi. Buni ta'kidlash madxyaliklar falsafiy maktabi namoyandalari tomonidan tizimga solib ishlab chiqilgan.

## ***Buddaviylikning bilish nazariyasi***

Buddaviylikning ikkinchi jihati, ya'ni bilishning yo'llari haqidagi ta'limot yogacha usulda mushohada qilishning subyektiv-g'oyaviy usuli bilan bog'liqdir. Buddaviylik ruhning mavjudligini, ya'ni inson ichidagi alohida ruhiy mohiyatni inkor etadi. Buddaviylik aqidasi dagilar inson shaxsining moddiy va ruhiy xususiyatini tashkil etuvchi besh guruh unsurlardan tashqarida alohida mavjud bo'lgan atmani inkor etadilar. Bu besh unsurlar quyidagilar: 1)ong, 2)tasavvurlar, 3)his-tuyg'u, 4)karma kuchlari, 5)inson tashqi sezgilari (2-ilova). Ushbu tizimda qandaydir o'zgarmaydigan, abadiy ibtido ga o'rin yo'q. Sabab oqibatdan oldin keladi. Inson shaxsi, dunyodagi barcha narsalar kabi o'n ikki a'zoli «sababiy tug'ilish» ifodasida mujassamlashgan sabab va oqibat qonuniga bo'ysunadi. Mavjud insoniy hayot – faqat ilgarigi mavjudlikning xulosasidir, xolos. Ong yerdagi hayotning «shaxsiy oqimi» orqali oqib, o'rtadagi holatlar orqali va undan keyin keladigan yangi qayta tug'ilish bosqichlarini bosib o'tib, har lahzada o'z mazmunini o'zgartirib turadi. Ushbu abadiy tashkil topish ko'pincha qadimgi hind falsafiy adabiyotidagi chirog' shu'lasiga o'xshatiladiki, undagi yonish va o'chish jarayoni to'xtovsiz davom etib, doimiylik tasavvurini tug'diradi.

Namoyon bo'lmagan borliq, ya'ni nirvanaga mansublik esa, chirog'da shu'laning o'chishiga qiyoslanadiki, undagi yog' ta'mini tamom bo'lgani sababli, u o'chadi. Ammo o'chgan shu'la, yo'qolgan o't emas, balki boshqa holatga o'tgan shu'ladir. Buddaviylikda bo'linib turuvchi oqim haqidagi dialektik g'oyaga asos solingan.

## ***Buddaviylikning yo'nalishlari***

Buddaviylik ilk davrlardayoq bir necha yo'nalishlarga bo'linib ketgan edi. Aqidaviy qarama-qarshiliklarni oldini olish maqsadida umumiy majlis chaqirish zarur bo'lgan. Buddaviylik an'anasi to'rt marta umumiy majlis chaqirilganligidan guvohlik beradi: Radjachrixadagi majlis (mil.av. 477 yil), Vayshala majlis (mil.av. 367 yil), Patalaputra majlisi (mil.av. III asr) va Kashmirdagi majlis (milodiy II asrda).

Mamlakat sharqida «Katta jamoa» tarafdorlari yig'ildilarki, ular maktabini Mohayana («Katta arava» yoki najotning «keng yo'li») deb atadilar. Qolgan maktablar Xinoyana («Kichik arava») nomini olgan. Ashoka (mil.av. III asr) va Kushonlar (II-III asrlar) davrida buddaviylik Hindiston hududlaridan tashqariga chiqqan. II va III asrlarda buddaviylik Andxra imperiyasida hukmron mavqega ega bo'lgan. IV-V asrlar davomida buddaviylik falsafasi hind madaniyatining barcha sohalariga kirib borgan.

V asrning birinchi yarmida shoh Kumaragupta I Nalandada buddaviylik universitetini ta'sis etgan. Bu universitet keyinchalik xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan.

I-V asrlar davomida to'rtta asosiy falsafa yo'nalishi uzil-kesil tashkil topgan edi: Vaybxashika, Sautrantika, Madxyamika, Yogachara. Keyingi vaqtda tashkil topgan vidjnyanavada-yogacharlar orasida Dignava va uning izdoshi Dxarmakirti tomonidan ishlab chiqilgan buddaviylik mantig'i va bilish nazariyasining kelib chiqishi muhim voqea bo'ldi. Dxarmakirtining «Pramanavartika» asari Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston va Yaponiya falsafiy adabiyotini boshlab bergan edi. Gupta dav- rining oxiri va ayniqsa Pala sulolasi davrida (VIII-IX asrlar) buddaviylikning ta'siri zaiflashgan edi. Nalanda universitetining inqirozga yuz tutishi buning natijasi edi. Buddaviylik va braxmanlikning yaqinlashishi yangi din bo'lgan hinduviylikning paydo bo'lishiga olib keldi. Hindistonda o'z hukmronlik mavqeini yo'qotgan buddaviylik Seylon, Birma, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga keng yoyildi.

### ***Jaynizmda insonning jamiyatdagi o'rni***

Miloddan avvalgi I-ming yillik o'rtalarida Hindistonda Vedalar mafkurasidan mustaqil ravishda bir necha ta'limotlar paydo bo'ldi. Ularda insonning jamiyatdagi o'rni masalasida yangicha yondoshuvlar bayon qilindi. Paydo bo'lgan bu yangi maktablar ichida jaynizm va buddaviylikkina umumhind ahamiyatiga ega edi.

Jaynizm mil.av.VI-V asrlarda Hindistonda to'la shakllangan edi. Asoschisi keyinchalik Mohavira (buyuk qahramon) «jina» (g'olib) degan laqab olgan sayyoh tashviqotchi Vartxaman ismli kishi edi. Hindistonning shimoli- sharqida paydo bo'lgan bu diniy-falsafiy ta'limot keyinchalik butun Hindistonga tarqalgan bo'lsa ham, ammo hech qachon uning chegarasidan tashqariga chiqmagan.

Jaynizm adabiyotining asosiy qoidalari uning bir yo'nalishi bo'lgan shvetambarlar (oq kiyim kiyganlar) tomonidan mil.av.IV asrda ishlab chiqilgan. Ammo bu ta'limot to'laligicha milodiy X-XI asrlaridagina shakllangan.

### ***Jaynizm ta'limotida sanaviyat (dualizm)***

Jaynistlar ta'limoti dualizm (sanaviyat)ni targ'ib qilgan. Unga ko'ra, inson shaxsining mohiyati ikki xususiyatga – *moddiy* (adjiva) va *ruhiy* (jiva)ga egadir. Ular o'rtasidagi bog'lovchi karma – nozik moddadan iborat bo'lgan jism bo'lib, ruhni qo'pol modda bilan qo'shilishiga imkon bergan (1-ilova). Tirik

bo'lmagan moddaning karma iplari orqali ruh bilan qo'shilishi alohida shaxsning (individ) kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Karma esa, qayta tug'ilish-ning uzluksiz zanjirida ruhni doimo kuzatib boradi. Ruhning hayot charxining karmasi ta'siridan qutilishning iloji faqat tarkidunyochilik va hayrli faoliyat orqaligina amalga oshishi mumkin. Jaynizm buddaviylikka o'xshab o'z ta'limoti asosiga shaxs borlig'i muamolarini qo'ygan edi. Bu ta'limotga binoan yaratilmagan va buzilmaydigan ikki azaliy ibtido (javhar)dan bu dunyo yaratilgan. Ular jiva (tirik, jonli, ruhiy) va adjiva (jonsiz, modda)dan iborat. Adjiva bilan bog'langanlik darajasiga qarab, mohiyatlar o'rtasidagi o'zaro jarayon ta'sirini belgilovchi jiva (ruh) borliqning ikki shaklida namoyon bo'ladi, biri mukammal, ikkinchisi esa, nomukammal bo'ladi.

Nomukammal holatdagi jiva (ruh) modda bilan qo'shilganligi tufayli o'zining imkoniy sifatini yo'qotib, azob-uqubatlarga duchor bo'lishi mumkin. Mukammal borliq holatida esa, moddiylikdan qutilib, o'z borlig'ini boshqarishga qodir bo'lib huzur-halovatli holat bo'lgan nirvana yoki mokshaga o'tishi mumkin. Jivaning ikki borliq ko'rinishiga muvofiq ravishda jaynizm ikki turdagi bilimni, ya'ni nomukammal va mukammallikni tan oladi. Nomukammal bilim, bevosita va bilvosita hosil qilingan bilimdir. Mukammal bilim esa, faqat moddiylik rishtalaridan uzilgan, ichki tuyg'u (intuitiv) orqaligina hosil qilinishi mumkin.

### *Jaynizmning axloqiy tamoyillari*

#### *1. Jonli narsalarga ozor yetkazmaslik (Aximsa).*

Uning asosida barcha narsalar jonli, degan ta'limot yotadi, chunki nafaqat hayvonlar, balki o'simliklar ham jonga ega, «hayotga zarar» bo'lgan «jongaga ham zarar»lidir. Chunki u oliy qudratdir. Bundan jaynistlar shunday xulosa chiqaradilar. Hayotning har qanday shakli, ya'ni jonli narsalarning har qanday shakllari bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

#### *2. Yolg'ondan o'zini tiyish (Satya).*

Doimo xaq gapni gapirish, gapirganda ham yaxshi, yoqimli va to'liq, hayotga hurmat yuzasidan qarab gapirish va gapirishning maqsadi haqiqat bo'lishi kerak. Ochko'zlik, qo'rquv, g'azab va shuningdek qo'pollik, haqorat, surbetlik, ahdga qarshi bo'lgan narsalardan qochish lozim. Satya ahimsadan madad oladi, chunki yolg'on hayotga zulm o'tkazadigan sabablarning bir ko'rinishidir.

#### *3. O'g'rilikdan o'zini tiya bilishlik (Asteya).*

Asteyaning asosini jaynistlar ahimsaga taqaydilar. Farovonlik hayotning tashqi pardasi hisoblanadi, uni buzishlik, hayotga zarar yetkazadi.

Ko‘rib turibmizki, birinchi uchta ahd boshqa kishilarning hayotga bo‘lgan munosabatlariga taalluqlidir. Kishilarning bir-birlariga bo‘lgan qarashlarini hamda insonning tabiatga munosabatini belgilaydi. Keyingi ikki ahd erkinlikni qidirishga qaratilgan.

#### *4. Nafsni tiyish (Braxmacharya).*

Bu ahdning amalga oshishi uchun turmush qurishdan, har qanday hirsiy lazzatlanishdan, shuningdek, ma‘naviy ojizlikdan, masalan, o‘limdan keyin jannatga tushish umididan, umuman fikrda ijobiy his-hayajon tug‘diradigan narsalardan voz kechishlik.

#### *5. Barcha ko‘ngil istaklaridan o‘zini tiya bilish (Aparigraxa)*

Bu kishida lazzat uyg‘otadigan obyektlardan o‘zini tiyishga da‘vat etadi.

Jaynizmda ma‘naviy ideal bu *donishmand avliyo* hisoblanadi. Bu ideallikni har bir kishi amalga oshirishi mumkin. Inson qaysi varna(toifa)ga taalluqli bo‘lishidan qat‘i nazar, uning irodasi butunlay individning hukmida bo‘ladi, chunki bu shaxsning ma‘naviy kuch-qudrati orqali amalga oshadi.

Shuning uchun materiyadan xalos bo‘lgan *jiva qahramon* (vira) hisoblanadi. Uning qalbi cheksiz bilimga, ishonchga, kuch-qudratga va huzur- xalovatga ega bo‘ladi.

### ***Qadimgi Hindiston falsafasidagi moddiyunchilik tamoyillari***

Qadimgi Hindiston falsafasining taraqqiyoti jarayonida moddiyunchilik tamoyillariga asos bo‘lgan falsafiy maktablar ham vujudga kelgan edi. Ana shunday ta‘limotlardan biri lokayata («bu dunyoga yo‘nalish») bo‘lib, uning asosida charvaklar ta‘limoti yotadi. An‘anaga ko‘ra, charvaklar ta‘limotining asoschisi qadimgi hind donishmandi Brixaspati hisoblanadi. «Ramayana» va ilk buddaviylik risolalarida «lokayata» ilohiy bahs yuritish san‘ati ma‘nosida qo‘llanilgan. V asrdan boshlab, bud- daviylik va jaynizmga taalluqli asarlarda ularning mualliflari «lokayata» istilohini xudoning mavjudligi, ruhni (atman) borligi va ruhni ko‘chib yurishi aqidasi inkor etuvchi moddiyuncha ta‘limotni ifodalash uchun ishlatganlar.

Lokayatlar yoki charvaklar e‘tiqodiga ko‘ra, inson to‘rt moddiy unsurdan – tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan (1-ilova). Ularning bir-birlari bilan qo‘shilishi natijasida inson tanasi, his-tuyg‘u a‘zolari va ular asosida ruhiy ibtido tashkil topganligi qayd etiladi. Insonda uning o‘limidan keyin

hech narsa qolmaydigan bo'lganligidan, lokayatlar voqe hayotdan foydalanib qolish zaruriyati haqida fikr yuritganlar. Ular moddiy hayot qanday ne'matlar keltirsa, hammasini qabul qilishni, hayotdagi yoqimli va maqbul narsalar zalolat va azob-uqubatlarni muvozanatga keltira olishini yodda tutishni maslahat berganlar.

Charvaklar mantiqiy usullar yordamida an'anaviy aqidalarni shubha ostiga olganlar. Ular tabaqalarga mutlaq bo'linganlik (kasta) tizimini, kohinlarning diniy rasm-rusumlarini va muqaddas kitoblarning mo'tabarligi haqidagi aqidalarni tanqid ostiga olganlar. Ular dunyoviy fanlar bilan shug'ullanishni, har bir ashyoning nimadan iborat ekanligini aniqlashni tavsiya etganlar. Shuning uchun ham, tabiatshunoslik fanlarini rivojlantirishda charvaklarning xizmati katta bo'lgan.

### *Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi*

Eramizning boshida Hindistonning ma'naviy hayotida hinduviylik ta'limoti hal qiluvchi mavqega ega bo'lgan. Hinduviylikning eng mashhur asari «Bxagavatgita» («Ilohiy qo'shiq») bo'lib, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Hinduviylikning falsafiy asosi olti tizimda o'z ifodasini topgan (2-ilova). Yoga – ruhiy tushunchalarni tekshirishga va amalda ruhiy ta'limotga katta e'tibor bergan.

Yoga amaliyotida sakkiz bosqich mavjud: yama (chek qo'yish), niyama (axloqiy madaniyat), asana (holat), pranayama (nafasni nazorat qilish), pratyaxara (his-tuyg'uni uzoqlashtirish), dxarana (diqqat-e'tibor), dxyana (mushohada qilish) va samadxi (chuqur mulohazaga berilish).

Chek qo'yish biror-bir kishining hayotiga ziyon yetkazishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilikdan, zino va hasislikdan o'zini tiyishda ifodalanadi. Axloqiy madaniyat poklik, qoniqishlik, tarki dunyochilik, Vedalarni o'rganish va xudo haqida o'ylash kabi yaxshi odatlar ruhidagi tarbiyalarni o'z ichiga oladi. Asana – barqaror va qulay holatni ishlab chiqishdir. Nafasni nazorat qilish havo yutish va chiqarish jarayonini boshqarishdan iboratdir. His-tuyg'uni nazorat qilish hissiyotni uning obyektidan uzoqlashtirishda ifodalanadi. Diqqat- e'tibor tushunchasi asosiy e'tiborni tirik obyektlarning ichki yoki jonsiz narsalardan tashqaridagi obyektlarga qaratish bilan belgilanadi, masalan, diqqatni burun uchiga yoki oyga qaratish kabi; mushohada esa, obyekt haqida uzluksiz va sobitqadamlik bilan fikrlashdir. Chuqur mulohazaga berilish shunday holatki, unda mushohada qilayotgan ong mushohada yuritilayotgan obyektga yo'qolib, o'z-o'zini idrok qila olmay qoladi.

*Vaysheshika falsafasining* birinchi tizimga solingan asari Vaysheshika-sutradir. Uning muallifi donishmand Kanadadir. Kitobning

barcha sutralari (bog'lovchi ip) milodiy I-asrda yozilgan. Vaysheshikaga sharh sifatida yozilgan ikkinchi asar Prashastapalaning «Padartxa-dharma-sangraxa» nomli kitobidir.

Hind falsafasining barcha tizimlaridan ko'ra, qadimgi hindistonliklarning tabiiy-ilmiy tasavvurlariga eng ko'p jihatdan aloqasi yaqini Vaysheshikadir. Vaysheshika-sutra kitob muallifi, deb hisoblanadigan Kanadaning hikmatli so'zlaridan iboratdir. Ba'zi olimlarning fikricha, Vaysheshika-sutrani bir kishi emas, balki bir avlod mutafakkirlari yozgan bo'lib, kitob holiga eramizning I asrida keltirilgan. Asar 10 kitobdan iborat. Birinchi kitobda Koinotni qamrab oluvchi 5 tushuncha – javhar, sifat, harakat, umumiylik va xususiylik qarab chiqilgan. Ikkinchi va uchinchi kitoblarda javharlar ta'rif berilgan (tuproq, suv, nur, havo, zamon, makon, ruh, aql). To'rtinchi kitobda Koinotning atomlardan tarkib topganligi tasvirlangan. Beshinchi kitobda mexanik jarayon sifatida tushunilgan harakat tahlil qilingan (tepaga otish, pastga tushish, qisqarish, kengayish va bir joydan ikkinchi joyga o'tish) va atomlarga birinchi turtki bergan, ko'rinmas kuch – adrishta tasvirlangan. Oltinchi kitobda axloq muammolari tahlil qilinib, umumiy axloqiy qonun – «dharma» o'rganilgan. Yettinchi kitob shaxsiy «men» va o'ziga xoslik, deb atalgan tushunchaga bag'ishlangan. Keyingi to'rt kitobda – bilish nazariyasi masalalari (qabul qilish, xulosa, sababiyat va boshqalar) bayon etilgan.

*Vaysheshika* ta'limotiga ko'ra, dunyoda doimiy o'zgarish, davriy va doimiy jarayonda paydo bo'lish va tanazzul yuz berib turadi. Ammo bu jarayonda muqim unsur bo'lgan atom mavjud. Atomlarning vaqtincha qo'shilishidan, bizning his-tuyg'ularimizga yetib keladigan jonli va jonsiz ashyolar paydo bo'ladi. Qayta tug'ilish bunday sharoitda doimiy ravishda qo'shib va ajralib turadigan atomlar faoliyatining mahsulidir.

*Nyayada* asosiy e'tibor mantiq va bilish nazariyasiga qaratilganki, uning muammolarini ishlab chiqish juda ko'p jihatlardan hind mantig'ining cho'qqisi hisoblanadi. Rus hindshunosi F.I.Sherbatskiy (1866-1942) fikricha, Nyaya mantig'i Hindistonning qadimgi davrlaridagi amaliyotida keng qo'llanilgan jamoa ishtirokidagi ochiq bahslarda qo'llanilgan usullarni umumlashtirish jarayonida paydo bo'lgan.

Nyaya bilish nazariyasining asosiy kelib chiqish qoidasi shundaki, bilim obyektiv voqelikdangina kelib chiqishi mumkin. Obyektiv voqelik biluvchiga bog'liq emas. Nyaya bilimning to'rt manbai yoki ishonchli bilimning (pramana) vositasini farq qiladi: 1) his-tuyg'u, qabul qilish (pratyaksha) yoki obyekt haqida bevosita bilish; 2) mantiqiy xulosa (anumana) – obyektning undagi o'zgarish belgilarini (vyapti) qismlarga bo'lish orqali bilish; 3) solishtirish yoki



qiyoslash (upamana) – yangi obyektни uni boshlang‘ich tasviri va bilib olingan obyekt bilan o‘xshashligi asosida tanish, va nihoyat, 4) obro‘li shaxsning gapi guvohligi (shabda) orqali, ya‘ni ishonchli shaxsning xabariga asoslangan bilim (3-ilovalar).

Nyayada asosiy o‘rinni mantiqiy xulosa tahlili tashkil qiladi. Nyaya xulosani uch turga bo‘ladi: 1) sababdan oqibatga (purvavat), masalan, osmonda to‘planayotgan bulutlar orqali yomg‘ir yog‘ishini bilish; 2) oqibatdan sababga (sheshavat), masalan, daryoda ko‘tarilgan suvning sathidan yomg‘ir yog‘ib o‘tganligini bilish; 3) bevosita qabul qilinmaydigan va birinchisi bilan oshkora sabab-oqibat munosabati bilan bog‘lanmagan bir hodisaning ikkinchisi bilan o‘zgarish ravishda hamrohlik aloqasi (samanyatodrishta), masalan, samoviy sayyoralarning ularning joyi o‘zgarishi bo‘yicha harakati.

Nyaya falsafasida his-tuyg‘u uyg‘otadigan ishonchli bilim vositasida xulosalar qilinadi. Bunda qiyos orqali ham natijaga erishiladi.

*Mimansa* (sanskritcha – ichiga kirish, tahlil qilish, fikr qilish, bahs yuritish)ga xos narsa uning vedantaning obyektiv idealizmi, yogachar va madyamiklarning hamma narsani inkor etuvchilik tamoyillariga qarshi qaratilgan muqobil yo‘nalishda bo‘lganligidir. Bu narsa uni Nyaya va Vaysheshika maktablari bilan yaqinlashtiradi. Mimansa tashqi dunyoning voqeyligini himoya qilib, uni xudo yoki ruh tomonidan yaratilganligi va boshqarilishini inkor etadi. Mimansa dunyoni bizning tasavvurlarimizning majmuasi yoki oqimi, deb hisoblovchi buddaviylikning ba‘zi maktablari ta‘limotiga qarshi chiqqan. Mimansa ta‘limotiga ko‘ra, umuman dunyo abadiy va o‘zgarishsiz bo‘lib, ibtidosi ham, intihosi ham yo‘q. Ammo undagi ayrim ashyolar o‘zgarishlarga duchor bo‘ladilar, paydo bo‘ladilar va zavol topadilar. Biroq, barcha o‘zgarishlarga qaramay ularning mutlaq yo‘q bo‘lishi va yangidan paydo bo‘lishi kuzatilmaydi. Dunyoning barcha xilmaxilligini Mimansa bir necha tushunchalarda ifodalaydiki, ulardan eng muhimi bo‘lgan javhar – barcha sifatlarning asosi sifatida uning barcha ko‘rinishlarida ishtirok etadi. Mimansa javharni to‘qqiz turga bo‘ladi: besh ashyoviy unsurlar (tuproq, suv, havo, olov, efir), ruh (atman), aql, zamon va makon. Aqlni istisno etganda, ushbu javhar bevosita his-tuyg‘u orqali qabul qilinadi. Mimansa ta‘limotiga muvofiq, ashyoviy unsurlar atomli tarkibga egadirlar; efir – nozik, doimiy va barcha narsalarga kira oladigan javhardir. Dunyoning barcha ashyoviy obyektlari atomlardan tashkil topgandir.

Mimansa ta‘limotiga ko‘ra, bilish nazariyasi yordamida nafaqat ashyolarni to‘g‘ri tushunishga erishish, balki asosiy metafizik tushunchalarni

ham idrok etish mumkin. Bunga, jumladan, his-tuyg‘u, mantiqiy xulosalar yoki solishtirish va boshqalar orqali erishish mumkin.

*Vedanta* (sanskritcha – xotima, Vedalarning tugashi) yoki uttara- mimansa (sanskritcha – oliy tadqiqot) – hind falsafasining obyektiv- idealistik tizimidir. Hind falsafasi tarixida Vedanta moddiyunchilik va xudosizlikka qarshi turib, dinni asoslash uchun keng qo‘llanilgan. Shakllanayotgan ilk feodal munosabatlar sharoitida Vedanta idealizmi, ayniqsa Shankara ta’limotidagi uning talqini, tabaqalarga bo‘linish, ya’ni kastalar o‘rtasidagi farqlarni mafkuraviy asoslashga va hinduviylik dinini shakllanishiga xizmat qilgan. Vedanta o‘z ibtidosini Upanishadlar ta’limotidan olgan. Vedanta tarixidagi muhim bosqich Ramanudji va uning izdoshlarining (XVIII asrgacha) ijodidir. Shankara ta’limotining asosiy g‘oyasiga ko‘ra, borliqning yagona oxirgi asosi shaxsga ega bo‘lmagan, mutlaq ruh-braxmandir. Inson ruhi (atman) braxman bilan ayniyatda bo‘lib, uning taj- ribaviy namoyon bo‘li-shidir. Braxman borliq (sat), ong (chit) va hech narsa bilan buzilmaydigan xotirjamlik, rohat-farog‘at (ananda)ning yagonaligi bilan ifodalanadi va shuning uchun *satchidananda*, deb ataladi. Vedanta hamma narsa yagona voqelik sifatidagi moddiy kuchlarning o‘zaro harakatining mahsuli, deb qabul qilgan dunyo to‘g‘risidagi qoidani inkor etadi. U Braxmanni dunyoning mutlaq ruhiy mohiyati sifatida tushunib, tan oladi.

*Sankhya* (sanskritcha – son, hisob, borliq asoslarini hisoblab chiqish asosida fikr yuritish, haqiqiy ma’no) – hind falsafasining ilk maktablaridan biri bo‘lib, eng yaxshi ishlab chiqilgan va ta’siri kuchli bo‘lgan ta’limotdir. Asoschisi donishmand Kapila hisoblanadi. Sankxyaning ayrim ta’limotlari haqida guvohlik beruvchi ma’lumotlar Upanishadlar va ilk buddaviylik manbalarida uchraydi. Sankxyaning to‘la ta’limoti Maxabxarata dostonlarida keltirilgan. Bu yerda u yoga bilan qo‘shilib ketgan. Sankhya g‘oyalari qadimgi hindlarning meditsinaga oid risolalarida, diniy-huquqiy qonunlarida (ayniqsa «Manu Qonunlari»da) va boshqa asarlarida keng foydalanilgan.

### ***Prakritining dunyoviy mohiyatlarga aylanishi***

Sankhya ta’limotiga ko‘ra, dunyoning birinchi sababi – prakritidir. U moddiy bo‘lib, borliqning javhariy asosidir. Prakriti his-tuyg‘u bilan qabul qilib bo‘lmaydigan nozik javhar bo‘lib, uning tabiati, u keltirib chiqargan moddiy dunyo ashyolarida, uning oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Oqibat o‘z sababida oldindan mavjud bo‘lsa, sabab o‘z oqibatida saqlanadi, sabab (sat) va oqibat (karya) mohiyatan ayniyatda bo‘ladi. Prakritining his- tuyg‘u bilan qabul qilib olinadigan dunyoviy mohiyatlarga aylanishi, uch sifatli unsur bo‘lgan rajas (intilish), tamas (qorong‘ilik) va sattva

(aniqlik) ta'sirida kelib chiqishi mumkinligi ta'kidlanadi. Har bir ashyoda, uning xususiyatiga muvofiq bu uch unsurdan biri ko'proq bo'ladi. Sankhya prakriti bilan bir qatorda, dunyoning moddiy asosidan mustaqil bo'lgan *purushi* (mutlaq ruh)ning mavjudligi ham tan olinadi. Garchi *purushi*, uning tufayli mavjud bo'lgan barcha ashyo va mohiyatlar tarkibida ishtirok etsa ham, uni ko'rib yoki tutib bo'lmaydi. Prakriti bilan *purushining* qo'shilish vaqtida 25 asos paydo bo'ladi. Ular orasida moddiy (suv, tuproq va shunga o'xshash) ashyolar bilan bir qatorda ruhiy mohiyatlar (o'z-o'zini anglash, aql) ham vujudga keladi.

### **Nazorat savollari:**

1. *Qadimgi hind jamiyatida qanday ijtimoiy qatlamlar mavjud edi?*
2. *Braxmanizm ta'limotiga ko'ra, olamning asosi nima tashkil etadi?*
3. *Braxmanlar o'zlariga qanday ta'rif berganlar?*
4. *Veda so'zining ma'nosi nima?*
5. *Vedalarda nimalar haqida so'z boradi?*
6. *Upanishadlarning Vedalardan farqi nimada?*
7. *Qadimgi hind falsafasi, tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha eng muhim manba nima?*
8. *Hind falsafasini o'rganish bo'yicha qanday tadqiqotlarni bilasiz?*

### **Adabiyotlar**

1. *Ahmedova M., Yo'ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi.// Sharq falsafasi. –T.:ToshdSHI nashriyoti. 2006.*
2. *Nizomiddinov N.G'. Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari va Islom. –T.:Zar qalam, 2006.*
3. *Vosem gimnov Rig-Vedi. Per. N. V. Krushevskogo. –Kazan, 1879.*
4. *Larin B. Iz oblasti vediyskoy poezii. //Vostok, 1924. –№4.*
5. *Ragozina Z.A. Istoriya Indii vremen Rig-Vedi. –SPb, 1905.*
6. *Tompson M. Vostochnaya filosofiY. –M.:Grand. 2001.*
7. *Fortunatov F. Samaveda – Aranyaka Samhita. Issledovaniye. –M., 1875.*

#### 4. Mavzu: Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari

##### *Reja:*

1. Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushunchalar.
2. Xitoy falsafasiga donishmand erlar ta'siri.
3. Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari.
5. Maktablar haqidagi yozma manbalar.
6. Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari.
7. Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari.
8. Mumtoz kitoblar haqida.
9. Inson bilimi va ziyoli er vazifasi.

**Tayanch iboralar:** *Qadimgi Xitoy, dunyo, inson, ilohiylashtirilgan muhit, osmon, yer, oliy qoida, oliy hukmdor, ajdodlar ruhi, devlar, alqov, fol, kelajak bashorati, bronza idishlar, «O'zgarishlar kitobi», «Tog'lar va dengizlar kitobi», donishmand erlar, Qadimgi Xitoy, «Shu-jing», oy-quyosh taqvim, Shan-in, dunyo, inson, «Chun syu», oliy qoida, Si («havo», «efir»), in («salbiy» «zulmat») va yan («ijobiy», «yorug'lik»), (Shi-jing) («She'rlar kitobi»), «samo» va «ajdod»lar ruhi, Konfusiychilik maktabi, Lao zi, Dao maktabi, In va Yan maktabi, Legizm maktabi, «Ismlar»maktabi, Moizm maktabi, davrlashtirish muammosi, Mumtoz kitoblar, Ashulalar kitobi, Tarix kitobi, Urf-odatlar va marosimlar kitobi, Bahor va kuz kitobi, O'zgarishlar kitobi, she'riyat, qonunchilik, falsafa, folbinlik, Dun Chjunshu, konfusiy, qabilalar, kasb-hunar, Shan hujjatlari, rasmiy yozuvlar, Lu davlatining solnomasi, toshbaqa kosasi, in va yan unsurlari, ijod etish, ijro etish, ashyoviy chiziqalar, baxt, baxtsizlik, achinish, uyat, yo'l, dao, oltita asosiy tushuncha, osmon, yer, inson, ziyoli er, o'z kuchi (de), Quyosh, oy, biriktirish.*

##### **1. Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushunchalar**

Xitoy falsafasi dunyo va inson haqida o'ziga xos tushunchalar yaratgan. Xitoy falsafiy tafakkurining ibtidosi ham, xuddi keyinchalik Qadimgi Yunonistonda bo'lgani kabi asotir tafakkurga borib taqaladi. Xitoy afsonaviy fikrida ham osmon, yer va tabiatdagi barcha narsalar ilohiylashtiriladi. Ilohiylashtirilgan muhitdan eng oliy qoida keltirib chiqariladiki, u dunyoni boshqarib, ashyolarga mavjudlik baxsh etadi. Ushbu qoidaga gohida shaxsiyat bag'ishlanib, eng oliy hukmdor (*shan-di*) sifatida tushunilsa ham, ko'pincha «osmon» (*tyan*) so'zi bilan ifodalangan.

Butun tabiat jonlantirilgan – har bir narsa, joy va hodisa o‘z devlariga ega. O‘lgan ajdodlar ruhini hurmatlash keyinchalik ularga sig‘inishni keltirib chiqarib, Qadimgi Xitoyning muhofazakorona tafakkur yuritishiga olib kelgan. Ruhlar insonga uning kelajagini bashorat qilishi, uning xulqi va faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin, deb tushunilgan. Qadimgi afsonalarning ildizlari miloddan avvalgi II-ming yillikka borib taqaladi. O‘sha vaqtda Xitoyda alqov so‘zlar va ifodalardan foydalanib, fol amaliyoti orqali ruh bilan aloqaga kirish yoyilgan edi. Bunday alqov yozuvlarni bronza idishlarga yozilgan ayrim parchalar, keyinchalik esa, «O‘zgarishlar kitobi»dan mushohada qilish mumkin. Qadimgi Xitoy afsonalar to‘plami miloddan avvalgi VII-V asrlarga taalluqli «Tog‘lar va dengizlar kitobi» (Shan xay szin)da bayon etilgan.

## **2. Xitoy falsafasiga donishmand erlar ta’siri**

Xitoy falsafiy fikri rivojining o‘ziga xos xususiyati ularga «donishmand erlar», deb atalmish kishilarning (mil.av. I- ming yillikning birinchi yarmi) ko‘rsatgan ta’siri bilan belgilanadi. Ularning ismlari ma’lum bo‘lmasa ham, ammo shu narsa seziladiki, ular dunyoni afsonaviy tushunish chegarasidan chiqib, uni tushunchalar orqali idrok qilishga harakat qilganlar. Afsonalar bilan borliqni tushunchalar orqali idrok qilishga aloqa chizig‘i tortgan bu donishmandlar ijodidan keyingi Xitoy faylasuflari naqlu qavllar keltirganlar va ularning qarashlarini rivojlantirganlar.

## **3. Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

Xitoyda falsafiy qarashlar erta paydo bo‘lgan bo‘lib, jamiyatda qulchilik tizimining shakllanishi va sodda tabiiy bilimlarning rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Arxeologlar suyaklarda topgan yozuvlari, «Shu-jing» deb nomlangan qadimgi kitob Xitoy munajjimlari Shan-in davridayoq (mil.av. XVIII-XII asr) yilni 366 kundan iboratligini aniqlab, Oy-Quyosh taqvimini yaratganligidan guvohlik beradi. Oy va Quyosh yillari o‘rtasidagi farqni bartaraf etish uchun ular har 3 yilda taqvimga qo‘shimcha oy qo‘shdilar. Mil.av.VII asrda esa, ular Oy-Quyosh taqvimini tako- millashtirdilar. Bunda har 19 yilga 7 ta qo‘shimcha oy qo‘shildi. Qadimgi Xitoy olimlari tomonidan Oy-Quyosh taqvimining yaratilishi Yerga nisbatan yulduz, Quyosh va Oyni joyini o‘zgarishini va harakatlarining ko‘p asrlik kuzatuvlari natijasida asoslangan edi. Mil.av. ikkinchi ming yillikning oxiridan boshlab, qadimgi Xitoy munajjimlari Quyosh tutilishi haqidagi yozuvlarni olib bordilar. Ko‘p o‘tmay ularning davriyligidan xabardor bo‘ldilar. Mil.av. VII asrdayoq yilni alohida davrlarga bo‘linishini aniqlab beradigan yozgi va qishki teng kunlikni aniqlash uchun Quyosh soatlari qo‘llanar edi. Qadimgi manbalarda kometa va meteoridlar haqida ko‘plab yozuvlar mavjud. Masalan, «Chun syu» yilnomalarida kometani miloddan avvalgi 611 yilda qutb yulduzi hududiga kirganligi haqida yozilgan. Ularda meteor yomg‘irlari haqida ham ko‘p sonli yozuvlar mavjud. Xususan mil.av. 687 yilning 6 martida bo‘lib o‘tgan meteor yomg‘iri haqida yozilgan. Mil.av. IV asrda Xitoy

munajjimlari Gan De va Shi Shen yulduzlar haqidagi 2 ta kitobni yozdilar, keyinchalik u «Gan Shi Sin-szin» nomi bilan bitta umumiy yulduzlar kata- logini tuzdilar. Bu dunyo bo'yicha tuzilgan yulduzlar haqidagi dastlabki katalog edi. Qadimgi Xitoyda astronomiya bilan bog'liq ilmlar rivojlandi.

Masalan, Chjan San (mil.av. II-asrning birinchi yarmi) va Szin Chou-chan (milodiy I- asr) qadimgi manbalarga asoslanib, 9 bobdan tashkil topgan «Arifmetikaga oid kitob» yaratdilar. Unga muvofiq, koeffitsiyentlarni tenglashtirish yordamida noma'lumlarni izchil istisno qilish yo'li bilan 2 ta va 3 ta noma'lum soni bo'lgan birinchi darajadagi tenglamalarni yechishda tizimli uslub bayon etiladi. Bu asarda matematika tarixida ilk bor manfiy sonlar va ular bilan hisob-kitob qilish qoidalari berilgan. Kitobda kvadrat va kubga sonlarni kiritish qoidalari asoslangan kvadrat va kub ildizlarni topish uslubi tasvirlangan.

Kitob mualliflari tengburchakli uchburchakni gipotenuzasi kvadrating katetlar kvadrati yig'indisiga tengligi haqida ham xabardor edilar.

Qadimgi Xitoy xo'jaligining asosiy sohasi bo'lgan ziroatchilikning rivojlanishi davrida astronomik va biologik bilimlar to'plandi. Birgina (Shi-jing) («She'rlar kitobi») kitobida madaniy va yovvoyi o'simliklarning 200 dan ziyod turlarining tavsifi beriladi.

Qadimgi Xitoyning hunarmandchiligi ham takomillashgan edi. Shan In davridayoq, ya'ni miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida sopol buyumlar, yog'ochdan turli maxsulotlar, asl bronza qurollar, shoyi matolar tayyorlanar edi. Mil.av. VI asrda temirning tarqalishi ishlab chiqarishning barcha sohalarida, hattoki ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlarga va ilmiy bilimlarni yuksalishlarga olib keldi. Bu davrda katta qurilish ishlarini amalga oshirish, ko'p sonli saroy va shahar qal'alarini qurish, quvur va suv tizimlarini barpo etish avj oldi. Mamlakat harbiy va savdo yo'llari tarmog'i bilan bog'landi. Ishlab chiqarishning barcha sohalaridagi ko'p asrlik ijodiy mehnat keyinchalik kelib fanning ham rivojlanishiga turtki berdi. Ayniqsa, bu davrlarda tabiat sirlarini bilishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu haqida, qadimgi «Go yuy» va «Szyu chjuan» manbalarida ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolingan. O'sha qadim zamonlardayoq suv, olov, yog'och, oltin va yer birlamchi unsurlar ekanligi haqidagi sodda falsafiy qarashlar yozib qolingan. Szyu Chjuanda birlamchi unsurlar *Si* («havo», «efir»), *in* («salbiy» «zulmat») va *yan* («ijobiy», «yorug'lik») kabi tushunchalarni falsafiy nuqtai nazardan bir- biriga bog'lab o'rganish chuqur mazmun kasb etadi.

O'zgarishlar kitobida («I jing») 5 ta birlamchi unsurlarning umumiy asosi o'z manbasi «tay szi» «buyuk ibtido» bo'lgan *si* material substansiya masalalari haqida fikrlar o'z ifodasini topa boshladi.

Xitoy falsafasida bir- biriga qarama-qarshi *In va Yan* kuchlarga ega bo'lgan *si* –tumansimon massadan barcha narsalar vujudga keladi degan ta'limot mavjud bo'lgan. Qadimgi Xitoyda elementar ilmiy bilimlar asosida paydo bo'lgan sodda materialistik g'oyalar quldorlik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi sharoitida, qabila jamoasi a'zolari bilan qabila zodagonlari

o'rtasida tobora o'sib borayotgan ziddiyatni ifoda etar edi. Shu bilan birga qul va qul egalari orasida qashshoqlashgan jamoa va qabila zodagonlari, kambag'al va qashshoqlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib, chuqurlashib bordi.

Qadimgi («Shi jing») «She'rlar kitobi»da shunday yozilgan: «Ayrimlar qashshoqlikda va qo'rquvda yashaydi, boshqalar esa, sharob va musiqa eshitib rohatlanadilar», «kimda kim ekmasa va mehnat qilmasa, mo'l hosil yig'adi». Bunday g'oyalar o'z davrining ilg'or kishilarini «samo» va «ajdod»lar ruhiga ishonmay qo'yishga olib keldi. Masalan, qadimgi she'rlarda shunday satrlarni uchratamiz: «Samo yovuz va adolatsiz, u insonlarga faqat ofat yog'diradi». Vafot etgan ajdodlarni ular insonparvarlik va insonlarga muhabbat hissidan ajrab qolib, tashlab ketgan o'g'lon va nabira va avlodlari haqida qayg'urmay qolganlikda ayblaydilar. Kishilarda jamiyatni bunday firklashi Qadimgi Xitoyda asta

- sekin ateizmning paydo bo'lishiga olib keldi. U konservativ <sup>8</sup> qabila zodagonlariga qarshi kurashda jamiyatning progressiv (ilg'or) kuchlarining jangovar quroli sifatida xizmat qildi. O'sha davr g'ayridinlar orasida yirik siyosiy arboblari – qonun asosida boshqarishning asoschilari Guan Chjun (mil.av.VII asr), Szi Chan (mil.av.VI asr) va boshqalar bo'lgan. Ularning fikricha, farovonlik va baxtsizlikni insonlar o'zlari barpo etadilar, ularning taqdiri «samo irodasi»ga tobe emas, degan qarashlar amaliy mazmun kasb eta boshladi. «Qonunlar davlatni taraqqiyotga va jamiyatni farovonlikka eltivuchi yagona yo'l» degan mashhur ta'limot Guan Chjunga tegishlidir. Uningcha, Samo osti fuqarolarining barchasi qonun olidida tengdir. «Podshohlar esa, qonunlarning buloq-qaynar ko'zi» ya'ni (yaratuvchisi bo'lib), ularning o'zi ham amalda qonunga bo'ysinadilar, aksincha, jamiyat turg'unlik sari yuz burib, (unday) davlat inqirozga yuz tutadi.

Xitoy falsafasiga xos bo'lgan yana bir jihat bu Xitoy falsafasida tabiiy fanlarni o'rganishga kam ahamiyat qaratilganligi bilan tasniflanadi. Masalan, Xitoy falsafasida metodologik jihatdan tabiiy fanlarga xos bo'lgan ilmiy tushunchalar u yoki bu darajada o'z ifodasini topmagan. Faylasuflar tomonidan tabiiy fanlar ma'lumotlariga murojaat etishni lozim topmaganligi ham bunga ma'lum qadar sabab bo'lgan. Ayrimlar moddiyunchilar va natural faylasuflar maktabini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Ammo,ular Chjou davridan keyin o'z faoliyatlarini to'xtatishgan.

Ana shu ma'noda ayrim ma'lumotlarda qadimgi Xitoy falsafasining tabiiy fanlardan ajratilganligi va mantiqqa oid masalalarning ishlanmaganligi, Xitoyda falsafiy tushunchalar shakllanishining sekin kechganligining asosiy sabablaridan biri bo'lgan edi, shuning bois ko'pgina Xitoy maktablari uchun mantiqiy tahlil usuli noma'lumligicha qolib kelgan, degan fikrlar ushbu o'rinda ma'lum ma'noda o'zini oqlaydi.

#### **4. Qadimgi Xitoyda falsafa maktablari**

---

<sup>8</sup> Kitaysko –ruskiy slovar / 2004. –S.832.

Qadimgi Xitoyda markazlashgan davlatchilikning kuchsizlanishi oqibatida markaziy boshqaruv ma'muriyatining turli soha vakillari (joylardagi hukmdorlarga ta'sir etish uchun) falsafiy maktablar tashkil etishga kirishdilar (1-ilova). Tashkil etilgan maktablar esa, umumiy «Szya», deb nomlana boshladi. Bu nomlash o'z vaqtida ularning jamiyatdagi xususiy maqomini belgilab berar edi. «Szya» so'zining asli mohiyati ham «uy», degan ma'noni anglatadi.

1. *Konfusiychilik* maktabiga olim – intellektual salohiyat egalari va hunarmandlar asos solgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi Konfusiy g'oyalarini targ'ib qilish va uni rivojlantirish bo'lgan. Shu ma'noda ularning amaliy faoliyatida *insonparvarlik (Jen)* g'oyalarini targ'ib qilish bosh masala bo'lgan.

2. Lao-szi asos solgan *Dao maktabi*. Bu maktabga tarki dunyochilik qilgan darveshlar, muvafaqqiyat va mag'lubiyat, mavjudlik va halokat, qayg'u va baxt, qadimiylilik va zamonaviylilik yo'li (*Dao*)to'g'risida yilnomalar tuzish tufayli «pokizalik va bo'shliq», «kamsitilish va zaiflashish» orqali «shohona san'at», o'z-o'zini saqlashga erishgan xronografiya muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

3. *In va Yan* (zulmat va yorug'lik) maktabini, (dunyoni tashkil etuvchi, boshlovchilar) osmon belgilari, quyosh, oy, yulduzlar, koinot mo'ljallari, vaqt almashuvini kuzatuvchilar - astronomiya muassasalaridan chiqqanlar yaratganlar.

4. *Legizmi*, «odob-axloq asosidagi» boshqaruvni (*Li*) mukofotlar, jazolar, muayyan qonunlar bilan to'ldirgan, sud muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

5. «*Ismlar*»maktabini, faoliyatlari qadimda mansab va marosimlardagi nominallik va reallik mos kelmaganligi bois ularni muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan marosimlar muassasasi vakillari yaratishgan.

6. *Moizm* maktabiga tejamkorlikni, «ko'p narsani o'z ichiga oluvchi muhabbat» (Szyan ay)ni, «loyiqlarini»(syan) ilgari surishni, navyam (guy) qadr-qimmatni biluvchi va uni hurmat qiluvchi, (min) «oldindan taqdirga bitilgan» va «bir xillikni» inkor etuvchi ibodatxona qorovullaridan chiqqanlar asos solishgan.

## 5. Maktablar haqidagi yozma manbalar

Ushbu o'nlik maktablariga asoslangan manbalarni miloddan avvalgi III- II asrlarning ensiklopedik yodgorliklari bo'lgan Lyuy shi chunsyu (janob Lyu yaning bahor va kuzi) va Xuaynan szi (Xuaynanlik o'qituvchining asari)da kuzatish mumkin. Ularning birinchisida(2–bob,5-7) «Osmon ostining o'nta atoqli arboblari ro'yxati kiritilgan: 1) yon berishni ko'plarga o'rnak qilib ko'rsatuvchi Lao Szi, 2) insonparvarlikni ulug'lovchi Konfusiy, 3) «mo'tadillik»ni ifodalovchi Modi, 4) «soflik»ni ulug'lovchi Guan in, 5)«borliq»ni ulug'lovchi Le Szi, 6) «tenglik»ni maqtovchi Tyan-pyan, 7) «egoizm - xudbinlik»ni sharaflovchi Yan Chju, 8)«kuch»ni ko'klarga ko'taruvchi



Sun bin, 9)«Oldinga intilish»ni qo‘llovchi Van byao, 10) «ergashish»ni ulug‘lovchi Er Iyan. Ushbu to‘plamda Konfusiychilik, Moizm va Daosizmning xilma-xil ko‘rinishlari bilan birga so‘nggi uchinchil o‘rinda I Ven chji matni bilan bog‘liq «harbiy maktab» o‘z ifodasini topgan. Xuaynan szi asarining umumlashtiruvchi yakuniy – 21 bobi tarkibida falsafa maktablarining vujudga kelishi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari to‘g‘risidagi g‘oyalar keltirilgan bo‘lib, ular quyidagi tartibda ko‘rsatilgan:

1) Konfusiychilik. 2) Moizm. 3) Daoni Legizm bilan uyg‘unlashtirgan Guan szi ta‘limoti (mil.av.IV-III asrlar). 4) Konfusiychilikni daosizm bilan uyg‘unlashtirilgan va sezilarli ravishda Yan-szi chun syu (o‘qituvchi Yan bahori va kuzi) ifodalangan Yan-szi ta‘limoti. 5) Vertikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar) haqidagi ta‘limot. 6) Shen Boxayning «jazolar va ismlar» (sin min) haqidagi ta‘limoti; 7) Shan yan (Gun Sunyan)ning (mil.av. IV asr) qonunlar to‘g‘risidagi ta‘limoti; 8) Daosizm bilan sug‘orilgan Lao szi va Xuaynanszi ta‘limoti; mazkur bobning boshida Loa-szi va Chjuanszi ta‘limoti ajratib ko‘rsatilgan, 2 bobda esa, Yan Chju (Modi, Shen Boxay, Gun Sunyan ta‘limoti bilan birga to‘rtlikni tashkil etuvchi) ko‘rsatilgan bo‘lib, yaxlit holda *I ven chji* turlanishi bilan o‘zaro munosabatda o‘ntaga bo‘lingan to‘plamni tashkil etib, xususan, «vertikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar)» maktabiga xos belgi va falsafa maktablarining kelib chiqishi tarixiy voqelikni umumiy bog‘lanish orqali aloqadorligi ko‘rsatib berilgan.

O‘zlarini «Xan»lar deb atagan Xitoy imperiyasi etnonimi bo‘lib kelgan, markazlashgan Xan imperiyasi shakllanishi davrida yaratilgan «Lyu sin – ban gu» nazariyasi an’anaviy fanda mumtozlik mavqeiga ega bo‘ldi. Keyinchalik, butun Xitoy tarixi mobaynida unga ishlov berish davom etib, uning keyingi rivojida Chjan Syuchen (1738-1801) va Chjan Binlin (1890- 1936)lar alohida xissa qo‘shdilar.

Bu ta‘limot XX asr Xitoy falsafasida Xu Shi tomonidan qattiq tanqid qilinishi bilan birga oltita asosiy maktabni nafaqat turli kasb, balki turli xildagi shaxslar va turmush tarzi vakllari yaratgan degan xulosaga kelgan Fen Yulan tomonidan qo‘llab quvvatlandi va rivojlantirildi. Maktablar haqida ma‘lumot beruvchi bu to‘plamlarning uzoq muddat mavjud bo‘lib kelganligi o‘sha davr maktablarining jamiyat haqidagi g‘oyaviy qarashlari xususida yetarlicha ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatlarini beradi.

## 6. Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari

Xususan, Xitoy faylasuflari tomonidan Xitoy falsafasini davrlashtirish haqida gap ketganda mazkur masala bilan bog‘liq quyidagi uch jihatga ahamiyat qaratiladi: qadimgi Shan-In va Chjou sulolasining oxiri (III asr oxiri); o‘rta asrlar – Xan va Tan sulolalari hukmronligi (III asr oxiri – X asr); Sun- Yuan, Min va Sin sulolalari davri (X-XIX)<sup>9</sup>. Ammo, Rus sino-

---

<sup>9</sup> Drevnekitayskaya filosofiya 2– x tomax. –M., 1972.

loglarining fikricha esa, Xitoy falsafasini ushbu nuqtai nazardan ilmiy tasniflash tarixning Noy Nau bo'yicha davrlashtirish mezonlariga to'g'ri kelmaydi. YA'ni, ularning fikricha, Xitoy falsafasini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq (2-ilova). Bular: 1. Xitoy falsafasining qadimdan milodiy III asrgacha bo'lgan taraqqiyoti; 2. Xitoy o'rta asrlar taraqqiyoti falsafasi II-XVIII asrlar oxiri; 3. Xitoy falsafasining yangi – (XVIII asrning oxiridan bugungacha) davri<sup>10</sup>. Ammo, bu borada XX asr oxiri va XXI asrning boshlariga kelib kishilik jamiyati hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni ham chetda qoldirmaslik kerak. Zero, bugunga kelib fanda muammolarni sivilizatsion yondoshuvlar orqali o'rganish jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, yaqin o'tmishda to'g'ri, deb qarab kelingan ayrim ilmiy konsepsiyalarni ham haqiqatdan yiroq ekanligini ko'rsatmoqda.

Ana shu ma'noda Xitoy falsafasi taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan Konfusiy va Lao-szi falsafasini o'rganish nafaqat ilmiy mazmun kasb etadi, balki Xitoy falsafasi taraqqiyoti bilan bog'liq ayrim masalalarga oydinlik kiritadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti uchun Konfusiy va Lao-szi tomonidan ilgari surilgan falsafiy – g'oyaviy qarashlar mantiqan bir – biriga qarama-qarshi. Hayot davomida esa, o'z g'oyalarni qo'llab-quvvatlab kelgan davomchilariga ega bo'lib keldi.

## **7. Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari**

Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmida va yuzta maktab davrida (mil.av. VI-II asrlarda) kelib chiqqan (1-ilova). Ushbu kitoblarning bir qatori qadimgi she'riyat, tarix, qonunchilik va falsafani o'z ichiga olgan. Bu kitoblarning mualliflari noma'lum bo'lib, o'zlari turli davrlarda yozilgan. Konfusiy izidan borgan mutafakkirlar ularga alohida e'tibor berishgan. Miloddan oldingi II-asrdan boshlab ushbu kitoblar Xitoy ziyolilari uchun asosiy tarbiya manbai bo'lgan. Ularni bilish davlat lavozimlarini egallash uchun davlat imtihonlarini topshirishga yetarli deb topilgan.

XX asrgacha barcha falsafiy maktablar o'z mulohazalarida ushbu kitobga murojaat etganlar. Ularga tayanish butun Xitoy madaniy hayotiga xos xususiyatdir.

Ilk konfusiychilikni davlat mafkurasiga aylantirgan Dun Chjunshu mumtoz kitoblarning muallifi sifatida Konfusiyni ko'rsatgan. Ammo eski matnlarning tarafdorlari Konfusiyni faqat ushbu kitoblarning sharhchisi sifatida tan olganlar, xolos. XX asr boshigacha mumtoz kitoblarning kelib chiqishi va talqini to'g'risidagi bahslar davom etgan.

## **8. Mumtoz kitoblar haqida**

---

<sup>10</sup> Kitay. – L- M. 1940.

Ashulalar kitobi (Shi szin –mil.av. XI-VI asrlar) qadimgi xalq she'riyatining to'plamidir. Diniy marosimlarda kuylanadigan ashulalarni o'z ichiga olgan. «O'zgarishlar kitobi»ning ba'zi sharhlovchilarning fikricha, «Ashulalar kitobi» qabilalar, kasb-hunarlar va ashyolarning kelib chiqishini tushuntiruvchi irfoniy asar bo'lgan. U keyingi Xitoy she'riyatining rivoji uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Tarix kitobi (Shu-szin – mil.av. I-ming yillik boshi) – Shan shu (Shan hujjatlari) nomi bilan ham mashhur bo'lib, tarixiy voqealarni aks ettirgan rasmiy hujjatlar to'plamidir. Keyingi davrlarda shakllangan rasmiy yozuvlar uchun katta ta'sir ko'rsatgan.

Urf-odatlar va marosimlar kitobi (Lu shu – mil.av.IV-I asrlar) uch qismdan: Chjou (Chjou li) davri urf-odatlari, Marosimlar tartibi (I li) va Urf-odatlar haqida Yozuvlar (Li szi)dan iborat bo'lgan. Diniy va siyosiy marosimlarni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy va siyosiy faoliyat meyorlarini belgilash masalalarini o'z ichiga olgan. Xitoyning qadimgi davrini ideallashtirib, keyingi taraqqiyot uchun namuna va meyor sifatida tavsiya etgan.

Bahor va kuz kitobi (un syu) Szo (Szo chjuan –mil.av.IV asr) sharhi bilan birga Lu davlatining (mil.av.VII-Vasrlar) solnomasidir. Keyinchalik axloqiy va adabiy rasmiyatchilik masalalarini hal qilishda namuna va meyor sifatida xizmat qilgan.

O'zgarishlar kitobi (I szin – mil.av.XII-VI asrlar) eng muhim asar ekanligi qayd etilgan. Xitoy falsafasining dunyo va inson haqidagi birinchi tasavvurlarining dunyo va inson haqidagi birinchi tasavvurlari aks ettirilgan. Uning matnlari turli davrlarda yozilgan bo'lib, unda dunyoni tasvirlashda asotiriy tafakkurdan uni falsafiy tushunishga o'tish boshlanganligi ko'zga tashlanadi. Unda qadimgi davrlarda borliq haqidagi masalani hal etish yo'llari o'z aksini topgan.

«O'zgarishlar kitobi»da Xitoy falsafiy fikri taraqqiyotining asosiy qoidalari eks ettirilgan.

«O'zgarishlar kitobi»ning kelib chiqish matni, deb atalgan ilk sahifalari miloddan avvalgi XII-VII asrlarda paydo bo'lgan bo'lsa ham, ammo uning uzviy qismi bo'lgan matnlarga yozilgan sharhlar mil.av.VIII-VI asrlarda paydo bo'lgan. Ilk matn toshbaqa kosasi, boshqa hayvonlarning suyaklari va o'simliklarga (shi) qarab fol ochish kabilardan kelib chiqqanligidan tashqari, bu yerda tushuncha shaklida mujassam etilgan in va yan unsurlari haqidagi afsonalarning aks sadosi ekanligi ko'zga chalinadi.

«O'zgarishlar kitobi»ning eng muhim qismlaridan biri in va yan unsurlari haqidagi afsonaga bag'ishlangan. Yan faol, hamma narsa tarkibiga kira oluvchi, ashyolarni bilish yo'llarini yoritib beruvchi narsa sifatida ifodalanadi. In esa, g'ayri faol, biror narsani kutib turuvchi, zulmat ibtidosi sifatida ta'riflanadi. In va Yanning harakati – yagona narsada o'zgarishga sababchi bo'luvchi harakat sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy ilk matn olti to'g'ri chiziqning turlicha majmualaridan tashkil topgan 64 geksagrammalar, ya'ni ramzlardan iboratdir (2-ilova).

Har bir majmuadagi geksagrammalarda hamda ularning chiziqlarining har bir holatiga sharhlar keltirilgan. Ana shu geksagrammalardagi chiziqlarning holatiga muvofiq ravishda «O'zgarishlar kitobi» o'z nomini olgan. Unga berilgan sharhlarda biz quyidagilarni o'qiymiz: «O'zgarishlar – bu tasvir etilgan narsadir. Harakat haqidagi qator tabiiy asosga tayanadi. Ashyoviy chiziqlar dunyo harakatiga muvofiq keladi. Shunday tarzda baxt va baxtsizlik, achinish va uyat namoyon bo'ladi».

Sharhlovchilar (hozircha noma'lum) uchun geksagrammalar asta-sekin faqat bashoratchilikka taalluqli ekanligini yo'qotib, dunyoni o'z harakatida umumiy birlik tomon olib boruvchi 64 tushuncha vazifasini o'tay boshlaganligi qayd etilgan. In va yan o'z faoliyatlarini bir-birlarisiz amalga oshira olmaydilar. «In va yan o'z kuchlarini birlashtiradilar, butun va kesilgan to'g'ri chiziqlar esa, osmon bilan yer o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi shaklni o'zlariga kasb etadilar». Bu asosiy qoidalar o'zlarining o'zaro ta'sirlarini o'zgartiradilar va «o'zaro bir-birlariga» kiradilar, shuningdek, nimaiki, «in va yan faoliyatida yashirin qolsa, tushunib bo'lmaydigan holatda qoladi». In va yanning bir-biriga o'tib turishi yo'l (dao) deb ataladi, va bu

«yo'l barcha ashyolarda yashaydi». In va yanning o'zaro «hamdo'stligi» tufayli bir-biriga kirishishidan ularning o'zaro ta'sirini ifodalovchi oltita asosiy tushuncha kelib chiqadi. «O'zgarishlar kitobi»ning mualliflari tabiat hodisalarini ifodalashda tabiiy atamalarni qo'llaganlar: «Barcha ashyolarni harakatga keltirish uchun, momaqaldiroqdan tezroq hech narsa yo'q. Barcha ashyolarni sarosimaga solib qo'yish uchun, shamoldan o'zga qulayroq narsa yo'q. Barcha ashyolarni quritish uchun, olovdan boshqa hech qanday quruq narsa yo'q. Barcha ashyolarni tinchlantirish uchun, ko'ldan ko'ra sokinroq narsaning o'zi yo'q. Barcha ashyolarni ho'llash uchun, suvdan ko'ra ho'lroq hech narsa yo'q. Barcha ashyolarning paydo bo'lishi va intihosiga yetishi uchun, qaytishdan to'laroq hech narsa yo'q. Axir bu barcha ashyolarni to'ldirish-ku». «O'zgarishlar kitobi» daoni, ya'ni ashyolar yo'li va dunyo yo'lini harakatdagi holatini kuzatib boradi. Unda, ayniqsa, «uch narsaning qatnashishi» alohida ajratib ko'rsatiladiki, ular o'z yo'llaricha harakatlanadilar, ammo har doim birga keladilar, bular: osmon, yer, inson. O'zgarishlar kitobi: qo'shimcha etilgan hukmlar sharhi II jild, 10-bob: «O'zgarishlar shunday kitobni tashkil etadilarki, u ulug'vor va keng bo'lib, hamma narsani qamrab oladi. Unda osmon yo'li, zamin yo'li, inson yo'li o'z aksini topgan. Ushbu birgalikda mavjud bo'lgan va olti to'g'ri chiziq

sababidan bir-biridan ajralishi mumkin bo'lgan ishtirokchilar, berilgan uch narsaning yo'lidan boshqa narsa emas»<sup>11</sup>.

### ***9. Inson bilimi va ziyoli er vazifasi***

Insonning barcha bilimlari hamma mavjud narsalarni tushunish, bir-biridan ajrata bilish va ayrim belgilarni idrok etishga qaratilgan. «Ziyoli er barcha narsalarni bir-biriga qo'sha olishni uddalash uchun o'qib o'rganadi. Ziyoli er, barcha narsalarning farqiga borish uchun so'rab- surishtiradi. Hamma narsalarni bo'lib chiqqa olish uchun, barcha narsalarni qanday bo'lsa, shundayligicha qoldiradi». Inson tabiat dunyosidagi o'z o'rnini haqida o'ylashi lozim, «o'z kuchini (de) Osmon va Yer bilan qo'shishi, o'zining porlashini Quyosh va Oy bilan birlashtirishi, o'z faoliyatini yilning to'rt fasli bilan birlashtirishi» zarur. U «paydo bo'lish va tanazzulga yuz tutishni ham bilishi» hamda «buning barcha haqiqatini yo'qotmasligi» lozim.

### ***Konfusiy – qadimgi ajdodlar donishmandligining sharhlovchisi***

Konfusiychilik yagona, bir butun ta'limot emas edi. U muayyan jamiyat tashkilotining nazariyasi sifatida axloqiy qoidalar, ijtimoiy meyorlar va boshqaruvni takomillashtirishga diqqat-e'tibor bergan va bu sohada muhofazakorona mavqeda turgan g'oya edi (1-ilova). Konfusiy o'zi haqida: «eskini bayon etaman va yangini barpo etmayman» degan edi. U va uning izdoshlari jamiyatning axloqiy tanazzulidan xavotirlanib, inson tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratib, jamiyatda bir-birini kechirish muhitini barqaror etishga harakat qildilar.

Konfusiy (mil.av.551-479 yy.) ning haqiqiy ismi Kun Fu szi (ustoz Kun) bo'lib, lotincha yozilishda Konfusiy sifatida qayd etilgan. Bu mutafakkir (oldingi ismi Kun-syu) Xitoyning birinchi faylasufi hisoblangan. Konfusiy bir necha yillar davomida Sharqiy Xitoy davlatlari bo'ylab sayohatga chiqqan va hayotining oxirgi yillarini shogirdlar tarbiyasiga qaratib, ba'zi mumtoz kitoblarni (szin) tartibga solgan. U ta'limoti Sin sulolasi hukmronligi davrida ta'qiqlangan ko'pgina faylasuflardan biri edi. Xan sulolasi davrida Konfusiy katta e'tibor qozonib, ilohiylashtirish darajasiga borib yetgan va yangi davrgacha hurmatli donishmand sifatida taqdirlangan.

Konfusiyning fikrlari o'z shogirdlari bilan qilgan suhbatlari tarzida saqlanib kolgan. Uning suhbatlari mazmuni o'z ifodasini topgan «*Suhbatlar va*

---

<sup>11</sup> Vostochnaya filosofiY. Perevod s cheshskogo kand.filos.nauk Boguta I.I. – Moskva: Misl, 1991. –S.564.

*hukmlar*» («*Lun yuy*») kitobi eng ishonchli manbadir; unda Konfusiy o'zini qadimgi ajdodlar donishmandligining saqlovchisi va sharhlovchisi sifatida tanitgan. U o'z zamondoshlarini Qadimgi Xitoyning afsonaviy hukmdorlari bo'lgan Yao, Shun va Yuylardan o'rnak olishga chaqirgan. Ularning xayrli ishlari haqidagi hikoyalar avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan.

Ijtimoiy burchga sodiqlik va xolislik bilan nom chiqargan hukmdor Yao xalqni ma'rifatli qilgan, barchaga mehr bilan qarab, fuqarolik va qonunchilikni joriy etgan. Uning hukmronligi davrida uylarning eshigi qulflanmagan, yo'qolgan narsalar esa, egaloriga qaytarilgan.

Yao tomi qamish bilan yopilgan kulbada yashagan. Uning taomi yovvoyi o'tlar va gurunch bo'tqasi bo'lgan. Kiyimi nihoyatda oddiy bo'lgan. Kulolchilik idishlaridan ovqat yegan. Agar mamlakatda kimdir och qolgan bo'lsa, Yao albatta shunday degan: «Uning och bo'lishiga men aybdorman». Agar mamlakatda kimningdir kiyimi bo'lmasa, Yao albatta yana shunday degan: «Uning kiyimi yo'qligiga men aybdorman!» Agar mamlakatda kimdir jinoyat qilgan bo'lsa, Yao albatta shunday degan: «Men uni jinoyat qilishgacha olib bordim». U barcha uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olgan. Mamlakatni ko'p yil boshqargan Yao, qarib qolganda hokimiyatni o'g'liga qoldirishni istamagan. Chunki uning o'g'lining boshqarish iste'dodi yo'q bo'lganligidan, Yao o'zidan keyin xalqni qiynalishini istamagan. Shuning uchun salohiyatli kishilarni atrofiga to'plab, ulardan eng aqlisiga taxtni topshirmoqchi bo'lgan. Shunday odam Shun bo'lib chiqqan. U yoshligidayoq ota-onasiga zo'r hurmati bilan mashhur bo'lgan, dehqonchilik, baliqchilik va kulolchilikni o'rgangan.

Shun Yaoga o'xshab bir necha o'n yillar podshohlik qilgan va juda ko'p xayrli ishlari bilan dong chiqargan. Keyin u ham, Yaoga o'xshab, ashula va raqslar bilangina ovora bo'lgan o'z o'g'liga taxtni qoldirmagan, balki iste'dodli va adolatli Yuyga hokimiyatni topshirgan.

Yuy o'z hukmronligi davrida misli ko'rilmagan suv toshqini oqibatlarini bartaraf etgan. Toshqinga qarshi kurashda u o'z qo'liga savat va belkurak olib ishtirok etgan. Shamol va yomg'irga qaramasdan, butun xalqni o'z ketidan safarbar etgan. U daryolar o'zanini tozalagan, yangi oquv yo'llarini ochgan.

Konfusiy o'z tashviqotlarida yuqoridagi afsonaviy hukmdorlar faoliyatidan o'rnak olishga chaqirgan. O'zi to'g'risida u shunday degan: «*Men sharhlayman, ammo yaratmayman. Men qadimgi davrlarga ishonaman va uni sevaman*». Va yana boshqa joyda: «Mening ta'limotim, qadimgilarning bizga qoldirgan va dars bergan ta'limotlaridan o'zga narsa emas. Bu ta'limotga men hech narsa qo'shmasdan va hech narsani olib qolmasdan, avvalgidek, sof holicha yetkazayapman. Bu ta'limot o'zgarmasdir, osmonning o'zi uning ijodkoridir. Men o'zim yerga urug' sepadigan va sug'oradigan dehqonga o'xshayman, ammo u o'z-o'zicha sepilgan urug'ni ko'kartirib chiqaradigan va o'simlikning boshqa turi shakliga aylantira oladigan kuchga ega emas».

### ***Konfusiy adolat haqida***

«Yer yuzidagi adolatsizlikni tugatish uchun nima qilmoq kerak?», degan savolga Konfusiy: «kishilarni axloqiy tarbiyalash yo‘li bilan», -deb javob bergan.

Osmonga sig‘inish konfusiychilikda muhim o‘rin tutgan. Osmon muayyan maqsadga yo‘naltirilgan oliy kuch sifatida talqin etilgan. U barcha aholining taqdirini belgilaydi. Osmon ulug‘vor qudratga ega bo‘lgan kuch bo‘lib, aql va oliy adolat ramzidir. Ammo osmon hukmini yerda ijro qilishga kim loyiq? Osmonning yerdagi shunday «vakili» hukmdor shaxsidir. Bu hakda konfusiychilikning «Shu-szin» kitobida shunday deyiladi:

«Osmon, odamlarga hayot bag‘ishlash bilan birga, ularga ehtiroslar ham beradi. Agar odamlar boshqaruvchisiz qolishsa, unda bosh-boshdoqliklar kelib chiqishi mumkin, shuning uchun Osmon oliy aql egasi bo‘lgan insonni yaratdiki, lozim bo‘lgan vaqtda hukmron bo‘lishga qodir». Shunday qilib, Konfusiy va uning izdoshlari hukmdorning hokimiyatini ilohiylashtirdilar. U nafaqat Osmonning yerdagi «vakili», balki insonlar dunyosi bilan ruhlar va ilohiy kuchlar o‘rtasidagi vositachi hamdir.

### ***Konfusiyning «ismlarni tuzatish» g‘oyasi***

Konfusiy «ismlarni tuzatish» (chjen min) g‘oyasini ilgari surgan edi. Tuzatish yoki to‘g‘irlash tushunchasining mohiyati quyidagilardan iborat edi: har bir kishi jamiyatda o‘ziga ajratilgan muayyan joyni egallashi va shunga muvofiq o‘z xatti-harakatini o‘lchashi lozim, ya‘ni jamiyatda o‘z «maqom»i ga ega bo‘lishi yo hukmdor yoki shoh, katta lavozimdagi mansabdor yoki o‘rtacha lavozimdagi xodim, yoki oddiy fuqaro bo‘lishi zarur. «Olijanob er, - degan edi u, - o‘zi bilmagan narsaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lmog‘i lozim. Agar ismlar noto‘g‘ri bo‘lsa, aytilgan so‘zlar asosli bo‘lmaydi. Agar aytilgan so‘zlar asosli bo‘lmasa, u vaqtda ishlar bajarilmaydi. Agar ishlar amalga oshmasa, rasm-rusumlar va musiqa ravnaq topmaydi. Agar rasm- rusumlar va musiqa ravnaq topmasa, jazolash yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Agar jazolash yetarli darajada qo‘llanilmasa, xalq nima qilishini bilmay qoladi».

### ***Konfusiyda tartib tushunchasi***

G‘arbiy Chjou sulolasi davridagi muayyan meyorlar, munosabatlar, harakatlar, huquq va burchlarni ifodalovchi tartib tushunchasining (li) ilk ma‘nosini Konfusiy namunaviy g‘oya sifatida tavsiya etadi. Uning fikricha, tartib insonning tabiatga, jumladan, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarida namoyon baladigan umumiy orzudagi istak tufayli o‘rnatiladi. Tartib (li) tashqi xatti-harakatni, ya‘ni etiketni ham o‘z ichiga oluvchi axloqiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Tartibga asliy kelib chiqish jihatdan rioya etish burch majburiyatlarini maqsadga muvofiq ravishda bajarishga olib keladi. «Agar olijanob er (szyun szi) aniq ish tutuvchi va vaqtni bekorga sarflamaydigan bo‘lsa, basharti u boshqalarga nisbatan hurmat bilan muomala

qiladigan va tartibga rioya etuvchi bo'lsa, unda to'rt dengiz orasida yashovchi kishilar unga birodar bo'ladilar». Tartib (li) xayrli ish (de) bilan to'ldiriladi: «Szichan haqida gapirgan muallim, uning oliyjanob er kishiga taalluqli to'rt xayrli ishini ta'kidlab o'tgan. Xususiy xatti-harakatida u muloyim, xizmatda-aniiq ish tutuvchi, insonparvar va odamlarga nisbatan adolatli». Konfusiy fikricha, o'z vazifalarini ana shunday tartibga binoan bajarish zaruriy ravishda odamgarchilikning (jen) namoyon bo'lishiga olib keladi. Odamgarchilik – insonga nisbatan qo'yiladigan barcha talablarning asosidir. Insonning yashash tarzi shunchalik ijtimoiydirki, u uni boshqarib turuvchi quyidagilarsiz yashay olmaydi: a) o'zing nimaga erishmoqchi bo'lsang, boshqalarga ham shunga erishishga yordam ber; b) o'zing xohlamagan narsani, boshqalarga ham ravo ko'rma.

Odamlar oilaviy sharoitga bog'lik ravishda, keyin esa, ijtimoiy holatlarga nisbatan bir-birlaridan farqlanadilar. Oilaviy otasolorlik (patriarxal) munosabatlaridan Konfusiy o'g'illik va birodarlik olijanobligi (*syao ti*) asosiy qoidasini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy munosabatlarga oilaviy munosabatlar tengdirlar. Fuqaroning hokimga, boshliqning o'z qo'l ostidagi xizmatchiga bo'lgan munosabati o'g'ilning otaga va ukaning akaga bo'lgan munosabati kabidir. Xizmat yuzasidan boshliqqa nisbatan bo'lgan muomala tartibga rioya etish uchun Konfusiy adolatlilik va ijrochi-likning asosiy qoidalarini (*i*) ishlab chiqdi. Adolatlilik va ijrochilik haqiqatni borliq sifatida tushunishga bog'liq bo'lmaganligi tufayli, Konfusiy bu masala bilan maxsus shug'ullanmaydi. Inson tartib va uning holati taqozo etgandek, xatti-harakat etmog'i lozim. To'g'ri ijrochilik xatti-harakati – bu shunday odobki, unda tartib va odamgarchilikka qat'iy ravishda rioya qilinadi, negaki, «oliyjanob er qaysi narsa yaxshi ijrochilikka kirishini, xuddi kichik lavozimdagi odamlar nima foydaligini bilganidek, uning farqiga boradilar».

Konfusiy ta'limotiga ko'ra, ma'lumotli kishilarning yo'li (*dao*) shunday bo'lib, ular axloqiy kuchga (*de*) egadirlar va shuning uchun ham jamiyatni boshqarish ularga ishonib topshirilishi kerak.

### ***Konfusiy bilim haqida***

Konfusiyning axloqiy-siyosiy ta'limoti qandaydir nazariy bilish asosiga tayanmaydi. Bilim (*chji*) va uning kelib chiqish masalasini Konfusiy qadimgi kitoblarni o'rganish va qadimgi ajdodlar tajribasidan iqtibos qilishda, deb bildi. Uningcha, bilimning asosiy manbasi o'qishdir va uning manbasi esa, qadimgi rivoyatlar va solnomalardir. Shuning uchun konfusiychilikka jamiyat taraqqiyotidagi ilgarigi va yangi tajribaga tanqidiy munosabatda bo'lib, ulardan xulosalar chiqarish yot edi. Tabiatshunoslik fanlariga umuman e'tibor berilmagan edi. Har qanday yangi hodisa eskiga tajriba nuqtai nazaridan baholanar va o'tmishga borib taqalar edi. Masalaning bunday qo'yilishi Xitoy o'tmishini ideallashtirishga olib keldi. Konfusiychilik ta'limoti muhofazakorona fikrlar tayanchiga aylandi.



## Nazorat savollari

1. *Konfusiy kim bo'lgan?*
2. *Konfusiychilik ta'limotining yetakchi g'oyasi nima edi?*
3. *Yao, Shun va Yuylardek afsonaviy hukmdorlar Markaziy Osiyo tafakkuri tarixida ham mavjud bo'lganmi?*
4. *Konfusiychilikning asosiy shiori nima edi?*
5. *Konfusiyga ko'ra, adolatsizlikni tugatmoq uchun nima qilmoq kerak?*
6. *«Ismlarni tuzatish» g'oyasi deganda nimani tushunasiz?*
7. *Konfusiy o'zining bilish to'g'risidagi qarashlarida nimaga asoslanadi?*
8. *Konfusiychilik ta'limoti hozirgi kunda Xitoy ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etmoqda?*

## Adabiyotlar

1. *Veber M. Xozyaystvennaya etika mirovix religiy. –M., 1985.*
2. *Vostochnaya filosofiY. Perevod s cheshskogo kan.filos.nauk. I.I.Boguta. –M.: Misl, 1991*
3. *Drevnekitayskaya filosofiY. V 2 tomax. –M., 1972.*
4. *Istoriya Vostoka. V 6-tomax. T.1. Vostok v drevnosti.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.*
5. *Kitayskaya filosofiY. Ensiklopedicheskiy slovar. –M.: Misl, 1994.*
6. *Konfusiy. Uroki mudrosti –M.: Eksmo.FOLIO, 2007.*
7. *Filosofskaya ensiklopediY. T.3. –M., 1964.*
8. *Istoriya filosofii v kratkom izlojenii. –M.:Misl, 1991.*
9. *Yaspers K. Istoki istorii i yeyo sel. Yaspers. Smisl i naznacheniiye istorii. –M., 1994.*
10. *Trofimova Z.P. Gumanizm, religiya i svobodomisliye. –M., 1993.*

**5. Mavzu: Yaponiya va Koreyada falsafiy fikr rivojining muhim xususiyatlari. Sharq va G‘arb falsafasi tarixiy rivojlanishining o‘zaro aloqadorligi. Globallashuv sharoitida Sharq falsafasi va madaniyatini o‘rganishning ahamiyati.**

**Reja:**

1. Qadimgi Koreyadagi ilk diniy-falsafiy tasavvurlar.
2. Qadimgi Koreyada mifologiya va shamanizm.
3. Qadimgi Chosonda dastlabki falsafiy qarashlarning shakllanishi.
4. Yaponiya qadimgi davrda.
5. Yaponlarning ilk e‘tiqodlari.
6. Sintoizm.
7. Koreyada konfusiychilik.
8. Buddaviylik.
9. Daosizm.

**Mavzuning tayanch tushunchalari:** *Qadimgi Koreya, ilk e‘tiqodlar, «Tangun haqida afsona», Kirin, animizm, mifologiya, shamanizm, Okonshante, xanir, Qadimgi Choson, yan va im, yanki, imki, besh unsur, reinkarnatsiya, Qadimgi Yaponiya, ilk e‘tiqodlar, «Kodziki», naturizm, animizm, yozma qoidalar, sintoizm, «kami no-mixi», ayol xudo Amaterasu, imperatorning muqaddas irodasi, (mikado, tenno), «norito», shamanizm, davlat hukmronligi, Koguryo, Pekche va Silla davlatlari, konfusiychilik, txekak maktabi, kendan maktabi, Osmonga sig‘inish, buddaviylik, mohayana, «Phalg- vanxe» bayrami, «sakkiz narsadan voz kechish» dasturi, ortodoksal buddaviylik, daosizm, «ki», «do», «Koguryo yozishmalari».*

***Qadimgi Koreyadagi ilk diniy-falsafiy tasavvurlar***

Totemizm asoratlari – insonning hayvonot, o‘simlik va boshqa jismlar guruhining sirli dunyosi bilan bog‘liqligiga bo‘lgan ishonch – koreys halqining turli mif va rivoyatlarida, hamda ularning qadimiy rassomchilik san‘atida mavjudligini kuzatish mumkin. Shunday qadimiy afsonalardan biri bu «Tangun haqida afsona» bo‘lib, u koreys halqi va davlatining qadimiyligini ifodalagan. Unga ko‘ra, osmon ma‘budining o‘g‘li shahzoda Xvanun Txeboksan tog‘ida «Ma‘budlar makoni»ni qurgan. U odamlarni foydali ishlarga va bilimlarga, jumladan, dehqonchilik, tabibchilik, duradgorlik va tikuvchilik san‘atlariga hamda baliqchilikka o‘rgatadi. U paytlarda tog‘da insonga aylanib qolish xohishidagi ayiq va yo‘lbars yashar edilar. Shunda Xvanun ularga agar siz g‘or ichida yuz kun sarimsoq piyoz va dorivor o‘tlar iste‘mol qilib yashasangiz, istagingiz amalga oshadi, deb aytgan ekan. Ayiq bu shartni bajargan va bir ayolga

aylangan. Ayolga aylangan ayiq Xvanunga turmushga chiqib, bir Tangun ismli o'g'ilni tuqqan va mil.av. 2333 yilda Pxyenda u Choson yoki Qadimgi Choson davlatiga asos solgan<sup>12</sup>.

### *Qadimgi Koreyada mifologiya va shamanizm*

Animizm va shamanizm koreys xalqining afsonaviy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Animizm asoratlari Koreya hududidagi turli qadimiy joylarning qazilmalarida topilgan<sup>13</sup>. O'zining ko'p asrlik tarixi davomida koreys xalqi doim tabiatni ilohiylashtirib, uni sanoqsiz sirli ruhlar va yovuz kuchlar bilan bog'lab kelgan. Ruhlar va yovuz kuchlar har yerda mavjuddir.

«Ular har bir daraxt tagida, har bir tashlandiq yerda, oqayotgan suvda va tog' bag'rida yashaydi ular har bir koreysni umr bo'yi kuzatib yuradi<sup>14</sup>«. Koreys mifologiyasida g'aroyib hayvonlardan ajdaho, bir shoxli kirin, qaqnus qushi va boshqalar mavjud. Eng oliy darajada shakllangan ayol va erkak sintezini o'zida to'liq aks ettirgan hayvon «kirin» hisoblanadi. («ki» - erkak, «rin» – «ayol»). U o'zida dunyo paydo bo'lishining dastlabki besh elementlari: suv, olov, daraxt, metall va yerni mujassamlashtirgan. U shu bilan bir qatorda o'zida qadimgi koreyslarning aksiologik qadriyatlarini ham aks ettirgan. Kirin tinchlik, baxt, to'g'rilik va haqgo'ylik ramzidir<sup>15</sup>.

«Kirin» obrazida koreys falsafasining mifologik qarashlardan kelgusi tushunchalar va obrazlarga asta-sekin o'tish jarayonini: dunyo yaralishining ayol va erkak davrini (yan va im), dastlabki besh unsur ta'limotini (suv, olov, yog'och, metall va yer), insoniyat va dunyo taraqqiyotining birligi (osmoniy «li» ta'limoti)ni kuzatish mumkin.

Insonda bir emas, uchta ruh mavjud ekan. Biri inson o'lganidan keyin samoga olib ketiladi (xanir); uni uchta farishta (yaxshilar ruhi) go'zal boqqa(sin-tyon) olib ketadi. Bog' rahbari Okonshante uni so'roq qiladi, yerda qilgan gunohlari va yaxshiliklariga qarab, uni yana qayta yerga o'sha tanaga yuboradi yoki go'zal bog'da qoldiradi, yoki biron bir hayvon qiyofasiga kiritadi. Ikkinchi ruh esa, tana ko'milgan yerda qoladi va uni do'zaxga (uni ham uch farishta) olib ketadilar. Uchinchi ruh esa, havoda, o'z yashash joyiga yaqin qismida qoladi, uni esa, farishta olib ketar ekan.

### *Qadimgi Chosonda dastlabki falsafiy qarashlarning shakllanishi*

Qadimgi Chosondagi dastlabki falsafiy qarashlar Xitoy ta'sirida shakllangan. Qadimiy koreys faylasuflari dunyoni ikkita omillar: erkak, ijobiylik, yaxshilik, faollik ramzi bo'lmish – **yan** va ayol, salbiylik, yovuzlik

<sup>12</sup> KoreY. Sifri i fakti. –Seul, 1993. –S.16.

<sup>13</sup> Istoriya Korei. T. 1. –M., 1960. Per. s kor. –S.42.

<sup>14</sup> Opisanije Korei. –M., 1960. –S.402.

<sup>15</sup> Qarang: O'sha asar. –B.404-406.

va faol bo'lmashlik ramzi bo'lmish *-imning* o'zaro ta'siri, chatishuvi va aralashuvidan paydo bo'lgan, deb tushungan. Dunyo asosining ikkala kuchi (*yanki*: *ki*-yaxshilik va *imki*-yovuzlik)xususiyatlarini o'zida mujassamlash- tirgan *kining* kombinatsiyasi hamda besh asosiy stixiya suv, yer, olov, metall va yog'och asosida yer va osmon paydo bo'ldi. Besh unurning turli tarkibiy qismda ekanligi sifat va miqdor jihatdan turli mavjudotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi<sup>16</sup>.

Aynan mana shu besh element turli shohliklar sulolasining paydo bo'lishi asosida ham yotadi. Har bir sulola unga azaldan berilgan xususiyatlar va unga asos bo'lgan element (yer, suv, olov, metall va yog'och)ga xos bo'lgan «ijobiy sifatlar»ga asoslangan holda hukmronlik qilgan. Bu stixiyalar asta-sekin bir- biri bilan o'rin almashaveradi: yer yog'och bilan, yog'och metall bilan, metall olov bilan, olov suv bilan. Aynan mana shu almashishlar hukmron sulolarga ham xosdir. «Har bir sulola hukmronligi davrida unga asos bo'lgan stixiyaga xos ijobiy sifatlar o'zining taraqqiyot cho'qqisiga erishadi. Osmon sulolalarining hukmronlik muddatini o'z hukmi bilan tugata olmasligi sababli u bu ishni keyingi sulolaga xos bo'lgan qarashlar asosida amalga oshiradi. Jumladan, yog'och stixiyasiga xos bo'lgan sulolaning hukmronlik muddati tugaganini anglatuvchi belgi qurigan va barglari to'kilayotgan daraxtdir»<sup>17</sup>.

*Ki* tushunchasi (*imki* va *yanki*) inson ruhi yoki koreyslar tan olganidek ruhlarning ham asosida yotadi. *Imki* «pek»ni – o'limdan so'ng esa, «devga» aylanadigan ruhni hamda *yanki* – «xon»ni «ruhlarga» aylanadigan (aqli ruh)ni yaratadi. Koreyslarda «xon» qayta tug'iluvchi ruh sifatida tan olinadi. Reinkarnatsiya, ruhning inson yoki hayvon qiyofasida qayta tug'ilish g'oyasi aynan shu ruh bilan bog'liq. Ushbu g'oya buddaviylikdagi «ruhning qayta tug'ilish» g'oyasiga yaqindir. Lekin u Koreyada totemizm bilan bog'liq bo'lgan holda ancha qadimiy an'anadir<sup>18</sup>.

### ***Yaponiya qadimgi davrda***

Yapon orollariga aholining ko'chib kelishi uzoq ming yilliklar qa'riga borib taqaladi. Yangi era arafasida mo'g'ul manchjur-tunguss qabilalarining poleozit hamda malay qabilalari bilan o'zaro qo'shilishi natijasida yapon elatining o'zagi tashkil topdi. Milodiy III-VI asrlarda ulardan biri bo'lgan Yamato qabilasi qolganlarni o'ziga tobe etishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa birlamchi yapon elatining shakllanish jarayoni boshlandiki, u arxipelagda

---

<sup>16</sup> Ushkov A.M. Nekotoriye voprosi istorii filosofskoy misli v Koreye epoxi feodalizma. //Voprosi filosofii» 1962, № 5. –S.106.

<sup>17</sup> Chon Chin Sok, Chon Son Chxol, Kim Chxan Von. Istoriya koreyskoy filosofii. –M., 1966. Per. s kor. –S.23.

<sup>18</sup> Qarang: Ionova Y.V. Predstavleniya koreysev o dushe. //Mifologiya i verovaniya narodov Vostochnoy i Yujnoy Azii. –M., 1973. –S.171-172.

nisbatan bir xil aholini vujudga kelishida o'z ifodasini topdi. IV-VIII asrlarda xitoy va koreyslarning qitadan faol ko'chib kelishi hodisasi ro'y berdi. Yamato tuzumi orollardagi birinchi davlatning tamal toshini qo'ydi. Bunda ushbu davrga kelib, o'z davlatchiligining yuqori darajada rivoj topishiga erishgan Xitoyning tasiri muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ilk yapon davlatining boshida ilohiylashtirilgan dohiy – hukmdor turgan bo'lib, u an'anaviy nuqtai nazarga ko'ra, «o'z shajarasini xudolardan boshlagan» edi. Urug' aslzodalari ma'muriy maqomlarga ega bulib, mamlakat hududlarini boshqarar edilar. V-VII asrlarda sholikorlik va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullangan dehqonlar yer solig'ini to'lar edilar.

### *Yaponlarning ilk e'tiqodlari*

Qadimgi yaponlarning dunyoqarashi haqidagi ma'lumotlar VIII asrga kelib yozib tugallangan «*Kodziki*» («Qadimgi kishilarning qilmishlari haqidagi bitiklar»)da saqlanib qolgan. U o'z ichiga afsonalar, tarixiy rivoyatlar va bo'lib o'tgan hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan. Qadimgi e'tiqodlar asosida oila-urug', qabila arvohlari va homiy xudolar bo'lgan – *Kamilarni* qadrlash yotar edi. «*Kami*» so'zining tom ma'nosi «tepadagi», «ba-landdagi»ni bildirar edi. Arvohlar barcha mavjudotlarning kizga ko'rinmas ramzi hisoblanar edilar. Qadimgi yapon asotir tafakkuri uchun xos bo'lgan xususiyat tabiatni ilohiylashtirish (*naturizm*) va uni jonlantirish (*animizm*) deb bilish edi. Butun tabiat ruhlar bilan to'lib-toshgan deb tushunilib, tog'lar, buloqlar, daraxtlar, gullar va shu kabilarga sig'inilar edi. Tabiatga sig'inish-ning markazida Quyoshni ilohiylashtirish yotar edi. Qadimgi e'tiqodlar yozma qoidalarga ham, ruhlarning tabaqalanishiga ham, haqiqiy ibodatxonalar va kohinlarga ham, ularning nomlanishiga ham ega emas edilar.

### *Sintoizm*

V asrda buddaviylikning va VI asrda konfusiychilikning kirib kelishi munosabati bilan, ularga muqobil holda qadimgi an'anaviy din «kami no-mixi», aynan «kami yo'li», ya'ni «mahalliy xudolar yo'li» yoki - xitoychasiga «shin-to», keyinchalik esa, Yevropa tillariga «*sinto*» sifatida kirib, «*sintoizm*», deb ataladigan bo'ldi. Sintoizm VI asr o'rtalarida buddaviylik davlat dini, deb e'lon qilingunga qadar, davlat dini sifatida xizmat qildi. Sintoistik tasavvurlarga ko'ra, butun borliq xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, yaratilish jarayonini o'zi xudolarning vujudga kelishi bilan uzviy ravishda bog'langan. Olamning ibtidodagi holati tartibsizlik (xaos) tarzida tavsiflanadi, keyinchalik osmonning yerdan ajralishi ro'y beradi. Matnlarda

«8 miriadalar» yoki 8 million xudolar, ya'ni ruhlar haqida fikrlar mavjud. Sintoistik xudolar safining markazida *ayol xudo Amaterasu* turgan bo'lib, uning timsoli sifatida Quyosh tan olinadi.

Yapon imperatorlari shajarasining asoschisi, deb hisoblangan afsonaviy imperator Dzimmu, ayol xudo Amaterasuning nabirasi sifatida tan olinadi. Ana shu yerdan sintoizmning asosiy o'zagi, ya'ni imperator hokimiyatining ilohiy kelib chiqishi haqidagi aqida boshlanadi va shuning uchun har bir yaponiyalik shaxs imperatorning muqaddas irodasiga (mikado, tenno)<sup>1</sup> bo'ysunishga majbur. Imperator saroyi va olamdan o'tgan *tenno* maqbaralari muqaddas ibodatxonalar hisoblanadi.

Sintoistik e'tiqod «*norito*» – duo ifodalarini o'qish, qurbonliklar (guruch, sabzavot, baliq) keltirish bilan bog'liq. Ammo sintoizmda *shamanizm* unsurlari ham mavjud. Kohinlar e'tiqod qiluvchilarni jazava tushishga undab, ularni xudolar bilan muloqot qildirish maqsadida o'zligini yo'qotish holatigacha olib keladilar.

Garchi sintoizmda e'tiqod asoschisi yoki payg'ambari, uning alohida diniy ta'limoti, diniy axloq meyorlari bo'lmasa-da, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xudolar davri haqidagi yilnoma muqaddas yozma manba vazifasini bajarib keladi. Sintoning o'ziga xos xususiyati shundaki, u narigi dunyo masalalari bilan juda kam qiziqib, asosiy e'tiborni butunlay yerdagi hayotga qaratadi. Bu aqida ommaning xulq-atvor tarzi, rivoyat, odatlari, qadimiy ishonchlarining muayyan belgilarining majmui sifatida yapon turmush tarzining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Qariyb 2 ming yil muqaddam paydo bo'lgan, qadimiy din hisoblangan Sinto, muayyan sharoitlar taqozosi bilan o'zgarib, yangilanib borgan. O'z vaqtida davlat dini maqomiga ega bo'lgan buddaviylikdan farqli o'laroq, Sinto tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlarida yaponlarning yagona, asl milliy dini bo'lib keldi.

### ***Koreyada konfusiychilik***

Konfusiychilik Koreyaga Qadimiy Choson davridayoq kirib keldi. 372 yilda esa, Koguryo davlatida zodagon oilalar ta'lim oladigan «*txekak*» nomli konfusiychilikning oliy maktabi tashkil etildi. Bular bilan bir qatorda oddiy xalq uchun «*kendan*» nomli konfusiychilik maktablari turli viloyatlarda faoliyat ko'rsatib keldi. IV asrda konfusiychilik Pekchega, VI asrda esa, Silla davlatlariga kirib bordi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Tokarev A. *Religii v istorii narodov mira*. –M., 1964. –S.243-250.

Bu davrda konfusiychilik asosida xudoning kuch-qudrati va barcha narsa va hodisalarni boshqaruvchisi sifatida Osmonga sig'inish kuchayib bordi. Ota-onaga hurmat, shohga halqning sadoqati, kichiklarning kattalarga bo'ysunishi, ayolning erini hurmat qilishiga asoslangan konfusiychilik bu davrga kelib davlat qurilishi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosiga aylandi. Hurmat tushunchasi butun jamiyatga singib bordi: oiladan tortib butun davlat miqyosida, natijada davlat-oila, degan ijtimoiy model shakllandi<sup>19</sup>.

Koreys konfusiychiligi mahalliy rasm-rusumlarni hech qanday to'siqsiz, muammosiz qabul qila boshladi. Masalan, unda ota-bobolar va buyuk shaxslar ruhiga g'amxo'rlik qilish keng yoyila bordi. (Konfusiychilik, Xitoy mifologiyasidagi hikoyalar va koreys halqining tarixiy qahramonlari), qurbonlik keltirish va sig'inish uchun qurilgan ibodatxonalardagi ruhlar (mahalliy yerlar, tog'lar, suvlarni, hamda tabiat kuchlarini – osmon, yer, shamol, yomg'ir va boshqalarni himoyalovchi). Konfusiychilikda ruhsat berilgan ota-bobolar ruhiga g'amxo'rlikning o'ziga xos tomoni shundan iborat ediki, o'lgan kishi ruhining yaxshi yoki yomon holatda bo'lishi va, shunga ko'ra, ularning o'z avlodlarining hayotiga bo'lgan ta'siri avlod tomonidan urf-odatlariga rioya qilinishiga, o'z navbatida ularning ma'naviy axloqiga ham bog'lagan holda talqin qilingan. Bobolar ruhiga sig'inishda ikki dunyoning (o'liklar va tiriklar dunyosi) o'zaro ta'siriga oid ikki narsani kuzatish mumkin. Qurbonlik keltirish va turli marosimlar o'tkazish bilan tiriklar bobolar ruhining, u tirikligida qanday inson bo'lganidan qat'iy nazar, tinchligini ta'minlay oladi, ikkinchi tomondan, xuddi shu marosimlar bobolarning o'z avlodiga bo'lgan munosabatini yumshatishga, agar ular bunga loyiq bo'lsa bo'lmasa, erisha oladilar.

Konfusiychilik besh unsur haqidagi ta'limotni ham qabul qildi. Buni konfusiychilikda mavjud bo'lgan jamiyatdagi besh xil munosabat (shoh va qo'l ostidagilar munosabati, ota-ona va farzandlar orasidagi munosabat, er-xotin o'rtasidagi munosabat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi munosabat, do'stlar o'rtasidagi munosabat) haqidagi ta'limotdan hamda ma'naviyatning besh asosiy xususiyati haqidagi ta'limotdan (bag'rikenglik, to'g'ri fikrlash, to'g'ri axloq, bilishga intilish va haqqoniylik) yaqqol ko'rish mumkin.

### ***Buddaviylik***

Buddaviylik – aniqrog'i uning Mohayana nomli yo'nalishi, Koreyaga eramizniig IV asrida Hindiston va Xitoy missionerlari tomonidan olib kirilgan edi.

---

<sup>19</sup> Ahmedova M.A., Xan V.S. Koreya falsafasi (qisqacha tarixiy bayon). –T.: ToshDShI nashriyoti. 2009. – B.8.

Koreya yarim orolida buddaviylik mahalliy dinlar ta'sirida o'ziga xos xususiyatlar bilan boyidi. Buddha bu yerda mavjud sig'inish obyektlariga, bobolar ruhi va tabiiy kuchlarga sig'inishga qarshi qo'yilmadi, aksincha, «ular bilan bir qatorga qo'yilib, bir-birini to'ldiruvchi va bobolar ruhiga bo'lgan e'tiqodni kuchaytiruvchi ma'bud sifatida qabul qilindi»<sup>20</sup>. Sillada buddaviy bayramlar sakkiz ruhga: osmon, buyuk tog'lar, buyuk daryolar, ajdaholar va boshqa ruhlarga bag'ishlangan «Phalgvanxe» bayrami bilan birgalikda nishonlanar edi. Koguryoda osmon va g'orlar ruhiga sig'inilar edi. Pekcheda esa, Osmon va Yer ruhiga sig'inilar edi<sup>21</sup>.

Qisqa vaqt ichida buddaviylik uchchala davlatning yuqori tabaqalari orasida tarqaldi. Tez orada esa, buddaviylik hukmron dinga aylandi.

Buddaviylik Koreyada tarqala borgan sari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'la boshladi. Ilk davrlarda uning tarkidunyochilik g'oyasi, ya'ni dunyoviy istaklardan voz kechish va ruhni poklashga yo'naltirilgan to'g'ri axlok-odob yo'lidan borish alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Tarkidunyochilikni targ'ib etish Silla shohining maslahatchisi bo'lgan va davlat nazariyasiga aylangan «sakkiz narsadan voz kechish» dasturini ishlab chiqqan ruhoniy Xeryana nomi bilan bog'liqdir. Man etilgan sakkiz narsalarga quyidagilar kirar edi: «Tirik jonzotni o'ldirmaslik, o'g'irlikka qo'l urmaslik, dangasalik va bema'ni xulqli bulmaslik, so'zlashuvda bemulohazalik, xulqda nokamtarlik, ichkilikka berilmaslik, xushbo'y hidlardan foydalanmaslik, gullardan uzoq yurish, rohatlanishdan o'zini tiyish»<sup>22</sup>.

Tez orada Koreyada ortodoksal buddaviylikdan farqli ravishda turli diniy sektalar, mazhablar paydo bo'la boshladi: Von Xyo (617–687 gg.) tashkil etgan Xedonchon mazxabi (Sharq dengizlari mazxabi), Iy San (624–702 yillar) tomonidan tashkil etilgan «Xedon xvaomchon» mazhabi, shuningdek ruhoniy Von Kvan qarashlarini sanab o'tish mumkin.

Iy Sanning ta'kidlashicha, hatto haqiqat ham ruhdadir. Haq yo'lidan borishni insonning bosgan qadami orqali aniqlanishi lozim: «buddaviylik qonun-qoidalari tenglikka asoslangan, shu bois ular uchun yuqori tabaqa, quyi tabaqa, oliylar yoki pastlar, degan tushunchalar begonadir».<sup>23</sup> Hashamatli poytaxtda yashab noto'g'ri yo'lidan yurgandan ko'ra, shoh bo'lsa ham hujrada yashagani foydaliroq, deb hisoblash Haq yo'lidan turib boshqarilayotganini anglatadi.

---

<sup>20</sup> Istoriya Korei. T. 1. Per. s kor. –M., 1960. –B.78.

<sup>21</sup> Ahmedova M. A., Xan V. S. Koreya falsafasi (qisqacha tarixiy bayon). – T.: ToshSHI nashriyoti. 2009. – B.9.

<sup>22</sup> Chon Chin Sok, Chon Son Chxol, Kim Chxan Von. Istoriya koreyskoy filosofii. Per. s kor. –M., 1966. –B.33.

<sup>23</sup> Istoriya Korei. T. 1. Per. s kor –M., 1960. –B.12.



Von Kvan ham, shuningdek, ortodoksal buddaviylikning dogmalaridan farq qiluvchi ta'limot bilan chiqqan. YA'ni, u ortodoksal buddaviylik ta'limotiga qarshi ravishda tirik jonzotni o'ldirish (albatta besabab emas) mumkin, degan g'oyani ko'tarib chiqadi.

### *Daosizm*

Daosizm – Xitoy faylasuflari Lao-szi va Chjuan-szi ta'limoti – Koreya yarimoroliga VII asr boshlarida kirib kelgan.

Daosizmga ko'ra, dunyo asosida bosh negiz sifatida *ki* («*si*» - Xitoy daosizmida) hamda hayotning harakat va o'zgarish qonuni *do* («*dao*» – «*yo'l*» Xitoy daosizmida) yotadi. Barcha narsalar doimiy o'zgarishdadir. Davlatni boshqarishda donishmand hukmdor daoga – narsalarning tabiiy harakatiga halaqit bermasligi kerak. Davlatning haqiqiy inqirozi hukmdorning daoga halaqit berishidan boshlanadi. Daosizm tarafdorlari bu ta'limotni amalda ham qo'lladilar. Pekche hukmdori Koguryoga bosqinchilikni takror- langanida uning qo'mondoni Mak Go Xe bostirib bormasdan ilgari shu bilan cheklanishni taklif etgan va bu fikrini shunday asoslagan: «Bizga qadimdan daolarning quyidagi rivoyati ma'lum: «Agar meyorini bilsang uyat emas, vaqtida o'zingni to'xtata olsang xavf mavjud emas. Biz endi ko'p narsaga ega bo'ldik, biz yana ham ko'p talab qilishimiz lozimmi?»<sup>24</sup>

Daosizm sekin-asta kuchaya bordi. Unga buddaviylik va kon- fusiychilikning muhim bir tarmog'i, deb qarala boshlandi. «Uch davlatning tarixiy yilnomalari» («Koguryo yozishmalari») daosizmning ta'sir kuchi haqida shoh saroyi amaldorlaridan birining tilidan shunday munosabat bildiriladi: «... Uch muqaddas ta'limot (konfusiychilik, buddaviylik va daosizm) bamisoli qozonning uch oyog'i, uning hatto bittasi bo'lmasa ham bilinadi»<sup>25</sup>.

### **Nazorat savollari:**

1. *Konfusiychilik Koreyaga qachon kirib keldi?*
2. *Konfusiychilikda jamiyatning qaysi sohasiga ko'proq e'tibor berildi?*
3. *Koreyadagi konfusiychilik an'anaviy konfusiychilikdan nimasi bilan farq qiladi?*
4. *Koreyadagi konfusiychilikning besh unsur to'g'risidagi ta'limotining mohiyati nimada ?*
5. *Ortodoksal buddaviylik deganda nimani tushunasiz?*

<sup>24</sup> Chon Chin Sok, Chon Son Chxol, Kim Chxan Von. Istoriya koreyskoy filosofii. Per. s kor. –M., 1966. –B.37.

<sup>25</sup> O'sha asar. –B.39.

6. «Sakkiz narsadan voz kechish» dasturida nimalar aks etgan?
7. Daosizm ta'limotining asosiy g'oyasi nima edi?
8. Nima uchun buddaviylik ta'limoti har uchchala davlatning yuqori tabaqalari orasida keng tarqaldi?

### **Adabiyotlar**

1. Ahmedova M.A. Xan V.S. Koreya falsafasi (qisqacha tarixiy bayon). –T.: TDSHI nashriyoti. 2009.
2. Istoriya Vostoka.V 6-tomax. T.1. Vostok v drevnosti.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.
3. Istoriya Vostoka.V 6-tomax. T.2. Vostok v sredniye veka.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.
4. KoreY. Sifri i fakti. –Seul, 1993.
5. Istoriya Korei. T. 1. Per. s kor. –M., 1960.
6. Opisaniye Korei. –M., 1960.
7. Ushkov A.M. Nekotoriye voprosi istorii filosofskoy misli v Koreye epoxi feodalizma.//Voprosi filosofii, 1962.№5.
8. Chon Chin Sok, Chon Son Chxol, Kim Chxan Von. Istoriya koreyskoy filosofii. Per. s kor.– M., 1966.
9. Ionova Y.V. Predstavleniya koreysev o dushe.// Mifologiya i verovaniya narodov Vostochnoy i Yujnoy Azii. –M., 1973.

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**1-amaliy mashg'ulot. Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari.** (4 soat).

**Maqsad:** Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlari, Sharq va G'arb falsafasi va madaniyatining o'zaro ta'siri, Sharq renessansining mohiyati, Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

**Tayanch iboralar:** *Sharq falsafasining asosiy davrlari, Sharq madaniyati tarixi, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, diniy va mifologik dunyoqarash, falsafa, Fales, Yunon madaniyati, falsafiy matnlar, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G'arb madaniyatlari rivoji va aloqadorligi, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, birlamchi fanlar.*

**1.Topshiriq: Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari**

### Nazariy ma'lumotlar

Falsafa, inson tafakkurining umumbashariy shakli sifatida, jamiyatdagi mavjud holatdan qoniqmaslikning ma'naviy ifodasi, uni yanada takomillashtirish, rivojlantirishning, butun olam-tabiati, jamiyatning mazmun-mohiyati, inson, insoniyat, xalq, millatning maqsad- muddaosi muammolarini chuqur o'rganishga asoslangan holdagi ilmiy- nazariy omilidir. Demak, falsafa, birinchi galda, jamiyatga va faqat shu bois, o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar uchun kerak. Darhaqiqat, voqeylikda, insonlar va jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlar, yangilanishlar yuz bergan sari falsafaga bo'lgan qiziqishning ortib borishi ham muqarrarlashadi.

Ajdodlarimiz, Sharq va G'arb xalqlari vakillari yaratgan falsafiy ta'limotlardan yurtdoshlarimizni bahramand qiluvchi, ularga hozirgi zamon falsafasining turli-tuman, hatto qarama-qarshi fikrlarini chuqur bilish imkoniyatini beruvchi ma'naviy muhitni shakllantirish, tegishli yo'nalishdagi, davr talablariga monand tadqiqotlarni amalga oshirish, mazkur sohaga oid darsliklarni yaratish lozimligini uqtirish – ushbu da'vatning muhim qirralarini tashkil etadi. Zero, xuddi mana shunday jiddiy falsafiy zamingina, o'zida xalqimizning ezgu niyatlari, orzu-umidlarini jo etgan, milliy g'oya va ijtimoiy mafkuralarni yaratishning


mustahkam ilmiy-nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot asosida mavjud holatdan qoniqmaslik hissi yotadi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengish, yangi kuch, g‘ayrat to‘plash uchun, rivojlanishning zaminini tayyorlash uchun insonga chidam, sabr-toqat kerak.

Sabru toqat rivojlanish jarayonining vaqtinchalik shakli, mukammallikka intilish, ehtiyojlarning yuksalishi esa – doimiy holatdir. Insonning erkinlikka, adolatga, mehr-muhabbatga, go‘zallikka, kamolotga intilishi, qobiliyatlarini namoyon etishga, ijod etishga urinishi – uning ma’naviy ehtiyojidir.

Ehtiyojlar sog‘lom va nosog‘lom bo‘lishi mumkin. Insonning erkin kamolotiga xizmat qiladigan, undagi ijobiy qobiliyatlarini, fazilatlarini boyitadigan, rivojlantiradigan ehtiyojlar sog‘lom ehtiyojlardir. Aksincha, nafs xohishlarining cheksiz avj olishiga, molparastlikka, shahvatparastlikka, mansabparastlikka, insondagi salbiy jihatlarning kuchayishiga xizmat qiladigan ehtiyojlar nosog‘lom ehtiyojlardir.

Buyuk yunon faylasufi, yetti donishmandning biri hisoblangan Fales “Yomon vositalar orqali boyimagin” degan edi.



Hozirgi vaqtda ilg‘or Sharq mamlakatlari Yevropa va Amerikadan ushbu usulni o‘zlashtirmoqdalar. Bunga II jahon urushidan keyingi Yaponiya, Janubiy Quriya, Singapur, Malayziya, Tailand, Tayvan va keyingi 30 yil ichida to‘xtovsiz islohotlar bilan band bo‘lgan Xitoy misol bo‘la oladi. Islom dunyosi mamlakatlari katta mablag‘ manbalariga ega bo‘lsalar ham, hali hozir milliy innovasion tizimga o‘tayotganlari yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir- birini to‘ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy oʻnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining maʼnaviy poklanish, maʼnaviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uygʻun ravishda rivojlanib borishni doimo davlatimiz va jamiyatimizning eʼtibor markaziga qoʻyib kelmoqdamiz”<sup>26</sup>.

Falsafaning nima ekanligidan xabar beruvchi oʻnlab taʼriflarni keltirish mumkin. Masalan, IX asrda yashagan arab faylasufi Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy (801-866) xalifa Muʼtasimga bagʻishlab yozgan “Birinchi falsafa” asarida falsafaga taʼrif berib, “Insonning toqati yetguncha narsalar haqiqatini bilish ilmi” yoki “Mabaʼdi ut-tabia” (“Tabiatdan keyin keladigan narsalar”) kitobida “Har bir haqiqat sababini birinchi haqiqatga olib boruvchi ilm” deb atagan. Uning fikricha, “Haqiqat izlovchi uchun hech bir narsa haqiqatning oʻzidan qimmatroq emas”.

Dastlabki fanlar tasnifini birinchilardan boʻlib al-Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi taʼlimotni shakllantirdi. U birinchi bosqichni mantiq va matematika; ikkinchi bosqichni fizika (aniq fanlar); uchinchi bosqichni esa metafizika bilan bogʻliq bilim, deb hisobladi.

*“Birlamchi fanlar” deb atalgan, ayniqsa uning rasional qismi hisoblangan fanlarning vujudga kelishi bilan islom dunyosida koʻproq aqliy mushohadaga murojaat qiladigan boʻldilar va shularning natijasi sifatida “Islom falsafasi” nomi ostida alohida fan paydo boʻlib, rivojlandi.*

~~Bungacha~~ muʼtazila guruhi tufayli haqiqatlarni kashf etish va diniy ahkomlarni asoslashga aqliy mushohada va rasional muhokamalardan foydalanish boshlangan edi. Muʼtazila oqimi islom tafakkuri tarixida rasionalizm tarafdori sifatida maʼlumdir. “Ular Kurʼon va hadislarni zohiriy tomondan sodda anglashdan yuqori koʻtarilib, aqliy muhokamalarga tayangan holda dinni himoya qila oldilar”.

Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy X asrda falsafaga quyidagicha taʼrif bergan edi:

“Mavjudot haqidagi bilim qoʻlga kiritilsa, shu haqda taʼlim berilsa, mavjudotdan boʻlgan narsaning zoti bilinsa, narsaning maʼnosi tushuNilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo boʻlsa, mana shu maʼlumotga doir fanni falsafa deymiz”.

Haqiqatan ham “falsafa voqelikdagi barcha narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandır”.

<sup>26</sup> Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008. –B.68-69.

Forobiyning ulug' xizmati faqat uning falsafani chuqur anglab yetganida va yangi g'oyalar, fikrlar berganidagina emas, balki din va falsafa orasidagi munosabatlarni qat'iy va aniq ifodalagani hamda bu ikki sohaning insonlar ongida birga yashashi mumkinligini uyg'unlashtirib isbotlab berganligidadir.

Forobiy dinga jiddiy munosabatda bo'lib, shariatning zohiriy tomoniga qarshi chiqish o'rniga, uning botiniy mohiyatiga falsafiy ma'no berdi.

Forobiy o'zining "Al-huruf" (Harflar) asarida shunday deydi: "Agar din barcha umumiy jihatlari bilan takomillashadigan falsafaga itoat etsa, unda u haq va to'g'ridir. Ammo agar din to'g'ri tahliliy falsafa hali shakllanmay, balki halq tafakkuri, g'oyasi bo'lgan ritorika (balog'at san'ati, so'zamollik), dialektika (bahs) va sofistika (har qanday vosita bilan bo'lsa ham raqibni so'zda lol qoldirish) bilan band bo'lgan davrda paydo bo'lsa, bunday falsafaga bo'ysungan din ham yolg'on va xatolardan xoli bo'lmaydi. Ko'p hollarda u boshidan oxirigacha noto'g'ri bo'lib chiqadi. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega, chunki falsafa – mag'z, din – po'stloq, aniqrog'i – falsafaning qurolidir".

Uning fikricha, din juda katta ahamiyatga ega. Zero, bir tomondan uning mohiyati yana o'sha oliy falsafadir, boshqa tomondan esa shariat insoniyat jamiyati mavjudligi va ijtimoiy tartib barqarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (tahlil va tadqiq)ga qurilgan falsafadir. Uningcha, haq din bilan haqiqiy falsafa birdir. Faqat falsafa – xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomga ham tushunarlidir<sup>27</sup>.

Forobiy fikricha, payg'ambarlar va faylasuflar bilimlarining manbai bittadir. Faylasuf faol aql bilan qo'shib, haqiqatni biladi, Payg'ambar esa – haqiqatning in'ikosi bo'lmish vahiy orqali biladi. Din esa vahiy asosidagi haqiqatdir. Din va falsafa – har ikkisi ham bilim va mushohadadir, farq shundaki, din soddalashtirilgan falsafadir. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariga tayanadi, din esa o'sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning din va falsafaning yagona birligi haqidagi mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik, Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo'yganligiga urg'u bera boshladilar. Ba'zilar, jumladan andaluziyalik faylasuf Ibn Tufayl uni bu masalada keskin tanqid qildi. Andaluziyalik faylasufning daliliga ko'ra, Forobiy faylasuf darajasini go'yo payg'ambarlikdan ham yuqoriroq qo'ygan. Ammo, Forobiy "Din falsafaning misollaridir" deganda payg'ambar xalq tilida

---

<sup>27</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. R. 12.

soʻzlashishga majbur ekanligini ham alohida qayd etib oʻtadi. Chunki, omma daliliy hukmlarni tushunmaganligi sababli, daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan oʻzga imkoniyat yoʻq. Binobarin, paygʻambar ham faylasufdir. Forobiyning fikriga koʻra, avomning diniy qarashlari, uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yoʻq. Shuning uchun u oʻz fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb ham oʻylamagan va aksincha bundan xavotir ham olganki, uningcha “avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi”.

Rasional islom falsafasi oʻzining paydo boʻlish vaqtidan boshlab musulmon jamiyatida ikkita qudratli raqibga duch keldi. Birinchisi – dinni va aqlini aqidaparastlarcha, qotib qolgan fikr (dogma) sifatida qabul qilish boʻlsa, ikkinchisi – tasavvuf va irfon edi. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyoni ifodasi edi. Yunon falsafasining keyingi irfoniy oqimlar bilan oʻxshashlik jihatlari mavjud.

*Rasional islom falsafasi oʻzining paydo boʻlish vaqtidan boshlab musulmon jamiyatida ikkita qudratli raqibga duch keldi. Birinchisi – dinni va aqlini aqidaparastlarcha, qotib qolgan fikr (dogma) sifatida qabul qilish boʻlsa, ikkinchisi – tasavvuf va irfon edi. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyoni ifodasi edi. Yunon falsafasining keyingi irfoniy oqimlar bilan oʻxshashlik jihatlari mavjud.*

Ikki asr davomida loyullab turgan kalom ilmiy sohadagi bahslar atangasini oʻchirishi oson emas edi. Kalom va tasavvuf islom falsafasining tarkibiy qismlari sifatida maydonga chiqdi. Bu nazariy maktablar islom falsafasini yaratishga shart-sharoit yaratdilar.

Forobiy falsafasining inkor etib boʻlmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe boʻlgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qoʻydi. Falsafalar oʻrtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini paygʻambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din oʻrtasida hech qanday tafovut yoʻq. Bunday qarash oʻz davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi. Shuning uchun ham Forobiyning maʼlum maʼnoda islom falsafasining muassisi, yaʼni asoschisi, deb bilmoq kerak.

Islom falsafasi oʻz tarkibiga besh yoʻnalishni qamrab oladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar. Bularga hozirgi zamon eron faylasufi Muhammad Xotamiy quyidagicha taʼrif beradi:

“Amalda musulmon jamiyatining rasional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to‘rtta tamoyil (yo‘nalish)ni ko‘rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg‘unlik munosabatlarini oliy darajada qo‘ygan oqim.
2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko‘radigan oqim.
3. Aql va falsafaning qo‘li qisqa, oyog‘i cho‘loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, degan irfon va tasavvuf oqimi. Sufiylar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deyдилar va “dalil keltirib isbotlovchilarning oyog‘i yog‘ochdandir”, ular haqqa yetishishga ojiz, deb aytadilar.
4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta’kidlovchi oqim”<sup>28</sup>.

Ushbu oqimlar boshqa xalqlar va madaniyatlar, jumladan yunon olimlari qarashlaridan bahramand bo‘lgan holda vujudga kelgan edi. Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy Forobiydan yuz yil oldin falsafani jiddiy o‘rganishga kirishgan edi, boshqa olimlar esa falsafiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish bilan chegaralanardilar. Biroq Forobiy bilan al-Kindiy orasida katta farq bor. Bu shunda namoyon bo‘ladiki, Forobiy yangi yo‘l ochgan o‘zining yangi maktabiga asos solgan faylasuf bo‘lsa, al-Kindiy o‘zlashtirilgan fikrlarni tadqiq etgan olimdir.

Ibn Sino (980-1037) o‘zining “Donishnoma” asarida ta’kidlashicha, “harakat deb, odatda makonda sodir bo‘ladigan narsaga aytiladi; ammo bu tushunchaning ma’nosi hozir boshqacha, makon harakatdan ko‘ra, umumiyroq ma’noni anglatadi: imkoniyatdagi narsa bo‘lgan biror-bir narsaning istalgan holati va harakati shu imkoniyat sababidan harakat deyiladi”.

Ibn Sino fikriga ko‘ra, barcha falsafiy ilmlar ikki qismga bo‘linadi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, Ibn Sino ta’kidicha, ikki turga bo‘linadi: birinchisi bizning shaxsiy xatti- harakatimiz bilan tanishtiradi va u “amaliy ilmlar” deb nomlanadi <sup>29</sup>. Chunki bu bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo‘lishi uchun kerak bo‘ladi. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo‘lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O‘z o‘rnida

<sup>28</sup> Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. –T.: Minhoj, 2003. –B.58.

<sup>29</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. R. 14.



tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi.

Makon Ibn Sino nuqtai nazaridan jism ham, shakl ham emas. Bu unda jism o‘rin oladigan “hech nima”. U har qanday jismni qurshab oladi. “O‘rin”ning borligi “to‘ldirilgan” makonning mavjudligini asoslaydi. Uning fikricha, “dahr” moddaning, uning o‘zgarishiga bog‘liq abadiy va mutlaq vaqt bo‘lib, qanday bo‘lmasin, makon va harakat bilan tor aloqada mavjud.

Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasi keyinchalik islom falsafasida tabiiy-ilmiiy hamda ijtimoiy bilimlar konsepsiyasini ishlab chiqishda diniy va ilmiy bilimlarni uyg‘unlashtirishda muhim vosita bo‘lgan. O‘z navbatida bilishning bu ikki shakli bir-biriga halal bermasligi kerak, degan g‘oya ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki ular bir maqsad – haqiqatni topishi va unga erishish yo‘lida harakat qiladilar, degan yondoshuv konsepsial asosga ega edi.

“Ikki haqiqat nazariyasi” mutakallimlar bilan mu‘taziliylar, aql bilan e‘tiqod o‘rtasida kelishuv vujudga kelganligidan darak beradi. Chunki keyingi davr musulmon xalqlari tarixidan o‘rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizi uning asosiga qurilganini ko‘rish mumkin. “Ikki haqiqat” tarafdorlarining qarashlaridagi bunday xulosalar aslida qadimgi yunon faylasufi Aflotun falsafasiga asoslanar edi. Agar Aflotun falsafasida narsalar dunyosidan oldin, unga nisbatan birlamchi, o‘zgarmas mohiyatga ega bo‘lgan “g‘oyalar dunyosi” mavjudligi e‘tirof etilsa, unda bu o‘zgarmas mohiyatni anglab yetishning ham ikki yo‘li mavjuddir, deb ishonch bildiradi.

Uning fikricha, bu dunyoning o‘zgarmas mohiyati alohida qobiliyatga ega, o‘ta sezgir odamlarning faoliyati orqali anglab olinadi. Buning ikkinchi yo‘li esa, kishilar tomonidan g‘oyalar dunyosi (mohiyat)ning hosilasi bo‘lmish, narsalar dunyosini tashkil etuvchi voqea va hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, sifat hamda xossalarni o‘rganish asosida ham mohiyatni anglab olish mumkin.

Zamonaviy islomning falsafiy asoslarini o‘rganishda Sharq va G‘arb tajribasini birgalikda olib borish zarurligi haqida T.J.Uinter o‘zining “XXI asrda islom” nomli asarida quyidagilarni yozadi:

“Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi G‘azzoliy tufayli mashhur bo‘lib ketgan edi, o‘sha madrasada fiqh bilan bir qatorda yunon an‘analari asosidagi falsafiy ilohiyotshunoslik ham o‘qitilar, shuningdek, o‘sha vaqtdagi rahnamolarni raqib mafkuralarining oyog‘ini osmondan qiladigan zarur qurol bilan ta‘minlar edi. Bizga yangi minglikda mujaddid, mu‘tadil, bag‘rikeng, ruhoniylar ko‘zqarashga ega, dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmasdan, uni tushunadigan va u bilan bahsga kirisha oladigan daho G‘azzoliy kerak. Xususan, bunday shaxs yangi zamonga o‘z hukmini o‘tkazayotgan ma‘naviyat, san‘at va atrof-muhit masalalarini puxta bilishi darkor. G‘arb

kishisiga nima ta'sir etishi va uni nima harakatlantirayotganidan xabardor g'arblik musulmon mutafakkirlari biladiki, mabodo islom diskursi ushbu masalalarga e'tibor qaratib, muvaffaqiyatga erishadigan, ekstremizmning yovuz ruhini quvadigan bo'lsa, dinimiz nafaqat gullab-yashnashi, qolaversa, yangi asrning diniy kurashlarida markaziy o'rinni qayta egallashi ham mumkin".

Rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga tadrijiy (evolyusion) va sakrashesimon (inqilobiy) o'zgarish, eski sifatdan yangi sifatga o'tish kiradi. Bu ikki turdagi o'tish fan taraqqiyoti uchun ham xosdir.

Yevropaning musulmon viloyatlarida, ayniqsa, mavrlar Ispaniyasida, musulmon, yahudiy, xristianlar ta'lim berishgan. Uchchala e'tiqod vakillari o'z diniy aqidalarini yunon falsafasi g'oyalari bilan himoyalashga urinishgan, bu albatta xristian sxolastikasiga ta'sir etgan.

Siyosatdagi kabi falsafada ham arab-musulmon mutafakkirlari inqilob sodir etishgan emas, balki dastlabki g'oyalar bilan cheklanishga va shakllantirish mumkin bo'lganlarini shakllantirishga harakat qilishgan. Lekin ularning fan va falsafaga qo'shgan hisssasi jahon, ayniqsa, Yevropa falsafiy va ilmiy dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Homid G'azzoliy falsafiy dalillarga qarshi raddiya yozganidan keyin islom ilmi falsafa bilan birlashib, bundan keyingi har qanday kelishmovchiliklar bartaraf etilishi mumkin bo'lgan adashishlar va xatoliklardan iborat ekanligi yana bir bor ta'kidlandi. Natijada agar falsafa o'zgaruvchan bo'lmaganda, xato va adashishlar ham kelib chiqmas edi – degan xulosaga kelindi. Garchi, borliq, mavjudotlarning asosi va minerallar olami haqidagi gaplar xuddi qadimgi yunon falsafasidagidek bo'lsa-da va islom faylasuflari haqiqiy falsafaga xos xususiyat bo'lgan ashyolarning mohiyati haqida bahs yuritgan bo'lsalar ham, ammo bahslarning ma'no va mazmunida chuqur o'zgarishlar yuz bergan edi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlarini aytib bering.
2. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Sharq va G'arb falsafasi va madaniyatining o'zaro ta'siri qanday?
4. Sharq renessansi tushunchasiga ta'rif bering?
5. Sharq renessansini mohiyati nimada?
6. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

7. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rnini izohlang.
8. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini aytib bering.

**2.Topshiriq:** “Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o‘rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy davrlari” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarini loyihalashtiring.

**2- amaliy mashg‘ulot. Qadimgi markaziy osiyoda ilk diniy-falsafiy qarashlarning kelib chiqishi. Zardo‘shiylik falsafasi. Markaziy osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi.**  
(4 soat).

**Maqsad:** qadimgi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi namunalariga oid ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida keltirilganligiga doir tasavvurlar hosil qilish, xalq og‘zaki ijodi va afsonalarda milliy qadriyatlarining aks etganligi to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, buddaviylik diniy-falsafiy ta’limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi, uning ikki jihati to‘g‘risida tushuncha hosil qilish. Turkiy xalqlar yozuvi, Kultigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlaridagi diniy-falsafiy qarashlarni mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish Markaziy Osiyoda moniylik ta’limotining vujudga kelishi va uning falsafiy-ilohiy ta’limotini yoritib berish. Mazdak ta’limotidagi qadriyatlar mavzusining ko‘tarilishi sabablarini falsafiy mushohada qilish va o‘qitish jarayonini loyihalashtirish malakalarini rivojlantirish

**Mavzuning tayanch tushunchalari:** *Gautama, Sidharta, Budda, nurlangan, insonlar tengligi, Ashoka, Hindiston, draxmalar, ashyolarning hujayralari, yogacha usul, nirvana-betashvish holat, ruhiy xotirjamlik, Mohayana, sabr-toqat, tarki dunyochilik, dunyoning doimiy o‘zgarishda ekanligi. Moniy (mil.III asr), Mazdak (mil.VI asr), «Xuastuanift», Suza, «Moniy yozuvi», yagona din, «zulmat va ziyo dunyosi», yovuzlik – boylikka hirs qo‘yish, Qubod I (mil.488-581yy.), adovat va hasadni yo‘q qilish, Qadimgi turkiy xalqlar, Mahmud Qoshg‘ariy, «Devonu lug‘otit turk», mardlik, jasorat, ilm, kasb-hunar, halollik, sadoqat, fidoyilik, To‘maris, Shiroq, Rustam, «Zarina va*

*Striangiya», «Siyovush», runiy (sirli) bitiklar, urxun-yenisey yozuvi, Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlari, sug'd, uyg'ur yozuvi, moniy yozuvi, Qoraxoniylar, arab yozuvi.*

1. **Topshiriq:** Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi o'quv materiallar mazmunini tahlil qiling.

### **Nazariy ma'lumot:**

Milodiy II-III asrlarda Markaziy Osiyoda va unga qo'shni bo'lgan hududlarda iqtisodiy tanazzul va uning g'oyaviy ifodasi sifatida yangi mafkuraviy oqim bo'lgan moniylik ta'limoti vujudga kelgan edi. Bu ta'limotning asoschisi 216 yilda Bobilda tug'ilgan, 25 yoshida Hindistonga borib, o'z hamfikrlari jamoasini tuzgan va keyinchalik Fors va Suzada yashagan Moniy edi. U «moniy yozuvi» nomi ostida yangi alifbo kashf etib, uni tavsiya etdi. Uning orzusi hammaga ma'qul tushadigan, umumiy yagona dinni yaratish edi.

Moniyning falsafiy-ilohiy ta'limotida ma'naviy qadriyatlarga katta e'tibor berilgan. Uning fikricha, ikki dunyo – «zulmat va ziyo dunyosi» mavjud bo'lib, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik hukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir.

Moniy ta'limoti ozod dehqonlarga qaratilgan bo'lib, ular manfaatining g'oyaviy ifodasi edi. Shuning uchun III va undan keyingi asrlarda ham Eron, Markaziy Osiyo, Bayalnahrayn, Suriya, Misr va Rim imperiyasining Sharqiy viloyatlarida uning g'oyaviy ta'siri keng yoyilgan edi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab buddaviylik ta'limotining tarqalishiga qadar Eronda quvg'inga uchragan Moniyning maslakdoshlari Markaziy Osiyodan panoh topgan edilar. Moniylik g'oyalari uyg'urlar dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkazgan. Moniylikning uyg'ur tiliga qilingan tarjimasi tarzida saqlangan diniy yodgorligi «Xuastuanift» (moniylikning tavba namozi) aniq, tushunarli tilda yozilgan. Moniylik VIII asrda Uyg'ur davlatining davlat diniga aylangan.

### ***Qadriyatlar mavzusi Mazdak ta'limotida***

Qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak ta'limotida ham ko'zga tashlanadi. Mazdak aqidasi ko'ra, dunyoda sodir bo'ladigan jarayonlar ongli maqsadga yo'naltirilgan ezgulik va uning manbai bo'lgan yorug'lik bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakat qiluvchi qorong'ulik

(johillik) o‘rtasidagi kurashdan iborat. Asosiy yovuzlik – boylikka hirs qo‘yishdir.

Tabiat uch unsur: suv, olov va tuproqdan tashkil topgan bo‘lib, ularning ko‘shilishidan ijobiy va salbiy hodisalar kelib chiqadi. Ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurash ezgulikning g‘alabasi va yovuzlikning yo‘q qilinishi bilan barham topadi. Mazdakchilarning ijtimoiy dasturi keskin talablar qo‘ydi: barcha odamlarning teng huquqligi, iste‘molda tenglik, barcha mulklarning va avvalo yerning umum ixtiyorida bo‘lishi; yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berilishi.

Bunday ta‘limotga asoslangan Mazdak boylarning mol-mulkini tortib olib, kambag‘allarga bo‘lib berishga boshchilik qilgan.

Eron shohi Qubod I (mil.488-581yy.), avval boshda Mazdakni qo‘llab-quvvatlab, uni butun mamlakatga qozi qilib tayinlagan edi. Mamlakatda katta yer egalari, amaldorlar va kohinlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi barbod bo‘lgandan so‘ng, shoh Qubod I Mazdak bilan aloqani uzadi. 529 yili mazdakiylarning inqilobiy harakati bostirilib, Mazdakni qatl etiladi. Ammo uning ta‘limotidagi adovat va hasadni yo‘q qilishga qaratilgan tadbirlar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish muqaddas vazifa ekanligi haqidagi g‘oyalar jazibakor mafkura sifatida uzoq vaqtgacha xalq qalbida saqlanib qoladi.

### ***Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk asari»***

Eng qadimgi turkiy xalq qo‘shiqlari bizga qomusiy bilim sohibi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari orqali yetib kelgan. Turkiy xalqlar og‘zaki ijod namunalarida vatanparvarlik, insoniylik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, ilm o‘rganish, kasb-hunar egallashga da‘vat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do‘stlik sadoqat, kamtarlik, fidoyilik kabi turli-tuman insoniy fazilatlar o‘zining badiiy ifodasini topgan.

### ***Xalq og‘zaki ijodida milliy qadriyatlarning aks etishi***

Agar «To‘maris», «Shiroq», «Rustam» singari xalq og‘zaki ijodi namunalarida do‘stlik, el-yurt himoyasiga otlanish va bu yo‘lda jonini ham tikish, xalqni g‘ayritabiiy kuchlar, ofatlardan himoya qilish singari yuksak g‘oyalar mujassamlashgan bo‘lsa, «Zarina va Striangiya», «Siyovush» singari afsonalarda milliy qadriyatlarimizning boshqa jihatlarini ham tasvirlangan.

## *Turkiy xalqlar yozuvi*

Turkiy xalqlarning bizga ma'lum yozuv tarixi hozirgi kunda runiy yoki urxun-yenisey nomi bilan yuritiluvchi bitiklardan boshlangan edi. Bu yozuv fan olamiga XVIII asrdan boshlab ma'lum bo'lgan. Markaziy Osiyoning katta qismida, jumladan, O'rta Osiyoda ham mazkur yozuv keng yoyilgan edi. Turk runiy yozuvidagi yodgorliklarning eng yirik namunalari turk amaldorlari xotirasiga qo'yilgan qabr toshlarida mujassamlangan. Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlari *VI-VII asrlarga* taalluqlidir. Bu xatning toshlardan tashqari oltin, kumush, suyak, yog'och, sopol buyumlarga yozilgan namunalari ham mavjud. Sharqiy Turkistondan qog'ozga bitilgan yodgorlik ham topilgan.

Qadimgi turk davrida alfavitli yozuvning boshqa turlari ham qo'llanilgan. Sug'd, uyg'ur, moniy, qisman qo'llanilgan braxma yozuvi shular jumlasidan ekanligi ilmiy tadqiqotlarda isbot etilgan.

Sug'dlar va turkiy xalqlarning madaniy aloqalari natijasida milodiy *VI-VIII asrlarida uyg'ur yozuvi* shakllangan. Turk xoqonligi davrida turk runiy yozuvi asosiy yozuv bo'lsa, keyinchalik uning o'rnini uyg'ur yozuvi egallagan. X asrga kelib Qoraxoniylar davlatida islom rasmiy din sifatida qabul qilingan. Shu munosabat bilan arab yozuvi boshqa barcha yozuvlar o'rnini ola boshlagan.

2. **Topshiriq:** "Zardo'shtiylik falsafasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik, moniylik va turkiy bitiklar falsafasi " mavzusi yuzasidan o'qitish texnologiyalarini tanlang va ma'ruza va amaliy mashg'ulot jarayonlarini loyihalang.

### **Adabiyotlar**

1. Sodiqov Q.: Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari. –T.: ToshDShI nashriyoti, 2004.
2. Sodiqov Q. Ajdodlarimiz bitigi. –T.: Fan, 1990.
3. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. –T.: ToshDShI nashriyoti, 2008.
4. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1995.
5. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: Yozuvchi, 2000.
6. Istoriya Vostoka. T.I. Vostok v drevnosti. –M.: Vostochnaya literatura; RAN, 2002.
7. Malov S. YE. Pamyatniki drevne tyurkskoy pismennosti. –M-L., 1951.

8. Tugusheva L.Y. Yarliki uygurskix knyazey iz rukopisnogo sobraniya LO IV AN. –Tyurkologicheskiy sbornik, 1971, –M., 1972.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T.: O‘zbekiston, 1996.
10. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1995.
11. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I. –Toshkent, 1968.

### 3-AMALIY MASHG‘ULOT. HIND FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ASOSIY DAVRLARI (4 SOAT).

**Maqs ad:** Braxmanizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, Vedalarda oriy qabilalar dunyoqarashining aks ettirilishi, Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo‘yilishi, Yevropada Vedalarning o‘rganilishi, Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi, Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlardagi yangicha talqin, hayot charxi haqidagi ta’limotini mushohada qilish va o‘quv jarayonlarini loyihalashtirish malakalarini rivojlantirish.

**Tayanch iboralar:** *Qadimgi Hindiston, braxmanizm, vedalar, veda adabiyoti, braxmanlar, Upanishadlar, Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Adxarvaveda, madhiya, alqov, sutra, Shrautasutra, Grxyasutra, Dxarmasutra, Agni, Indra, Mitra, Voruna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam, duolar, G. T. Kolbruk, T. Benfey, A. Veber, D. Uitni, G. Oldenberg, L. Renu, I. Xertel, P. Time, Upanishadlar, Vedalar, Qadimgi Hindiston, Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaki, Rigveda, Kena, Katxa, Isha, Shvetashvatara, Mundaka, Maxanarayana, Prashna, maytri, Mandukya, At- xarvaveda, monoteistik g‘oya,*

1. **Topshiriq:** Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo‘yilishi.

#### Nazariy ma’lumot:

Vedalar bilan aloqasi borligiga qaramasdan Upanishadlarga mohiyatan falsafiy va diniy fikrlar rivojiga yangi yo‘nalish berib, keyingi vujudga keladigan tizimlarga asos bo‘lgan. Agar Upanishadlarda asosiy e’tibor falsafiy muammolarga qaratilgan bo‘lsa, Vedalar bilan bog‘liq sutralar (Shrautasutra, Prxyasutra, Dxarmasutra) avvalo diniy marosimlarga va qisman huquq muammolariga (Dxarmasutra) bag‘ishlangan.

Qadimgi Hindiston falsafasi, dini va madaniyati tarixini o‘rganish bo‘yicha birinchi darajali ahamiyat kasb etgan Vedalarni o‘rganishga qiziqish

kuchli bo‘lib, bu sohada Hindistonni o‘zida 25 asrlik an‘ana mavjud. Rigvedaning mashhur sharhchilari Panini, Shankara, Sayanilardir.

### ***Yevropada Vedalarning o‘rganilishi***

Ma‘lumki, Sharq azaldan o‘zining jozibasi bilan dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan. Xususan, hind madaniyati va falsafasi ham doimo tadqiqotchilar e‘tiboridan chetda qolmagan. Shunday tadqiqotlarning aksariyati G‘arbiy Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Yevropada Vedalarga qiziqish XIX asr boshida paydo bo‘lgan (Angliyada G.T.Kolbruk, keyinchalik R.Rot, T.Benfey, T.Aufrext), A.Veber (Germaniya), M.Myuller (Angliya), D.Uitni (Amerika). XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan yirik olimlar G.Grasman, G.Oldenberq, A.Xillebrand, R.Pishel, K.Geldner, A.Lyudvig (Germaniya), A.Bergen (Fransiya), M.Baumfild (Amerika), A.Kit, A.Makdonell (Angliya), oxirgi o‘n yilliklarda esa, L.Renu (Fransiya), I.Xertel, G.Ertel, G.Lyuders, P.Time (Germaniya) va boshqalar Vedalarni o‘rganishga muhim hissa qo‘shganlar.

### ***Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi***

Upanishadlar (haqiqatni bilish maqsadida o‘qituvchi oldida o‘tirish) Vedalarning to‘rttasidan biriga an‘anaviy tarzda qo‘shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi bo‘lib, Veda adabiyotining yakuniy qismi – Vedanta («vedalar xotimasi») ni tashkil etadi. Odatda Upanishadlarga 108 asar taalluqli (hammasi bo‘lib ularning 200 tasi ma‘lum) ekanligi aniqlangan. Upanishadlarning eng qadimgisi miloddan avvalgi VI-III asrlarda vujudga kelgan. Upanishadlar keyingi davrlarda ham, hatto XIV- XV asrlargacha paydo bo‘lishda davom etganlar.

Upanishadlarning eng qadimgi qatlamlari Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaka (keyingi ikkitasi Rigvedaga borib taqaladi) va Kena bo‘lib, ushbu asarlar Upanishadlarning eng qiziq va obro‘li qismini tashkil etadilar. Ulardan biri keyinroq yozilgan Katxa, Isha, Shvetashvatara, Mundaka, Maxanarayana qofiyadosh shakldadirlar. Prashna, Maytri va Mandukya keyinchalik yaratilgan guruhni tashkil etadilar. Atxarvedaga ko‘proq taalluqli, deb topilgan Upanishadlarning qismi zamon jihatdan oxirgisi bo‘lib, eng kengrog‘i ham hisoblanadi.

### ***Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlardagi yangicha talqin***



Vedalar davriga taalluqli bo'lgan ko'plab muhim mavzu va g'oyalar (koinotga tegishli bir qator tasavvurlar, butun borliqning yagonaligi haqidagi g'oyalar) Upanishadlarda yangicha talqin etilgan. Ilk davrda yozilgan Upanishadlar Vedalar dinini qabul qilib, uning monoteistik g'oyalarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Upanishadlar Hindiston tarixida birinchi marta qo'yilgan falsafiy muammolarning manbasi ekanligi: «biz qayerdan kelib chiqqanmiz, biz qayerda yashayapmiz va qaysi tomonga qarab harakat qilyapmiz..., kimning hukmiga binoan biz gohida azob-uqubatda, ba'zida esa, rohat-farog'atda mavjudmiz? Bunga zamon sababmi yoki tabiatmi, yoki zaruriyatmi, tasodifmi, yoki unsurlarmi, yoki bo'lmasa Oliy Ruhni o'zida mujassamlashtirgan *Purusha*, deb atalgan odammi?» (Shvetashvatara-Upanishadlar). Bu kabi savollardan eng muhimi dunyoviy ruhning tabiati haqida bo'lib, unga muvofiq Upanishadlar falsafasining ikkita asosiy tushunchasi – *braxman* va *atman* kelib chiqqan. *Braxman* – muayyan biror narsaga ega bo'lmagan mutlaq ibtido bo'lib, butun Koinotni to'ldiradi va undagi bor narsani vujudga keltiruvchi oliy obyektiv borliqdir. *Atman* hamma narsa ichiga kira oluvchi subyektiv voqelik sifatida o'zini namoyon etadi: u – «katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong'iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta'msiz, ko'zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning «oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo'q... (Brixadaranyaka – Upanishadlar).

### ***Hayot charxi haqidagi ta'limot***

Upanishadlarning eng muhim qismi hayot charxi to'g'risidagi ta'limot (*sansara*) va u bilan mustahkam bog'langan qilmishiga yarasha mukofotlash qonuni bo'lgan *karmadir*. Hayot charxi to'g'risidagi ta'limotga ko'ra, inson hayoti uzluksiz qayta tug'ilish zanjirining muayyan shakli sifatida tushuniladi. Hayot charxi abadiy bo'lib, dunyodagi barcha narsalar unga bo'ysunadi. Upanishadlar Hindistondagi keyingi tafakkur taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Upanishadlarning Bxagavatgitaga ta'sir o'tkazgani hammaga ma'lum. Upanishadlar falsafasining ko'p jihatlari sankhya va yoga, qisman Mimansa yo'nalishlari bilan umumiyliigi borligi qayd etilgan. Upanishadlarning g'oyalari Braxma-sutrada, keyinchalik Shankara Ramanudji va Vedantaning boshqa mashhur faylasuflari tomonidan to'planib sharhlangan. Upanishadlarning ta'siri Ram Mohan Ray, Gandi va boshqalarning dunyoqarashlarida namoyon bo'lgan.

Yevropada Upanishadlar bilan XIX asrning boshlarida Anketil Dyuperron tarjimalari orqali forscha qayta ishlanganligi tufayli

tanishganlar. Upanishadlarning g'oyalari Yevropa falsafasiga, ayniqsa Shopengauer va XX asr boshidagi rus faylasuflari qarashlariga sezilarli ta'sir o'tkazganligi ham ma'lum.

### ***Budda ta'limotining shakllanishi va unda insonlarning tengligini e'lon qilinishi***

Budda (to'g'rirog'i Buddha, sanskrit tilida – oydinlashgan, nurlangan ma'nosida) Guatama urug'idan chiqqan Siddxartxa ismli shaxs bo'lib, buddaviylik an'anasiga ko'ra, buddaviylik falsafasi va dinining asoschisidir. Siddxartxa Shakyamuni podsho Shuddxodan xonadonida tug'ilgan bo'lib, yoshligida braxman o'qituvchilarining nasihatlarini tinglagan. 29 yoshida saroyni tark etib, Uruviyava o'rmonida tarki dunyochilik holatida mushohada orqali dunyoning abadiy ravishda shakllanib turishini tushunib yetgan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi uchinchi asrda kishilar uni yerdagi buddaviylik dinining asoschisi hisoblashgan va ushbu din ijtimoiy holatdan yuz o'girishni, zo'rlikka qarshi chiqmaslikni va taqdirga tan berishni targ'ib etgan. Hozirgi zamon fani Budda hayotini miloddan avvalgi 563-483 yillarga taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

Buddaviylik qadimgi hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqalarga (kasta) bo'linish va kohinlarga qarshi chiqqan. Barcha insonlarning tengligining e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Yirik davlatlar tashkil topishi sharoitida braxmanlik dinining kohinlariga qarshi qaratilgan bo'lganligidan, buddaviylik katta davlatlar hukmdorlariga foy-daliroq edi. Miloddan avvalgi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni Hindistondan chetga chiqib yoyilishiga hissa qo'shgan edi. Budda dini o'z navbatida urf-odatlar, sig'inish marosimlari va aqidalar tizimini ishlab chiqqan. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan ruhlarning ko'chib yurishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, buddaviylik tirik mavjudotlarning qayta tug'ilish aqidasini olg'a surgan. Uning ta'kidlashicha, tirik mavjudotning o'limi uning zarrachalardan tashkil topgan tanasining sochilib ketishi bo'lib, shundan keyin uning yangi unsurlari bo'lgan – dxarmalarning yangidan tashkil topishi yuz beradi.

Dxarmalarning yangi kombinatsiyasi ilgari ko'chib yurish doirasida vujudga kelgan barcha xayrli ishlar va gunohlar majmuasiga bog'liq bo'lgan karma orqali tayin etiladi. Buddaviylikning ezgu orzusi – ruhning ko'chib yurish jarayonini to'la barham topishi va shu yo'l bilan go'yo hayot mohiyatini tashkil etuvchi azob-uqubatdan qutulish holati – *nirvanaga* erishish edi.

### ***Buddaviylikning falsafiy mazmuni***

Buddaviylikning falsafiy mazmuni ikki jihatni o‘z ichiga oladi: narsalar tabiati haqidagi ta’limot va bilish yo‘llari to‘g‘risidagi ta’limot. Buddaviylikning narsalar tabiati haqidagi ta’limoti asosida dxarmalar – «o‘zining belgilariga ega bo‘lgan zarrachalar» yoki «bo‘lakchalar», «unsurlar» to‘g‘risidagi tushunchalar yotadi. Bu ta’limotga ko‘ra, dxarmazarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo‘lib, har lahza shu‘lalanib va o‘chib turadi. Uning har bir o‘chishi yangidan shu‘lalanish va boshqatdan o‘chishni anglatadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o‘zgarishda, qaytadan tug‘ilishda ko‘rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g‘oyasi yotadi.

Buddaviylikda dxarma – unsurlari uchun bir necha tasniflash ishlab chiqilgan. Ilk buddaviylik namoyon bo‘lgan borliq – sansara va namoyon bo‘lmagan borliq – nirvanaga bo‘linishni qayd etgan edi. «Namoyon bo‘lgan borliq» charxida bo‘lish azob-uqubatlar tortish bilan hamroh bo‘lib, undan qutulish – «axloqiy amalning sakkiz a‘zoli yo‘li»ni tushunishga olib boradi. Buddaviylik moddiy va ruhiy dunyolar yagonaligini ta’kidlaydi. Buni ta’kidlash madxyaliklar falsafiy maktabi namoyandalari tomonidan tizimga solib ishlab chiqilgan.

### ***Buddaviylikning bilish nazariyasi***

Buddaviylikning ikkinchi jihati, ya’ni bilishning yo‘llari haqidagi ta’limot yogacha usulda mushohada qilishning subyektiv-g‘oyaviy usuli bilan bog‘liqdir. Buddaviylik ruhning mavjudligini, ya’ni inson ichidagi alohida ruhiy mohiyatni inkor etadi. Buddaviylik aqidasi dagilar inson shaxsining moddiy va ruhiy xususiyatini tashkil etuvchi besh guruh unsurlardan tashqarida alohida mavjud bo‘lgan atmanni inkor etadilar. Bu besh unsurlar quyidagilar: 1)ong, 2)tasavvurlar, 3)his-tuyg‘u, 4)karma kuchlari, 5)inson tashqi sezgilari (2-ilova). Ushbu tizimda qandaydir o‘zgarmaydigan, abadiy ibtido ga o‘rin yo‘q. Sabab oqibatdan oldin keladi. Inson shaxsi, dunyodagi barcha narsalar kabi o‘n ikki a‘zoli «sababiy tug‘ilish» ifodasida mujassamlashgan sabab va oqibat qonuniga bo‘ysunadi. Mavjud insoniy hayot – faqat ilgari mavjudlikning xulosasidir, xolos. Ong yerdagi hayotning «shaxsiy oqimi» orqali oqib, o‘rtadagi holatlar orqali va undan keyin keladigan yangi qayta tug‘ilish bosqichlarini bosib o‘tib, har lahzada o‘z mazmunini o‘zgartirib turadi. Ushbu abadiy tashkil topish ko‘pincha qadimgi hind falsafiy adabiyotidagi chirog‘ shu‘lasiga o‘xshatiladiki, undagi yonish va o‘chish jarayoni to‘xtovsiz davom etib, doimiylik tasavvurini tug‘diradi.

Namoyon bo'lmagan borliq, ya'ni nirvanaga mansublik esa, chirog'da shu'laning o'chishiga qiyoslanadiki, undagi yog' ta'mini tamom bo'lgani sababli, u o'chadi. Ammo o'chgan shu'la, yo'qolgan o't emas, balki boshqa holatga o'tgan shu'ladir. Buddaviylikda bo'linib turuvchi oqim haqidagi dialektik g'oyaga asos solingan.

### ***Buddaviylikning yo'nalishlari***

Buddaviylik ilk davrlardayoq bir necha yo'nalishlarga bo'linib ketgan edi. Aqidaviy qarama-qarshiliklarni oldini olish maqsadida umumiy majlis chaqirish zarur bo'lgan. Buddaviylik an'anasi to'rt marta umumiy majlis chaqirilganligidan guvohlik beradi: Radjachrixadagi majlis (mil.av. 477 yil), Vayshala majlis (mil.av. 367 yil), Patalaputra majlisi (mil.av. III asr) va Kashmirdagi majlis (milodiy II asrda).

Mamlakat sharqida «Katta jamoa» tarafdorlari yig'ildilarki, ular maktabini Mohayana («Katta arava» yoki najotning «keng yo'li») deb atadilar. Qolgan maktablar Xinoyana («Kichik arava») nomini olgan. Ashoka (mil.av. III asr) va Kushonlar (II-III asrlar) davrida buddaviylik Hindiston hududlaridan tashqariga chiqqan. II va III asrlarda buddaviylik Andxra imperiyasida hukmron mavqega ega bo'lgan. IV-V asrlar davomida buddaviylik falsafasi hind madaniyatining barcha sohalariga kirib borgan. V asrning birinchi yarmida shoh Kumaragupta I Nalandada buddaviylik universitetini ta'sis etgan. Bu universitet keyinchalik xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan.

I-V asrlar davomida to'rtta asosiy falsafa yo'nalishi uzil-kesil tashkil topgan edi: Vaybxashika, Sautrantika, Madxyamika, Yogachara. Keyingi vaqtda tashkil topgan vidjnyanavada-yogacharlar orasida Dignava va uning izdoshi Dxarmakirti tomonidan ishlab chiqilgan buddaviylik mantig'i va bilish nazariyasining kelib chiqishi muhim voqea bo'ldi. Dxarmakirtining «Pramanavartika» asari Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston va Yaponiya falsafiy adabiyotini boshlab bergan edi. Gupta dav- rining oxiri va ayniqsa Pala sulolasi davrida (VIII-IX asrlar) buddaviylikning ta'siri zaiflashgan edi. Nalanda universitetining inqirozga yuz tutishi buning natijasi edi. Buddaviylik va braxmanlikning yaqinlashishi yangi din bo'lgan hinduviylikning paydo bo'lishiga olib keldi. Hindistonda o'z hukmronlik mavqeini yo'qotgan buddaviylik Seylon, Birma, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga keng yoyildi.

### ***Jaynizmda insonning jamiyatdagi o'rni***

Miloddan avvalgi I-ming yillik o'rtalarida Hindistonda Vedalar mafkurasidan mustaqil ravishda bir necha ta'limotlar paydo bo'ldi. Ularda

insonning jamiyatdagi o'rnini masalasida yangicha yondoshuvlar bayon qilindi. Paydo bo'lgan bu yangi maktablar ichida jaynizm va buddaviylikka umumiy ahamiyatiga ega edi.

Jaynizm mil.av.VI-V asrlarda Hindistonda to'la shakllangan edi. Asoschisi keyinchalik Mohavira (buyuk qahramon) «jina» (g'olib) degan laqab olgan sayyoh tashviqotchi Vartxaman ismli kishi edi. Hindistonning shimoli- sharqida paydo bo'lgan bu diniy-falsafiy ta'limot keyinchalik butun Hindistonga tarqalgan bo'lsa ham, ammo hech qachon uning chegarasidan tashqariga chiqmagan.

Jaynizm adabiyotining asosiy qoidalari uning bir yo'nalishi bo'lgan shvetambarlar (oq kiyim kiyganlar) tomonidan mil.av.IV asrda ishlab chiqilgan. Ammo bu ta'limot to'laligicha milodiy X-XI asrlaridagina shakllangan.

### ***Jaynizm ta'limotida sanaviyat (dualizm)***

Jaynistlar ta'limoti dualizm (sanaviyat)ni targ'ib qilgan. Unga ko'ra, inson shaxsining mohiyati ikki xususiyatga – *moddiy* (adjiva) va *ruhiy* (jiva)ga egadir. Ular o'rtasidagi bog'lovchi karma – nozik moddadan iborat bo'lgan jism bo'lib, ruhni qo'pol modda bilan qo'shilishiga imkon bergan (1-ilova). Tirik bo'lmagan moddaning karma iplari orqali ruh bilan qo'shilishi alohida shaxsning (indivud) kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Karma esa, qayta tug'ilish- ning uzluksiz zanjirida ruhni doimo kuzatib boradi. Ruhning hayot charxining karmasi ta'siridan qutilishning iloji faqat tarkidunyochilik va hayrli faoliyat orqaligina amalga oshishi mumkin. Jaynizm buddaviylikka o'xshab o'z ta'limoti asosiga shaxs borlig'i muamolarini qo'ygan edi. Bu ta'limotga binoan yaratilmagan va buzilmaydigan ikki azaliy ibtido (javhar)dan bu dunyo yaratilgan. Ular jiva (tirik, jonli, ruhiy) va adjiva (jonsiz, modda)dan iborat. Adjiva bilan bog'langanlik darajasiga qarab, mohiyatlar o'rtasidagi o'zaro jarayon ta'sirini belgilovchi jiva (ruh) borliqning ikki shaklida namoyon bo'ladi, biri mukammal, ikkinchisi esa, nomukammal bo'ladi.

Nomukammal holatdagi jiva (ruh) modda bilan qo'shilganligi tufayli o'zining imkoniy sifatini yo'qotib, azob-uqubatlarga duchor bo'lishi mumkin. Mukammal borliq holatida esa, moddiylikdan qutilib, o'z borlig'ini boshqarishga qodir bo'lib huzur-halovatli holat bo'lgan nirvana yoki mokshaga o'tishi mumkin. Jivaning ikki borliq ko'rinishiga muvofiq ravishda jaynizm ikki turdagi bilimni, ya'ni nomukammal va mukammal bilimni tan oladi. Nomukammal bilim, bevosita va bilvosita hosil qilingan bilimdir. Mukammal bilim esa, faqat moddiylik rishtalaridan uzilgan, ichki tuyg'u (intuitiv) orqaligina hosil qilinishi mumkin.

## *Jaynizmning axloqiy tamoyillari*

### *2. Jonli narsalarga ozor yetkazmaslik (Aximsa).*

Uning asosida barcha narsalar jonli, degan ta'limot yotadi, chunki nafaqat hayvonlar, balki o'simliklar ham jonga ega, «hayotga zarar» bo'lgan «jonga ham zarar»lidir. Chunki u oliy qudratdir. Bundan jaynistlar shunday xulosa chiqaradilar. Hayotning har qanday shakli, ya'ni jonli narsalarning har qanday shakllari bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

### *2. Yolg'ondan o'zini tiyish (Satya).*

Doimo xaq gapni gapirish, gapirganda ham yaxshi, yoqimli va to'liq, hayotga hurmat yuzasidan qarab gapirish va gapirishning maqsadi haqiqat bo'lishi kerak. Ochko'zlik, qo'rquv, g'azab va shuningdek qo'pollik, haqorat, surbetlik, ahdga qarshi bo'lgan narsalardan qochish lozim. Satya ahimsadan madad oladi, chunki yolg'on hayotga zulm o'tkazadigan sabablarning bir ko'rinishidir.

### *3. O'g'rilikdan o'zini tiya bilishlik (Asteya).*

Asteyaning asosini jaynistlar ahimsaga taqaydilar. Farovonlik hayotning tashqi pardasi hisoblanadi, uni buzishlik, hayotga zarar yetkazadi.

Ko'rib turibmizki, birinchi uchta ahd boshqa kishilarning hayotga bo'lgan munosabatlariga taalluqlidir. Kishilarning bir-birlariga bo'lgan qarashlarini hamda insonning tabiatga munosabatini belgilaydi. Keyingi ikki ahd erkinlikni qidirishga qaratilgan.

### *4. Nafsni tiyish (Braxmacharya).*

Bu ahdning amalga oshishi uchun turmush qurishdan, har qanday hirsiy lazzatlanishdan, shuningdek, ma'naviy ojizlikdan, masalan, o'limdan keyin jannatga tushish umididan, umuman fikrda ijobiy his-hayajon tug'diradigan narsalardan voz kechishlik.

### *5. Barcha ko'ngil istaklaridan o'zini tiya bilish (Aparigraxa)*

Bu kishida lazzat uyg'otadigan obyektlardan o'zini tiyishga da'vat etadi.

Jaynizmda ma'naviy ideal bu *donishmand avliyo* hisoblanadi. Bu ideallikni har bir kishi amalga oshirishi mumkin. Inson qaysi varna(toifa)ga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, uning irodasi butunlay individning hukmida bo'ladi, chunki bu shaxsning ma'naviy kuch-qudrati orqali amalga oshadi.

Shuning uchun materiyadan xalos bo'lgan *jiva qahramon* (vira) hisoblanadi. Uning qalbi cheksiz bilimga, ishonchga, kuch-qudratga va huzur- xalovatga ega bo'ladi.

### ***Qadimgi Hindiston falsafasidagi moddiyunchilik tamoyillari***

Qadimgi Hindiston falsafasining taraqqiyoti jarayonida moddiyunchilik tamoyillariga asos bo'lgan falsafiy maktablar ham vujudga kelgan edi. Ana shunday ta'limotlardan biri lokayata («bu dunyoga yo'nalish») bo'lib, uning asosida charvaklar ta'limoti yotadi. An'anaga ko'ra, charvaklar ta'limotining asoschisi qadimgi hind donishmandi Brixaspati hisoblanadi. «Ramayana» va ilk buddaviylik risolalarida «lokayata» ilohiy bahs yuritish san'ati ma'nosida qo'llanilgan. V asrdan boshlab, bud- daviylik va jaynizmga taalluqli asarlarda ularning mualliflari «lokayata» istilohini xudoning mavjudligi, ruhni (atman) borligi va ruhni ko'chib yurishi aqidasini inkor etuvchi moddiyuncha ta'limotni ifodalash uchun ishlatganlar.

Lokayatlar yoki charvaklar e'tiqodiga ko'ra, inson to'rt moddiy unsurdan – tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan (1-ilova). Ularning bir-birlari bilan qo'shilishi natijasida inson tanasi, his-tuyg'u a'zolari va ular asosida ruhiy ibtido tashkil topganligi qayd etiladi. Insonda uning o'limidan keyin hech narsa qolmaydigan bo'lganligidan, lokayatlar voqe hayotdan foydalanib qolish zaruriyati haqida fikr yuritganlar. Ular moddiy hayot qanday ne'matlar keltirsa, hammasini qabul qilishni, hayotdagi yoqimli va maqbul narsalar zalolat va azob-uqubatlarni muvozanatga keltira olishini yodda tutishni maslahat berganlar.

Charvaklar mantiqiy usullar yordamida an'anaviy aqidalarni shubha ostiga olganlar. Ular tabaqalarga mutlaq bo'linganlik (kasta) tizimini, kohinlarning diniy rasm-rusumlarini va muqaddas kitoblarning mo'tabarligi haqidagi aqidalarni tanqid ostiga olganlar. Ular dunyoviy fanlar bilan shug'ullanishni, har bir ashyoning nimadan iborat ekanligini aniqlashni tavsiya etganlar. Shuning uchun ham, tabiatshunoslik fanlarini rivojlantirishda charvaklarning xizmati katta bo'lgan.

### ***Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi***

Eramizning boshida Hindistonning ma'naviy hayotida hinduviylik ta'limoti hal qiluvchi mavqega ega bo'lgan. Hinduviylikning eng mashhur asari «Bxagavatgita» («Ilohiy qo'shiq») bo'lib, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Hinduviylikning falsafiy asosi olti tizimda o'z ifodasini

topgan (2-ilova). Yoga – ruhiy tushunchalarni tekshirishga va amalda ruhiy ta’limotga katta e’tibor bergan.

Yoga amaliyotida sakkiz bosqich mavjud: yama (chek qo’yish), niyama (axloqiy madaniyat), asana (holat), pranayama (nafasni nazorat qilish), pratyaxara (his-tuyg’uni uzoqlashtirish), dxarana (diqqat-e’tibor), dxyana (mushohada qilish) va samadxi (chuqur mulohazaga berilish).

Chek qo’yish biror-bir kishining hayotiga ziyon yetkazishdan, yolg’on gapirishdan, o’g’rilikdan, zino va hasislikdan o’zini tiyishda ifodalanadi. Axloqiy madaniyat poklik, qoniqlik, tarki dunyochilik, Vedalarni o’rganish va xudo haqida o’ylash kabi yaxshi odatlar ruhidagi tarbiyalarni o’z ichiga oladi. Asana – barqaror va qulay holatni ishlab chiqishdir. Nafasni nazorat qilish havo yutish va chiqarish jarayonini boshqarishdan iboratdir. His-tuyg’uni nazorat qilish hissiyotni uning obyektidan uzoqlashtirishda ifodalanadi. Diqqat- e’tibor tushunchasi asosiy e’tiborni tirik obyektlarning ichki yoki jonsiz narsalardan tashqaridagi obyektlarga qaratish bilan belgilanadi, masalan, diqqatni burun uchiga yoki oyga qaratish kabi; mushohada esa, obyekt haqida uzluksiz va sobitqadamlik bilan fikrlashdir. Chuqur mulohazaga berilish shunday holatki, unda mushohada qilayotgan ong mushohada yuritilayotgan obyektga yo’qolib, o’z-o’zini idrok qila olmay qoladi.

*Vaysheshika falsafasining* birinchi tizimga solingan asari Vaysheshika-sutradir. Uning muallifi donishmand Kanadadir. Kitobning barcha sutralari (bog’lovchi ip) milodiy I-asrda yozilgan. Vaysheshikaga sharh sifatida yozilgan ikkinchi asar Prashastapalaning «Padartxa-dxarma- sangraxa» nomli kitobidir.

Hind falsafasining barcha tizimlaridan ko’ra, qadimgi hindonliklarning tabiiy-ilmiy tasavvurlariga eng ko’p jihatdan aloqasi yaqini Vaysheshikadir. Vaysheshika-sutra kitob muallifi, deb hisoblanadigan Kanadaning hikmatli so’zlaridan iboratdir. Ba’zi olimlarning fikricha, Vaysheshika-sutrani bir kishi emas, balki bir avlod mutafakkirlari yozgan bo’lib, kitob holiga eramizning I asrida keltirilgan. Asar 10 kitobdan iborat. Birinchi kitobda Koinotni qamrab oluvchi 5 tushuncha – javhar, sifat, harakat, umumiylik va xususiylik qarab chiqilgan. Ikkinchi va uchinchi kitoblarda javharlar ta’rifi berilgan (tuproq, suv, nur, havo, zamon, makon, ruh, aql). To’rtinchi kitobda Koinotning atomlardan tarkib topganligi tasvirlangan. Beshinchi kitobda mexanik jarayon sifatida tushunilgan harakat tahlil qilingan (tepaga otish, pastga tushish, qisqarish, kengayish va bir joydan ikkinchi joyga o’tish) va atomlarga birinchi turtki bergan, ko’rinmas kuch – adrishta tasvirlangan. Oltinchi kitobda axloq muammolari tahlil qilinib, umumiy axloqiy qonun – «dxarma» o’rganilgan.



Yettinchi kitob shaxsiy «men» va o'ziga xoslik, deb atalgan tushunchaga bag'ishlangan. Keyingi to'rt kitobda – bilish nazariyasi masalalari (qabul qilish, xulosa, sababiyat va boshqalar) bayon etilgan.

*Vaysheshika* ta'limotiga ko'ra, dunyoda doimiy o'zgarish, davriy va doimiy jarayonda paydo bo'lish va tanazzul yuz berib turadi. Ammo bu jarayonda muqim unsur bo'lgan atom mavjud. Atomlarning vaqtincha qo'shilishidan, bizning his-tuyg'ularimizga yetib keladigan jonli va jonsiz ashyolar paydo bo'ladi. Qayta tug'ilish bunday sharoitda doimiy ravishda qo'shilib va ajralib turadigan atomlar faoliyatining mahsulidir.

*Nyayada* asosiy e'tibor mantiq va bilish nazariyasiga qaratilganki, uning muammolarini ishlab chiqish juda ko'p jihatlardan hind mantiq'ining cho'qqisi hisoblanadi. Rus hindshunosi F.I.Sherbatskiy (1866-1942) fikricha, Nyaya mantiq'i Hindistonning qadimgi davrlaridagi amaliyotida keng qo'llanilgan jamoa ishtirokidagi ochiq bahslarda qo'llanilgan usullarni umumlashtirish jarayonida paydo bo'lgan.

Nyaya bilish nazariyasining asosiy kelib chiqish qoidasi shundaki, bilim obyektiv voqelikdangina kelib chiqishi mumkin. Obyektiv voqelik biluvchiga bog'liq emas. Nyaya bilimning to'rt manbai yoki ishonchli bilimning (pramana) vositasini farq qiladi: 1) his-tuyg'u, qabul qilish (pratyaksha) yoki obyekt haqida bevosita bilish; 2) mantiqiy xulosa (anumana) – obyektning undagi o'zgarish mas'uliyatini (vyapti) qismlarga bo'lish orqali bilish; 3) solishtirish yoki qiyoslash (upamana) – yangi obyektning uni boshlang'ich tasviri va bilib olingan obyekt bilan o'xshashligi asosida tanish, va nihoyat, 4) obro'li shaxsning gapini guvohligi (shabda) orqali, ya'ni ishonchli shaxsning xabariga asoslangan bilim (3-ilova).

Nyayada asosiy o'rinni mantiqiy xulosa tahlili tashkil qiladi. Nyaya xulosani uch turga bo'ladi: 1) sababdan oqibatga (purvavat), masalan, osmonda to'planayotgan bulutlar orqali yomg'ir yog'ishini bilish; 2) oqibatdan sababga (sheshavat), masalan, daryoda ko'tarilgan suvning sathidan yomg'ir yog'ib o'tganligini bilish; 3) bevosita qabul qilinmaydigan va birinchisi bilan oshkora sabab-oqibat munosabati bilan bog'lanmagan bir hodisaning ikkinchisi bilan o'zgarish ravishda hamrohlik aloqasi (samanyatodrishta), masalan, samoviy sayyoralarning ularning joyi o'zgarishi bo'yicha harakati.

Nyaya falsafasida his-tuyg'u uyg'otadigan ishonchli bilim vositasida xulosalar qilinadi. Bunda qiyos orqali ham natijaga erishiladi.

*Mimansa* (sanskritcha – ichiga kirish, tahlil qilish, fikr qilish, bahs yuritish)ga xos narsa uning vedantaning obyektiv idealizmi, yogachar va madyamiklarning hamma narsani inkor etuvchilik tamoyillariga qarshi

qaratilgan muqobil yo‘nalishda bo‘lganligidir. Bu narsa uni Nyaya va Vaysheshika maktablari bilan yaqinlashtiradi. Mimansa tashqi dunyoning voqeyligini himoya qilib, uni xudo yoki ruh tomonidan yaratilganligi va boshqarilishini inkor etadi. Mimansa dunyoni bizning tasavvurlarimizning majmuasi yoki oqimi, deb hisoblovchi buddaviylikning ba’zi maktablari ta’limotiga qarshi chiqqan. Mimansa ta’limotiga ko‘ra, umuman dunyo abadiy va o‘zgarmas bo‘lib, ibtidosi ham, intihosi ham yo‘q. Ammo undagi ayrim ashyolar o‘zgarishlarga duchor bo‘ladilar, paydo bo‘ladilar va zavol topadilar. Biroq, barcha o‘zgarishlarga qaramay ularning mutlaq yo‘q bo‘lishi va yangidan paydo bo‘lishi kuzatilmaydi. Dunyoning barcha xilma-xilligini Mimansa bir necha tushunchalarda ifodalaydiki, ulardan eng muhimi bo‘lgan javhar – barcha sifatlarning asosi sifatida uning barcha ko‘rinishlarida ishtirok etadi. Mimansa javharni to‘qqiz turga bo‘ladi: besh ashyoviy unsurlar (tuproq, suv, havo, olov, efir), ruh (atman), aql, zamon va makon. Aqlni istisno etganda, ushbu javhar bevosita his-tuyg‘u orqali qabul qilinadi. Mimansa ta’limotiga muvofiq, ashyoviy unsurlar atomli tarkibga egadirlar; efir – nozik, doimiy va barcha narsalarga kira oladigan javhardir. Dunyoning barcha ashyoviy obyektlari atomlardan tashkil topgandir.

Mimansa ta’limotiga ko‘ra, bilish nazariyasi yordamida nafaqat ashyolarni to‘g‘ri tushunishga erishish, balki asosiy metafizik tushunchalarni ham idrok etish mumkin. Bunga, jumladan, his-tuyg‘u, mantiqiy xulosalar yoki solishtirish va boshqalar orqali erishish mumkin.

*Vedanta* (sanskritcha – xotima, Vedalarning tugashi) yoki uttara- mimansa (sanskritcha – oliy tadqiqot) – hind falsafasining obyektiv- idealistik tizimidir. Hind falsafasi tarixida Vedanta moddiyunchilik va xudosizlikka qarshi turib, dinni asoslash uchun keng qo‘llanilgan. Shakllanayotgan ilk feodal munosabatlar sharoitida Vedanta idealizmi, ayniqsa Shankara ta’limotidagi uning talqini, tabaqalarga bo‘linish, ya’ni kastalar o‘rtasidagi farqlarni mafkuraviy asoslashga va hinduviylik dinini shakllanishiga xizmat qilgan. Vedanta o‘z ibtidosini Upanishadlar ta’limotidan olgan. Vedanta tarixidagi muhim bosqich Ramanudji va uning izdoshlarining (XVIII asrgacha) ijodidir. Shankara ta’limotining asosiy g‘oyasiga ko‘ra, borliqning yagona oxirgi asosi shaxsga ega bo‘lmagan, mutlaq ruh-braxmandir. Inson ruhi (atman) braxman bilan ayniyatda bo‘lib, uning taj-ribaviy namoyon bo‘li-shidir. Braxman borliq (sat), ong (chit) va hech narsa bilan buzilmaydigan xotirjamlik, rohat-farog‘at (ananda)ning yagonaligi bilan ifodalanadi va shuning uchun *satchidananda*, deb ataladi. Vedanta hamma narsa yagona voqelik sifatidagi moddiy kuchlarning o‘zaro harakatining mahsuli, deb qabul qilgan dunyo to‘g‘risidagi qoidani inkor etadi. U Braxmanni dunyoning mutlaq ruhiy mohiyati sifatida tushunib, tan oladi.

*Sankhya* (sanskritcha – son, hisob, borliq asoslarini hisoblab chiqish asosida fikr yuritish, haqiqiy ma’no) – hind falsafasining ilk maktablaridan biri bo‘lib, eng yaxshi ishlab chiqilgan va ta’siri kuchli bo‘lgan ta’limotdir. Asoschisi donishmand Kapila hisoblanadi. Sankxyaning ayrim ta’limotlari haqida guvohlik beruvchi ma’lumotlar Upanishadlar va ilk buddaviylik manbalarida uchraydi. Sankxyaning to‘la ta’limoti Maxabxarata dostonlarida keltirilgan. Bu yerda u yoga bilan qo‘shilib ketgan. Sankhya g‘oyalari qadimgi hindlarning meditsinaga oid risolalarida, diniy-huquqiy qonunlarida (ayniqsa «Manu Qonunlari»da) va boshqa asarlarida keng foydalanilgan.

### ***Prakritining dunyoviy mohiyatlarga aylanishi***

Sankhya ta’limotiga ko‘ra, dunyoning birinchi sababi – prakritidir. U moddiy bo‘lib, borliqning javhariy asosidir. Prakriti his-tuyg‘u bilan qabul qilib bo‘lmaydigan nozik javhar bo‘lib, uning tabiati, u keltirib chiqargan moddiy dunyo ashyolarida, uning oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Oqibat o‘z sababida oldindan mavjud bo‘lsa, sabab o‘z oqibatida saqlanadi, sabab (sat) va oqibat (karya) mohiyatan ayniyatda bo‘ladi. Prakritining his- tuyg‘u bilan qabul qilib olinadigan dunyoviy mohiyatlarga aylanishi, uch sifatli unsur bo‘lgan rajas (intilish), tamas (qorong‘ilik) va sattva (aniqlik) ta’sirida kelib chiqishi mumkinligi ta’kidlanadi. Har bir ashyoda, uning xususiyatiga muvofiq bu uch unsurdan biri ko‘proq bo‘ladi. Sankhya prakriti bilan bir qatorda, dunyoning moddiy asosidan mustaqil bo‘lgan *purushi* (mutlaq ruh)ning mavjudligi ham tan olinadi. Garchi *purushi*, uning tufayli mavjud bo‘lgan barcha ashyo va mohiyatlar tarkibida ishtirok etsa ham, uni ko‘rib yoki tutib bo‘lmaydi. Prakriti bilan *purushining* qo‘shilish vaqtida 25 asos paydo bo‘ladi. Ular orasida moddiy (suv, tuproq va shunga o‘xshash) ashyolar bilan bir qatorda ruhiy mohiyatlar (o‘z-o‘zini anglash, aql) ham vujudga keladi.

**2.Topshiriq:** “Hind falsafasining shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari” mavzusini o‘qitish texnologiyalarini tanlang va ma’ruza va seminar mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring

**4-amaliy mashg‘ulot. Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari (2 soat).**

**Maqsad:** Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushunchalar, falsafaga donishmand erlar ta’siri, Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar

bilan aloqadorligi vauning falsafiy maktablari, maktablar haqidagi yozma manbalar, Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari, Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblarini falsafiy mushohada qilish va o'qitish jarayonini loyihalashtirish malakalarini rivojlantirish

**Mavzuning tayanch tushunchalari:** *Qadimgi Xitoy, dunyo, inson, ilohiylashtirilgan muhit, osmon, yer, oliy qoida, oliy hukmdor, ajdodlar ruhi, devlar, alqov, fol, kelajak bashorati, bronza idishlar, «O'zgarishlar kitobi», «Tog'lar va dengizlar kitobi», donishmand erlar, Qadimgi Xitoy, «Shu-jing», oy-quyosh taqvimi, Shan-in, dunyo, inson, «Chun syu», oliy qoida, Si («havo», «efir»), in («salbiy» «zulmat») va yan («ijobiy», «yorug'lik»), (Shi-jing) («She'rlar kitobi»), «samo» va «ajdod»lar ruhi, Konfusiychilik maktabi, Lao zi, Dao maktabi, In va Yan maktabi, Legizm maktabi, «Ismlar»maktabi, Moizm maktabi, davrlashtirish*

**1. Topshiriq:** Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushunchalar, falsafaga donishmand erlar ta'siri, Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi vauning falsafiy maktablari, maktablar haqidagi yozma manbalar, Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari, Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblarini falsafiy mushohada qilish.

### **Nazariy ma'lumot:**

Xitoy falsafasi dunyo va inson haqida o'ziga xos tushunchalar yaratgan. Xitoy falsafiy tafakkurining ibtidosi ham, xuddi keyinchalik Qadimgi Yunonistonda bo'lgani kabi asotir tafakkurga borib taqaladi. Xitoy afsonaviy fikrida ham osmon, yer va tabiatdagi barcha narsalar ilohiylashtiriladi. Ilohiylashtirilgan muhitdan eng oliy qoida keltirib chiqariladiki, u dunyoni boshqarib, ashyolarga mavjudlik baxsh etadi. Ushbu qoidaga gohida shaxsiyat bag'ishlanib, eng oliy hukmdor (*shan-di*) sifatida tushunilsa ham, ko'pincha «osmon» (*tyan*) so'zi bilan ifodalangan.

Butun tabiat jonlantirilgan – har bir narsa, joy va hodisa o'z devlariga ega. O'lgan ajdodlar ruhini hurmatlash keyinchalik ularga sig'inishni keltirib chiqarib, Qadimgi Xitoyning muhofazakorona tafakkur yuritishiga olib kelgan. Ruhlar insonga uning kelajagini bashorat qilishi, uning xulqi va faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin, deb tushunilgan. Qadimgi afsonalarning ildizlari miloddan avvalgi II-ming yillikka borib taqaladi. O'sha vaqtda Xitoyda alqov so'zlar va ifodalardan foydalanib, fol amaliyoti orqali ruh bilan aloqaga kirish yoyilgan edi. Bunday alqov yozuvlarni bronza idishlarga yozilgan ayrim parchalar, keyinchalik esa, «O'zgarishlar kitobi»dan mushohada qilish mumkin.

Qadimgi Xitoy afsonalar to'plami miloddan avvalgi VII-V asrlarga taalluqli «Tog'lar va dengizlar kitobi» (Shan xay szin)da bayon etilgan.

### *Xitoy falsafasiga donishmand erlar ta'siri*

Xitoy falsafiy fikri rivojining o'ziga xos xususiyati ularga «donishmand erlar», deb atalmish kishilarning (mil.av. I- ming yillikning birinchi yarmi) ko'rsatgan ta'siri bilan belgilanadi. Ularning ismlari ma'lum bo'lmasa ham, ammo shu narsa seziladiki, ular dunyoni afsonaviy tushunish chegarasidan chiqib, uni tushunchalar orqali idrok qilishga harakat qilganlar. Afsonalar bilan borliqni tushunchalar orqali idrok qilishga aloqa chizig'i tortgan bu donishmandlar ijodidan keyingi Xitoy faylasuflari naqlu qavllar keltirganlar va ularning qarashlarini rivojlantirganlar.

### *Qadimgi Xitoy falsafasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi*

Xitoyda falsafiy qarashlar erta paydo bo'lgan bo'lib, jamiyatda qulchilik tizimining shakllanishi va sodda tabiiy bilimlarning rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqdir. Arxeologlar suyaklarda topgan yozuvlari, «Shu-jing» deb nomlangan qadimgi kitob Xitoy munajjimlari Shan-in davridayoq (mil.av. XVIII-XII asr) yilni 366 kundan iboratligini aniqlab, Oy-Quyosh taqvimini yaratganligidan guvohlik beradi. Oy va Quyosh yillari o'rtasidagi farqni bartaraf etish uchun ular har 3 yilda taqvimga qo'shimcha oy qo'shdilar. Mil.av. VII asrda esa, ular Oy-Quyosh taqvimini tako- millashtirdilar. Bunda har 19 yilga 7 ta qo'shimcha oy qo'shildi. Qadimgi Xitoy olimlari tomonidan Oy-Quyosh taqvimining yaratilishi Yerga nisbatan yulduz, Quyosh va Oyni joyini o'zgarishini va harakatlarining ko'p asrlik kuzatuvlari natijasida asoslangan edi. Mil.av. ikkinchi ming yillikning oxiridan boshlab, qadimgi Xitoy munajjimlari Quyosh tutilishi haqidagi yozuvlarni olib bordilar. Ko'p o'tmay ularning davriyligidan xabardor bo'ldilar. Mil.av. VII asrdayoq yilni alohida davrlarga bo'linishini aniqlab beradigan yozgi va qishki teng kunlikni aniqlash uchun Quyosh soatlari qo'llanar edi. Qadimgi manbalarda kometa va meteoridlar haqida ko'plab yozuvlar mavjud. Masalan, «Chun syu» yilnomalarida kometani miloddan avvalgi 611 yilda qutb yulduzi hududiga kirganligi haqida yozilgan. Ularda meteor yomg'irlari haqida ham ko'p sonli yozuvlar mavjud. Xususan mil.av. 687 yilning 6 martida bo'lib o'tgan meteor yomg'iri haqida yozilgan. Mil.av. IV asrda Xitoy munajjimlari Gan De va Shi Shen yulduzlar haqidagi 2 ta kitobni yozdilar, keyinchalik u «Gan Shi Sin-szin» nomi bilan bitta umumiy yulduzlar kata- logini tuzdilar. Bu dunyo bo'yicha tuzilgan yulduzlar haqidagi dastlabki katalog edi. Qadimgi Xitoyda astronomiya bilan bog'liq ilmlar rivojlandi.

Masalan, Chjan San (mil.av. II-asrning birinchi yarmi) va Szin Chou-chan (milodiy I- asr) qadimgi manbalarga asoslanib, 9 bobdan tashkil topgan

«Arifmetikaga oid kitob» yaratdilar. Unga muvofiq, koeffitsiyentlarni tenglashtirish yordamida noma'lumlarni izchil istisno qilish yo'li bilan 2 ta va 3 ta noma'lum soni bo'lgan birinchi darajadagi tenglamalarni yechishda tizimli uslub bayon etiladi. Bu asarda matematika tarixida ilk bor manfiy sonlar va ular bilan hisob-kitob qilish qoidalari berilgan. Kitobda kvadrat va kubga sonlarni kiritish qoidalariga asoslangan kvadrat va kub ildizlarni topish uslubi tasvirlangan.

Kitob mualliflari tengburchakli uchburchakni gipotenuzasi kvadrating katetlar kvadrati yig'indisiga tengligi haqida ham xabardor edilar.

Qadimgi Xitoy xo'jaligining asosiy sohasi bo'lgan ziroatchilikning rivojlanishi davrida astronomik va biologik bilimlar to'plandi. Birgina (Shi-jing) («She'rlar kitobi») kitobida madaniy va yovvoyi o'simliklarning 200 dan ziyod turlarining tavsifi beriladi.

Qadimgi Xitoyning hunarmandchiligi ham takomillashgan edi. Shan In davridayoq, ya'ni miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida sopol buyumlar, yog'ochdan turli maxsulotlar, asl bronza qurollar, shoyi matolar tayyorlanar edi. Mil.av. VI asrda temirning tarqalishi ishlab chiqarishning barcha sohalarida, hattoki ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlarga va ilmiy bilimlarni yuksalishlarga olib keldi. Bu davrda katta qurilish ishlarini amalga oshirish, ko'p sonli saroy va shahar qal'alarini qurish, quvur va suv tizimlarini barpo etish avj oldi. Mamlakat harbiy va savdo yo'llari tarmog'i bilan bog'landi. Ishlab chiqarishning barcha sohalaridagi ko'p asrlik ijodiy mehnat keyinchalik kelib fanning ham rivojlanishiga turtki berdi. Ayniqsa, bu davrlarda tabiat sirlarini bilishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu haqida, qadimgi «Go yuy» va «Szyu chjuan» manbalarida ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolingan. O'sha qadim zamonlardayoq suv, olov, yog'och, oltin va yer birlamchi unsurlar ekanligi haqidagi sodda falsafiy qarashlar yozib qolingan. Szyu Chjuanda birlamchi unsurlar *Si* («havo», «efir»), *in* («salbiy» «zulmat») va *yan* («ijobiy», «yorug'lik») kabi tushunchalarni falsafiy nuqtai nazardan bir- biriga bog'lab o'rganish chuqur mazmun kasb etadi.

O'zgarishlar kitobida («I jing») 5 ta birlamchi unsurlarning umumiy asosi o'z manbasi «tay szi» «buyuk ibtido» bo'lgan *si* material substansiya masalalari haqida fikrlar o'z ifodasini topa boshladi.

Xitoy falsafasida bir- biriga qarama-qarshi *In va Yan* kuchlarga ega bo'lgan *si* –tumansimon massadan barcha narsalar vujudga keladi degan ta'limot mavjud bo'lgan. Qadimgi Xitoyda elementar ilmiy bilimlar asosida paydo bo'lgan sodda materialistik g'oyalar quldorlik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi sharoitida, qabila jamoasi a'zolari bilan qabila zodagonlari o'rtasida tobora o'sib borayotgan ziddiyatni ifoda etar edi. Shu bilan birga qul va qul egalari orasida qashshoqlashgan jamoa va qabila zodagonlari, kambag'al va qashshoqlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib, chuqurlashib bordi.

Qadimgi («Shi jing») «She'rlar kitobi»da shunday yozilgan: «Ayrımlar qashshoqlikda va qo'rquvda yashaydi, boshqalar esa, sharob va musiqa eshitib rohatlanadilar», «kimda kim ekmasa va mehnat qilmasa, mo'l

hosil yig'adi». Bunday g'oyalar o'z davrining ilg'or kishilarini «samo» va «ajdod»lar ruhiga ishonmay qo'yishga olib keldi. Masalan, qadimgi she'rlarda shunday satrlarni uchratamiz: «Samo yovuz va adolatsiz, u insonlarga faqat ofat yog'diradi». Vafot etgan ajdodlarni ular insonparvarlik va insonlarga muhabbat hissidan ajrab qolib, tashlab ketgan o'g'lon va nabira va avlodlari haqida qayg'urmay qolganlikda ayblaydilar. Kishilarda jamiyatni bunday firklashi Qadimgi Xitoyda asta

- sekin ateizmning paydo bo'lishiga olib keldi. U konservativ <sup>30</sup> qabila zodagonlariga qarshi kurashda jamiyatning progressiv (ilg'or) kuchlarining jangovar quroli sifatida xizmat qildi. O'sha davr g'ayridinlar orasida yirik siyosiy arboblari – qonun asosida boshqarishning asoschilari Guan Chjun (mil.av.VII asr), Szi Chan (mil.av.VI asr) va boshqalar bo'lgan. Ularning fikricha, farovonlik va baxtsizlikni insonlar o'zlari barpo etadilar, ularning taqdiri «samo irodasi»ga tobe emas, degan qarashlar amaliy mazmun kasb eta boshladi. «Qonunlar davlatni taraqqiyotga va jamiyatni farovonlikka eltivuchi yagona yo'l» degan mashhur ta'limot Guan Chjunga tegishlidir. Uningcha, Samo osti fuqarolarining barchasi qonun olidida tengdir. «Podshohlar esa, qonunlarning buloq-qaynar ko'zi» ya'ni (yaratuvchisi bo'lib), ularning o'zi ham amalda qonunga bo'ysinadilar, aksincha, jamiyat turg'unlik sari yuz burib, (unday) davlat inqirozga yuz tutadi.

Xitoy falsafasiga xos bo'lgan yana bir jihat bu Xitoy falsafasida tabiiy fanlarni o'rganishga kam ahamiyat qaratilganligi bilan tasniflanadi. Masalan, Xitoy falsafasida metodologik jihatdan tabiiy fanlarga xos bo'lgan ilmiy tushunchalar u yoki bu darajada o'z ifodasini topmagan. Faylasuflar tomonidan tabiiy fanlar ma'lumotlariga murojaat etishni lozim topmaganligi ham bunga ma'lum qadar sabab bo'lgan. Ayrimlar moddiyunchilar va natural faylasuflar maktabini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Ammo,ular Chjou davridan keyin o'z faoliyatlarini to'xtatishgan.

Ana shu ma'noda ayrim ma'lumotlarda qadimgi Xitoy falsafasining tabiiy fanlardan ajratilganligi va mantiqqa oid masalalarning ishlanmaganligi, Xitoyda falsafiy tushunchalar shakllanishining sekin kechganligining asosiy sabablaridan biri bo'lgan edi, shuning bois ko'pgina Xitoy maktablari uchun mantiqiy tahlil usuli noma'lumligicha qolib kelgan, degan fikrlar ushbu o'rinda ma'lum ma'noda o'zini oqlaydi.

### ***Qadimgi Xitoyda falsafa maktablari***

Qadimgi Xitoyda markazlashgan davlatchilikning kuchsizlanishi oqibatida markaziy boshqaruv ma'muriyatining turli soha vakillari (joylardagi hukmdorlarga ta'sir etish uchun) falsafiy maktablar tashkil etishga kirishdilar (1-ilova). Tashkil etilgan maktablar esa, umumiy «Szya», deb nomlana boshladi. Bu nomlash o'z vaqtida ularning jamiyatdagi xususiy

---

<sup>30</sup> Kitaysko –russkiy slovar / 2004. –S.832.

maqomini belgilab berar edi. «Szya» soʻzining asli mohiyati ham «uy», degan maʼnoni anglatadi.

1. *Konfusiychilik* maktabiga olim – intellektual salohiyat egalari va hunarmandlar asos solgan boʻlib, ularning asosiy maqsadi Konfusiychilik gʻoyalarini targʻib qilish va uni rivojlantirish boʻlgan. Shu maʼnoda ularning amaliy faoliyatida *insonparvarlik (Jen)* gʻoyalarini targʻib qilish bosh masala boʻlgan.

2. Lao-szi asos solgan *Dao maktabi*. Bu maktabga tarki dunyochilik qilgan darveshlar, muvafaqqiyat va magʻlubiyat, mavjudlik va halokat, qaygʻu va baxt, qadimiylilik va zamonaviylilik yoʻli (*Dao*) toʻgʻrisida yilnomalar tuzish tufayli «pokizalik va boʻshliq», «kamsitilish va zaiflashish» orqali «shohona sanʼat», oʻz-oʻzini saqlashga erishgan xronografiya muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

3. *In va Yan* (zulmat va yorugʻlik) maktabini, (dunyoni tashkil etuvchi, boshlovchilar) osmon belgilari, quyosh, oy, yulduzlar, koinot moʻljallari, vaqt almashuvini kuzatuvchilar - astronomiya muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

4. *Legizmni*, «odob-axloq asosidagi» boshqaruvni (*Li*) mukofotlar, jazolar, muayyan qonunlar bilan toʻldirgan, sud muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

5. «*Ismlar*» maktabini, faoliyatlari qadimda mansab va marosimlardagi nominallik va reallik mos kelmaganligi bois ularni muvofiqlashtirish bilan bogʻliq boʻlgan marosimlar muassasasi vakillari yaratishgan.

6. *Moizm* maktabiga tejamkorlikni, «koʻp narsani oʻz ichiga oluvchi muhabbat» (*Szyan ay*)ni, «loyiqlarini» (*Syan*) ilgari surishni, navyam (*guy*) qadr-qimmatni biluvchi va uni hurmat qiluvchi, (*min*) «oldindan taqdirga bitilgan» va «bir xillikni» inkor etuvchi ibodatxona qorovullaridan chiqqanlar asos solishgan.

### ***Maktablar haqidagi yozma manbalar***

Ushbu oʻnlik maktablariga asoslangan manbalarni miloddan avvalgi III- II asrlarning ensiklopedik yodgorliklari boʻlgan Lyuy shi chunshu (janob Lyu yaning bahor va kuzi) va Xuaynan szi (Xuaynanlik oʻqituvchining asari)da kuzatish mumkin. Ularning birinchisida(2–bob,5-7) «Osmon ostining oʻnta atoqli arboblari roʻyxati kiritilgan: 1) yon berishni koʻplarga oʻrnak qilib koʻrsatuvchi Lao Szi, 2) insonparvarlikni ulugʻlovchi Konfusiychilik, 3) «moʻtadillik»ni ifodalovchi Modi, 4) «soflik»ni ulugʻlovchi Guan in, 5)«borliq»ni ulugʻlovchi Le Szi, 6) «tenglik»ni maqtovchi Tyan-pyan, 7) «egoizm - xudbinlik»ni sharaflovchi Yan Chju, 8)«kuch»ni koʻklarga koʻtaruvchi Sun bin, 9)«Oldinga intilish»ni qoʻllovchi Van byao, 10) «ergashish»ni ulugʻlovchi Er Iyan. Ushbu toʻplamda Konfusiychilik, Moizm va Daosizmning xilma-xil koʻrinishlari bilan birga soʻnggi uchinchi oʻrinda I Ven chji matni bilan bogʻliq «harbiy maktab» oʻz ifodasini topgan. Xuaynan szi asarining umumlashtiruvchi yakuniy – 21 bobi tarkibida falsafa



maktablarining vujudga kelishi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari to'g'risidagi g'oyalar keltirilgan bo'lib, ular quyidagi tartibda ko'rsatilgan:

1) Konfusiychilik. 2) Moizm. 3) Daoni Legizm bilan uyg'unlashtirgan Guan szi ta'limoti (mil.av.IV-III asrlar). 4) Konfusiychilikni daosizm bilan uyg'unlashtirilgan va sezilarli ravishda Yan-szi chun syu (o'qituvchi Yan bahori va kuzi) ifodalangan Yan-szi ta'limoti. 5) Vertikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar) haqidagi ta'limot. 6) Shen Boxayning «jazolar va ismlar» (sin min) haqidagi ta'limoti; 7) Shan yan (Gun Sunyan)ning (mil.av. IV asr) qonunlar to'g'risidagi ta'limoti; 8) Daosizm bilan sug'orilgan Lao szi va Xuaynanszi ta'limoti; mazkur bobning boshida Loa-szi va Chjuanszi ta'limoti ajratib ko'rsatilgan, 2 bobda esa, Yan Chju (Modi, Shen Boxay, Gun Sunyan ta'limoti bilan birga to'rtlikni tashkil etuvchi) ko'rsatilgan bo'lib, yaxlit holda *I ven chji* turlanishi bilan o'zaro munosabatda o'ntaga bo'lingan to'plamni tashkil etib, xususan, «vertikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar)» maktabiga xos belgi va falsafa maktablarining kelib chiqishi tarixiy voqelikni umumiy bog'lanish orqali aloqadorligi ko'rsatib berilgan.

O'zlarini «Xan»lar deb atagan Xitoy imperiyasi etnonimi bo'lib kelgan, markazlashgan Xan imperiyasi shakllanishi davrida yaratilgan «Lyu sin – ban gu» nazariyasi an'anaviy fanda mumtozlik mavqeiga ega bo'ldi. Keyinchalik, butun Xitoy tarixi mobaynida unga ishlov berish davom etib, uning keyingi rivojida Chjan Syuchen (1738-1801) va Chjan Binlin (1890- 1936)lar alohida xissa qo'shdilar.

Bu ta'limot XX asr Xitoy falsafasida Xu Shi tomonidan qattiq tanqid qilinishi bilan birga oltita asosiy maktabni nafaqat turli kasb, balki turli xildagi shaxslar va turmush tarzi vakllari yaratgan degan xulosaga kelgan Fen Yulan tomonidan qo'llab quvvatlandi va rivojlantirildi. Maktablar haqida ma'lumot beruvchi bu to'plamlarning uzoq muddat mavjud bo'lib kelganligi o'sha davr maktablarining jamiyat haqidagi g'oyaviy qarashlari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

### *Xitoy falsafasini davrlashtirish masalalari*

Xususan, Xitoy faylasuflari tomonidan Xitoy falsafasini davrlashtirish haqida gap ketganda mazkur masala bilan bog'liq quyidagi uch jihatga ahamiyat qaratiladi: qadimgi Shan-In va Chjou sulolasining oxiri (III asr oxiri); o'rta asrlar – Xan va Tan sulolalari hukmronligi (III asr oxiri – X asr); Sun- Yuan, Min va Sin sulolalari davri (X-XIX)<sup>31</sup>. Ammo, Rus sino- loglarining fikricha esa, Xitoy falsafasini ushbu nuqtai nazardan ilmiy tasniflash tarixning Noy Nau bo'yicha davrlashtirish mezonlariga to'g'ri kelmaydi. YA'ni, ularning fikricha, Xitoy falsafasini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq (2-ilova). Bular: 1. Xitoy falsafasining qadimdan milodiy III asrgacha bo'lgan taraqqiyoti; 2. Xitoy o'rta asrlar taraqqiyoti

---

<sup>31</sup> Drevnekitayskaya filosofiya 2– x tomax. –M., 1972.

qiyoti falsafasi II-XVIII asrlar oxiri; 3. Xitoy falsafasining yangi – (XVIII asrning oxiridan bugungacha) davri<sup>32</sup>. Ammo, bu borada XX asr oxiri va XXI asrning boshlariga kelib kishilik jamiyati hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni ham chetda qoldirmaslik kerak. Zero, bugunga kelib fanda muammolarni sivilizatsion yondoshuvlar orqali o'rganish jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, yaqin o'tmishda to'g'ri, deb qarab kelingan ayrim ilmiy konsepsiyalarni ham haqiqatdan yiroq ekanligini ko'rsatmoqda.

Ana shu ma'noda Xitoy falsafasi taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan Konfusiy va Lao-szi falsafasini o'rganish nafaqat ilmiy mazmun kasb etadi, balki Xitoy falsafasi taraqqiyoti bilan bog'liq ayrim masalalarga oydinlik kiritadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti uchun Konfusiy va Lao-szi tomonidan ilgari surilgan falsafiy – g'oyaviy qarashlar mantiqan bir – biriga qarama-qarshi. Hayot davomida esa, o'z g'oyalarini qo'llab-quvvatlab kelgan davomchilariga ega bo'lib keldi.

### ***Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari***

Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmida va yuzta maktab davrida (mil.av. VI-II asrlarda) kelib chiqqan (1-ilova). Ushbu kitoblarning bir qatori qadimgi she'riyat, tarix, qonunchilik va falsafani o'z ichiga olgan. Bu kitoblarning mualliflari noma'lum bo'lib, o'zlari turli davrlarda yozilgan. Konfusiy izidan borgan mutafakkirlar ularga alohida e'tibor berishgan. Miloddan oldingi II-asrdan boshlab ushbu kitoblar Xitoy ziyolilari uchun asosiy tarbiya manbai bo'lgan. Ularni bilish davlat lavozimlarini egallash uchun davlat imtihonlarini topshirishga yetarli deb topilgan.

XX asrgacha barcha falsafiy maktablar o'z mulohazalarida ushbu kitobga murojaat etganlar. Ularga tayanish butun Xitoy madaniy hayotiga xos xususiyatdir.

Ilk konfusiychilikni davlat mafkurasiga aylantirgan Dun Chjunshu mumtoz kitoblarning muallifi sifatida Konfusiyni ko'rsatgan. Ammo eski matnlarning tarafdorlari Konfusiyni faqat ushbu kitoblarning sharhchisi sifatida tan olganlar, xolos. XX asr boshigacha mumtoz kitoblarning kelib chiqishi va talqini to'g'risidagi bahslar davom etgan.

### ***Mumtoz kitoblar haqida***

Ashulalar kitobi (Shi szin –mil.av. XI-VI asrlar) qadimgi xalq she'riyatining to'plamidir. Diniy marosimlarda kuylanadigan ashulalarni o'z ichiga olgan. «O'zgarishlar kitobi»ning ba'zi sharhlovchilarning fikricha, «Ashulalar kitobi» qabilalar, kasb-hunarlar va ashyolarning kelib

---

<sup>32</sup> Kitay. – L- M. 1940.

chiqishini tushuntiruvchi irfoniy asar bo'lgan. U keyingi Xitoy she'riyatining rivoji uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Tarix kitobi (Shu-szin – mil.av. I-ming yillik boshi) – Shan shu (Shan hujjatlari) nomi bilan ham mashhur bo'lib, tarixiy voqealarni aks ettirgan rasmiy hujjatlar to'plamidir. Keyingi davrlarda shakllangan rasmiy yozuvlar uchun katta ta'sir ko'rsatgan.

Urf-odatlar va marosimlar kitobi (Lu shu – mil.av.IV-I asrlar) uch qismdan: Chjou (Chjou li) davri urf-odatlari, Marosimlar tartibi (I li) va Urf-odatlar haqida Yozuvlar (Li szi)dan iborat bo'lgan. Diniy va siyosiy marosimlarni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy va siyosiy faoliyat meyorlarini belgilash masalalarini o'z ichiga olgan. Xitoyning qadimgi davrini ideallashtirib, keyingi taraqqiyot uchun namuna va meyor sifatida tavsiya etgan.

Bahor va kuz kitobi (un syu) Szo (Szo chjuan –mil.av.IV asr) sharhi bilan birga Lu davlatining (mil.av.VII-Vasrlar) solnomasidir. Keyinchalik axloqiy va adabiy rasmiyatchilik masalalarini hal qilishda namuna va meyor sifatida xizmat qilgan.

O'zgarishlar kitobi (I szin – mil.av.XII-VI asrlar) eng muhim asar ekanligi qayd etilgan. Xitoy falsafasining dunyo va inson haqidagi birinchi tasavvurlarining dunyo va inson haqidagi birinchi tasavvurlari aks ettirilgan. Uning matnlari turli davrlarda yozilgan bo'lib, unda dunyoni tasvirlashda asotiriy tafakkurdan uni falsafiy tushunishga o'tish boshlanganligi ko'zga tashlanadi. Unda qadimgi davrlarda borliq haqidagi masalani hal etish yo'llari o'z aksini topgan.

«O'zgarishlar kitobi»da Xitoy falsafiy fikri taraqqiyotining asosiy qoidalari eks ettirilgan.

«O'zgarishlar kitobi»ning kelib chiqish matni, deb atalgan ilk sahifalari miloddan avvalgi XII-VII asrlarda paydo bo'lgan bo'lsa ham, ammo uning uzviy qismi bo'lgan matnlarga yozilgan sharhlar mil.av.VIII-VI asrlarda paydo bo'lgan. Ilk matn toshbaqa kosasi, boshqa hayvonlarning suyaklari va o'simliklarga (shi) qarab fol ochish kabilardan kelib chiqqanligidan tashqari, bu yerda tushuncha shaklida mujassam etilgan in va yan unsurlari haqidagi afsonalarning aks sadosi ekanligi ko'zga chalinadi.

«O'zgarishlar kitobi»ning eng muhim qismlaridan biri in va yan unsurlari haqidagi afsonaga bag'ishlangan. Yan faol, hamma narsa tarkibiga kira oluvchi, ashyolarni bilish yo'llarini yoritib beruvchi narsa sifatida ifodalanadi. In esa, g'ayri faol, biror narsani kutib turuvchi, zulmat ibtidosi sifatida ta'riflanadi. In va Yanning harakati – yagona narsada o'zgarishga sababchi bo'luvchi harakat sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy ilk matn olti to'g'ri chiziqning turlicha majmualaridan tashkil topgan 64 geksagrammalar, ya'ni ramzlardan iboratdir (2-ilova).

Har bir majmuadagi geksagrammalarda hamda ularning chiziqlarining har bir holatiga sharhlar keltirilgan. Ana shu geksagrammalardagi chiziqlarning holatiga muvofiq ravishda «O'zgarishlar kitobi» o'z nomini

olgan. Unga berilgan sharhlarda biz quyidagilarni o'qiymiz: «O'zgarishlar – bu tasvir etilgan narsadir. Harakat haqidagi qator tabiiy asosga tayanadi. Ashyoviy chiziqlar dunyo harakatiga muvofiq keladi. Shunday tarzda baxt va baxtsizlik, achinish va uyat namoyon bo'ladi».

Sharhlovchilar (hozircha noma'lum) uchun geksagrammalar asta-sekin faqat bashoratchilikka taalluqli ekanligini yo'qotib, dunyoni o'z harakatida umumiy birlik tomon olib boruvchi 64 tushuncha vazifasini o'tay boshlaganligi qayd etilgan. In va yan o'z faoliyatlarini bir-birlarisiz amalga oshira olmaydilar. «In va yan o'z kuchlarini birlashtiradilar, butun va kesilgan to'g'ri chiziqlar esa, osmon bilan yer o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi shaklni o'zlariga kasb etadilar». Bu asosiy qoidalar o'zlarining o'zaro ta'sirlarini o'zgartiradilar va «o'zaro bir-birlariga» kiradilar, shuningdek, nimaiki, «in va yan faoliyatida yashirin qolsa, tushunib bo'lmaydigan holatda qoladi». In va yanning bir-biriga o'tib turishi yo'l (dao) deb ataladi, va bu

«yo'l barcha ashyolarda yashaydi». In va yanning o'zaro «hamdo'stligi» tufayli bir-biriga kirishishidan ularning o'zaro ta'sirini ifodalovchi oltita asosiy tushuncha kelib chiqadi. «O'zgarishlar kitobi»ning mualliflari tabiat hodisalarini ifodalashda tabiiy atamalarni qo'llaganlar: «Barcha ashyolarni harakatga keltirish uchun, momaqaldiroqdan tezroq hech narsa yo'q. Barcha ashyolarni sarosimaga solib qo'yish uchun, shamoldan o'zga qulayroq narsa yo'q. Barcha ashyolarni quritish uchun, olovdan boshqa hech qanday quruq narsa yo'q. Barcha ashyolarni tinchlantirish uchun, ko'ldan ko'ra sokinroq narsaning o'zi yo'q. Barcha ashyolarni ho'llash uchun, suvdan ko'ra ho'lroq hech narsa yo'q. Barcha ashyolarning paydo bo'lishi va intihosiga yetishi uchun, qaytishdan to'laroq hech narsa yo'q. Axir bu barcha ashyolarni to'ldirish-ku». «O'zgarishlar kitobi» daoni, ya'ni ashyolar yo'li va dunyo yo'lini harakatdagi holatini kuzatib boradi. Unda, ayniqsa, «uch narsaning qatnashishi» alohida ajratib ko'rsatiladiki, ular o'z yo'llaricha harakatlanadilar, ammo har doim birga keladilar, bular: osmon, yer, inson. O'zgarishlar kitobi: qo'shimcha etilgan hukmlar sharhi II jild, 10-bob: «O'zgarishlar shunday kitobni tashkil etadilarki, u ulug'vor va keng bo'lib, hamma narsani qamrab oladi. Unda osmon yo'li, zamin yo'li, inson yo'li o'z aksini topgan. Ushbu birgalikda mavjud bo'lgan va olti to'g'ri chiziq sababidan bir-biridan ajralishi mumkin bo'lgan ishtirokchilar, berilgan uch narsaning yo'lidan boshqa narsa emas»<sup>33</sup>.

### *Inson bilimi va ziyoli er vazifasi*

---

<sup>33</sup> Vostochnaya filosofiY. Perevod s cheshskogo kand.filos.nauk Boguta I.I. – Moskva: Misl, 1991. –S.564.

Insonning barcha bilimlari hamma mavjud narsalarni tushunish, bir- biridan ajrata bilish va ayrim belgilarni idrok etishga qaratilgan.

«Ziyoli er barcha narsalarni bir-biriga qo'sha olishni uddalash uchun o'qib o'rganadi. Ziyoli er, barcha narsalarning farqiga borish uchun so'rab- surishtiradi. Hamma narsalarni bo'lib chiqqa olish uchun, barcha narsalarni qanday bo'lsa, shundayligicha qoldiradi». Inson tabiat dunyosidagi o'z o'rnini haqida o'ylashi lozim, «o'z kuchini (de) Osmon va Yer bilan qo'shishi, o'zining porlashini Quyosh va Oy bilan birlashtirishi, o'z faoliyatini yilning to'rt fasli bilan birlashtirishi» zarur. U «paydo bo'lish va tanazzulga yuz tutishni ham bilishi» hamda «buning barcha haqiqatini yo'qotmasligi» lozim.

### ***Konfusiy – qadimgi ajdodlar donishmandligining sharhlovchisi***

Konfusiychilik yagona, bir butun ta'limot emas edi. U muayyan jamiyat tashkilotining nazariyasi sifatida axloqiy qoidalar, ijtimoiy meyorlar va boshqaruvni takomillashtirishga diqqat-e'tibor bergan va bu sohada muhofazakorona mavqeda turgan g'oya edi (1-ilova). Konfusiy o'zi haqida: «eskini bayon etaman va yangini barpo etmayman» degan edi. U va uning izdoshlari jamiyatning axloqiy tanazzulidan xavotirlanib, inson tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratib, jamiyatda bir-birini kechirish muhitini barqaror etishga harakat qildilar.

Konfusiy (mil.av.551-479 yy.) ning haqiqiy ismi Kun Fu szi (ustoz Kun) bo'lib, lotincha yozilishda Konfusiy sifatida qayd etilgan. Bu mutafakkir (oldingi ismi Kun-syu) Xitoyning birinchi faylasufi hisoblangan. Konfusiy bir necha yillar davomida Sharqiy Xitoy davlatlari bo'ylab sayohatga chiqqan va hayotining oxirgi yillarini shogirdlar tarbiyasiga qaratib, ba'zi mumtoz kitoblarni (szin) tartibga solgan. U ta'limoti Sin sulolasi hukmronligi davrida ta'qiqlangan ko'pgina faylasuflardan biri edi. Xan sulolasi davrida Konfusiy katta e'tibor qozonib, ilohiylashtirish darajasiga borib yetgan va yangi davrgacha hurmatli donishmand sifatida taqdirlangan.

Konfusiyning fikrlari o'z shogirdlari bilan qilgan suhbatlari tarzida saqlanib kolgan. Uning suhbatlari mazmuni o'z ifodasini topgan «*Suhbatlar va hukmlar*» («*Lun yuy*») kitobi eng ishonchli manbadir; unda Konfusiy o'zini qadimgi ajdodlar donishmandligining saqlovchisi va sharhlovchisi sifatida tanitgan. U o'z zamondoshlarini Qadimgi Xitoyning afsonaviy hukmdorlari bo'lgan Yao, Shun va Yuylardan o'rnak olishga chaqirgan. Ularning xayrli ishlari haqidagi hikoyalar avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan.

Ijtimoiy burchga sodiqlik va xolislik bilan nom chiqargan hukmdor Yao xalqni ma'rifatli qilgan, barchaga mehr bilan qarab, fuqarolik va qonunchilikni joriy etgan. Uning hukmronligi davrida uylarning eshigi qulflanmagan, yo'qolgan narsalar esa, egalariga qaytarilgan.

Yao tomi qamish bilan yopilgan kulbada yashagan. Uning taomi yovvoyi o‘tlar va gurunch bo‘tqasi bo‘lgan. Kiyimi nihoyatda oddiy bo‘lgan. Kulolchilik idishlaridan ovqat yegan. Agar mamlakatda kimdir och qolgan bo‘lsa, Yao albatta shunday degan: «Uning och bo‘lishiga men aybdorman». Agar mamlakatda kimningdir kiyimi bo‘lmasa, Yao albatta yana shunday degan: «Uning kiyimi yo‘qligiga men aybdorman!» Agar mamlakatda kimdir jinoyat qilgan bo‘lsa, Yao albatta shunday degan: «Men uni jinoyat qilishgacha olib bordim». U barcha uchun ma’suliyatni o‘z bo‘yniga olgan. Mamlakatni ko‘p yil boshqargan Yao, qarib qolganda hokimiyatni o‘g‘liga qoldirishni istamagan. Chunki uning o‘g‘lining boshqarish iste’dodi yo‘q bo‘lganligidan, Yao o‘zidan keyin xalqni qiynalishini istamagan. Shuning uchun salohiyatli kishilarni atrofiga to‘p-lab, ulardan eng aqllisiga taxtni topshirmoqchi bo‘lgan. Shunday odam Shun bo‘lib chiqqan. U yoshligidayoq ota-onasiga zo‘r hurmati bilan mashhur bo‘lgan, dehqonchilik, baliqchilik va kulolchilikni o‘rgangan.

Shun Yaoga o‘xshab bir necha o‘n yillar podshohlik qilgan va juda ko‘p xayrli ishlari bilan dong chiqargan. Keyin u ham, Yaoga o‘xshab, ashula va raqslar bilangina ovora bo‘lgan o‘z o‘g‘liga taxtni qoldirmagan, balki iste’dodli va adolatli Yuyga hokimiyatni topshirgan.

Yuy o‘z hukmronligi davrida misli ko‘rilmagan suv toshqini oqibatlarini bartaraf etgan. Toshqinga qarshi kurashda u o‘z qo‘liga savat va belkurak olib ishtirok etgan. Shamol va yomg‘irga qaramasdan, butun xalqni o‘z ketidan safarbar etgan. U daryolar o‘zanini tozalagan, yangi oquv yo‘llarini ochgan.

Konfusiy o‘z tashviqotlarida yuqoridagi afsonaviy hukmdorlar faoliyatidan o‘rnak olishga chaqirgan. O‘zi to‘g‘risida u shunday degan: «*Men sharhlayman, ammo yaratmayman. Men qadimgi davrlarga ishonaman va uni sevaman*». Va yana boshqa joyda: «Mening ta’limotim, qadimgilarning bizga qoldirgan va dars bergan ta’limotlaridan o‘zga narsa emas. Bu ta’limotga men hech narsa qo‘shmasdan va hech narsani olib qolmasdan, avvalgidek, sof holicha yetkazayapman. Bu ta’limot o‘zgarmasdir, osmonning o‘zi uning ijodkoridir. Men o‘zim yerga urug‘ sepadigan va sug‘oradigan dehqonga o‘xshayman, ammo u o‘z-o‘zicha sepilgan urug‘ni ko‘kartirib chiqaradigan va o‘simlikning boshqa turi shakliga aylantira oladigan kuchga ega emas».

### ***Konfusiy adolat haqida***

«Yer yuzidagi adolatsizlikni tugatish uchun nima qilmoq kerak?», degan savolga Konfusiy: «kishilarni axloqiy tarbiyalash yo‘li bilan», -deb javob bergan.

Osmonga sig‘inish konfusiychilikda muhim o‘rin tutgan. Osmon muayyan maqsadga yo‘naltirilgan oliy kuch sifatida talqin etilgan. U barcha aholining taqdirini belgilaydi. Osmon ulug‘vor qudratga ega bo‘lgan kuch bo‘lib, aql va oliy adolat ramzidir. Ammo osmon hukmini yerda ijro qilishga kim loyiq? Osmonning yerdagi shunday «vakili» hukmdor shaxsidir. Bu hakda konfusiychilikning «Shu-szin» kitobida shunday deyiladi:

«Osmon, odamlarga hayot bag‘ishlash bilan birga, ularga ehtiroslar ham

beradi. Agar odamlar boshqaruvchisiz qolishsa, unda bosh-boshdoqliklar kelib chiqishi mumkin, shuning uchun Osmon oliy aql egasi bo'lgan insonni yaratdiki, lozim bo'lgan vaqtda hukmron bo'lishga qodir». Shunday qilib, Konfusiy va uning izdoshlari hukmdorning hokimiyatini ilohiylashtirdilar. U nafaqat Osmonning yerdagi «vakili», balki insonlar dunyosi bilan ruhlar va ilohiy kuchlar o'rtasidagi vositachi hamdir.

### ***Konfusiyning «ismlarni tuzatish» g'oyasi***

Konfusiy «ismlarni tuzatish» (chjen min) g'oyasini ilgari surgan edi. Tuzatish yoki to'g'irlash tushunchasining mohiyati quyidagilardan iborat edi: har bir kishi jamiyatda o'ziga ajratilgan muayyan joyni egallashi va shunga muvofiq o'z xatti-harakatini o'lchashi lozim, ya'ni jamiyatda o'z «maqom»i ga ega bo'lishi yo hukmdor yoki shoh, katta lavozimdagi mansabdor yoki o'rtacha lavozimdagi xodim, yoki oddiy fuqaro bo'lishi zarur. «Olijanob er, - degan edi u, - o'zi bilmagan narsaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmog'i lozim. Agar ismlar noto'g'ri bo'lsa, aytilgan so'zlar asosli bo'lmaydi. Agar aytilgan so'zlar asosli bo'lmasa, u vaqtda ishlar bajarilmaydi. Agar ishlar amalga oshmasa, rasm-rusumlar va musiqa ravnaq topmaydi. Agar rasm- rusumlar va musiqa ravnaq topmasa, jazolash yetarli darajada qo'llanilmaydi. Agar jazolash yetarli darajada qo'llanilmasa, xalq nima qilishini bilmay qoladi».

### ***Konfusiya tartib tushunchasi***

G'arbiy Chjou sulolasi davridagi muayyan meyorlar, munosabatlar, harakatlar, huquq va burchlarni ifodalovchi tartib tushunchasining (li) ilk ma'nosini Konfusiy namunaviy g'oya sifatida tavsiya etadi. Uning fikricha, tartib insonning tabiatga, jumladan, kishilar o'rtasidagi munosabatlarida namoyon baladigan umumiy orzudagi istak tufayli o'rnatiladi. Tartib (li) tashqi xatti-harakatni, ya'ni etiketni ham o'z ichiga oluvchi axloqiy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Tartibga asliy kelib chiqish jihatdan rioya etish burch majburiyatlarini maqsadga muvofiq ravishda bajarishga olib keladi.

«Agar oliyanob er (szyun szi) aniq ish tutuvchi va vaqtni bekorga sarflamaydigan bo'lsa, basharti u boshqalarga nisbatan hurmat bilan muomala qiladigan va tartibga rioya etuvchi bo'lsa, unda to'rt dengiz orasida yashovchi kishilar unga birodar bo'ladilar». Tartib (li) xayrli ish (de) bilan to'ldiriladi: «Szichan haqida gapirgan muallim, uning oliyanob er kishiga taalluqli to'rt xayrli ishini ta'kidlab o'tgan. Xususiy xatti-harakatida u muloyim, xizmatda-aniiq ish tutuvchi, insonparvar va odamlarga nisbatan adolatli». Konfusiy fikricha, o'z vazifalarini ana shunday tartibga binoan bajarish zaruriy ravishda odamgarchilikning (jen) namoyon bo'lishiga olib keladi. Odamgarchilik – insonga nisbatan qo'yiladigan barcha talablarning asosidir. Insonning yashash tarzi shunchalik ijtimoiydirki, u uni boshqarib turuvchi quyidagilarsiz yashay olmaydi: a) *o'zing nimaga erishmoqchi bo'lsang,*

*boshqalarga ham shunga erishishga yordam ber; b) o'zing xohlamagan narsani, boshqalarga ham ravo ko'rma.*

Odamlar oilaviy sharoitga bog'lik ravishda, keyin esa, ijtimoiy holatlarga nisbatan bir-birlaridan farqlanadilar. Oilaviy otasolorlik (patriarxal) munosabatlaridan Konfusiy *o'g'illik va birodarlik oliijanoblighi (syao ti) asosiy qoidasini* keltirib chiqaradi. Ijtimoiy munosabatlarga oilaviy munosabatlar tengdirlar. Fuqaroning hokimga, boshliqning o'z qo'l ostidagi xizmatchiga bo'lgan munosabati o'g'ilning otaga va ukaning akaga bo'lgan munosabati kabidir. Xizmat yuzasidan boshliqqa nisbatan bo'lgan muomala tartibiga rioya etish uchun Konfusiy adolatlilik va ijrochilikning asosiy qoidalarini (*i*) ishlab chiqdi. Adolatlilik va ijrochilik haqiqatni borliq sifatida tushunishga bog'liq bo'lmaganligi tufayli, Konfusiy bu masala bilan maxsus shug'ullanmaydi. Inson tartib va uning holati taqozo etgandek, xatti-harakat etmog'i lozim. To'g'ri ijrochilik xatti-harakati – bu shunday odobki, unda tartib va odamgarchilikka qat'iy ravishda rioya qilinadi, negaki, «oliyjanob er qaysi narsa yaxshi ijrochilikka kirishini, xuddi kichik lavozimdagi odamlar nima foydaligini bilganidek, uning farqiga boradilar».

Konfusiy ta'limotiga ko'ra, ma'lumotli kishilarning yo'li (*dao*) shunday bo'lib, ular axloqiy kuchga (*de*) egadirlar va shuning uchun ham jamiyatni boshqarish ularga ishonib topshirilishi kerak.

### ***Konfusiy bilim haqida***

Konfusiyning axloqiy-siyosiy ta'limoti qandaydir nazariy bilish asosiga tayanmaydi. Bilim (*chji*) va uning kelib chiqish masalasini Konfusiy qadimgi kitoblarni o'rganish va qadimgi ajdodlar tajribasidan iqtibos qilishda, deb bildi. Uningcha, bilimning asosiy manbasi o'qishdir va uning manbasi esa, qadimgi rivoyatlar va solnomalardir. Shuning uchun konfusiychilikka jamiyat taraqqiyotidagi ilgarigi va yangi tajribaga tanqidiy munosabatda bo'lib, ulardan xulosalar chiqarish yot edi. Tabiatshunoslik fanlariga umuman e'tibor berilmagan edi. Har qanday yangi hodisa eskiga tajriba nuqtai nazaridan baholanar va o'tmishga borib taqalar edi. Masalaning bunday qo'yilishi Xitoy o'tmishini ideallashtirishga olib keldi. Konfusiychilik ta'limoti muhofazakorona fikrlar tayanchiga aylandi.

**2.Topshiriq:** “Xitoy falsafasi tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari” mavzusi yuzasidan o'qitish zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma'ruza va seminar mashg'ulot jarayonlarini loyihalashtiring



## **V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

### **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR**

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan oliy ta‘lim muassasalarda o‘zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. TDSHU “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida Sharq falsafasi va madaniyati tarixiga doir o‘quv dasturlar va darslik, qo‘llanmalar bilan tanishish va ko‘rish.

“Yaponiya va Koreyada falsafiy fikr rivojining muhim xususiyatlari. Sharq va G‘arb falsafasi tarixiy rivojlanishining o‘zaro aloqadorligi. Globallashuv sharoitida Sharq falsafasi va madaniyatini o‘rganishning ahamiyati” modulga tegishli darslarni ilg‘or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqarish masalalari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy ta‘lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

## V. GLOSSARIY

Atamaning ingliz tilidan nomlanishi	Atamaning rus tilidan nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Averoism	Averroizm	Averroizm	Ibn Rushd falsafiy merosi ta'sirida G'arbda vujudga kelgan falsafiy yo'nalish.
Practical philosophy	Prakticheskaya filosiya	Amaliy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko'ra, falsafaning ikkinchi qismi bo'lib, u siyosat, huquq, uy ishlarini o'rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya'ni etikadan iboratdir.
Authocracy	Avtokratiya	Avtokratiya	(yunon. – autos – o'zim va cratos – hokimiyat so'zlari birikmasidan tashkil topgan) – alohida sub'ekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan, nazorat qilinmaydigan va uni to'liq egallab olgan holda boshqarish
Aggression	Agressiya	Agressiya	(lot. aggres – hujum qilmoq). Hozirgi kunda A. so'zi inson faoliyatining juda ko'p qirralarini ifodalaydi: tahdid qilish unsurlaridan tortib, to jismoniy ta'sirgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi
Acacia	Akasha	Akasha	Svami Vivekananda ta'limotida olamdagi barcha narsalar kelib chiqadigan dastlabki materiY.
Anarchy	Anarxiya	Anarxiya	(yunon. anarchia – bosh – boshdoqlik, hokimiyatsizlik) – ijtimoiy-siyosiy ta'limot bo'lib, shaxsni har qanday nufuzlar va turli-xil iqtisodiy, siyosat va ma'naviy ta'sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo'yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo'lib, uni zo'ravonlik, inqilobiy yo'llar bilan yo'q qilishi kerak.
An-naxda	An-naxda	An-naxda	XIX asrning o'rtalarida arab dunyosida boshlangan g'oyaviy va adabiy uyg'onishning nomlanishi. Misrda Rifo at-Taxtoviy (1801-1873), Ali Muborak (1824-1893), Abdulloh Fikriy (1834-1890), Suriyada Nosif al-Ezijiy (1800-1871),

			Butrus al-Bo'stoniy (1819-1888), Fransis Marrosh (1836-1873) kabi mutafakkir-olimlar ushbu oqimning vakillari hisoblanadi.
Anthropocentrism	Antropotsentrizm	Antropotsentrizm	(yunon. anthropos – inson, kentron – markaz). Bu tasavvurga ko'ra, inson–koinot markazi bo'lib, olamdagi barcha voqea–hodisalar o'zgarishning tub maqsadidir.
Aparigrakha	Aparigraxa	Aparigraxa	Jaynizmda barcha ko'ngil istaklaridan o'zini tiya bilish. Bu kishida lazzat uyg'otadigan ob'ektlardan o'zini tiyishga da'vat etadi.
Mixed nation	Smeshannaya natsiya	Aralash millat	Abul Kalom Ozod (1888–1958)ning Hindiston xalqlari dinlar va tillarning turli tumanligidan va boshqa farqlardan qat'i nazar, yakdil bo'lishlarini maqsad qilgan konsepsiyasi.
Athman	Atman	Atman	Upanishadlarda ruh kategoriyasi bo'lib, hamma narsa ichiga kira oluvchi sub'ektiv voqelik sifatida o'zini namoyon etadi: u – “katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong'iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta'msiz, ko'zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning ”oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo'q...
Atheism	Ateizm	Ateizm	(yunon. theos – xudo) har qanday ilohiy ta'limotni, ilo–hiy kuchni rad etuvchi falsafiy oqim, dahriylik.
Akhimsa	Aximsa	Aximsa	Gandiy va jaynizm ta'limotida tirik jonga ozor yetkazishdan o'zini tiyish asosiy tamoyili
Ethical degradation	Eticheskaya degradatsiya	Axloqiy degradatsiya	hinduizmida axloqiy normalarning buzilishi.
Ethical and enlightened government	Eticheskoye i prosveshennoye pravitelstvo	Axloqli va ma'rifiy hukumat	Eron ma'rifatpar–vari Shams ul-Urafo tomonidan ishlab chiqilgan, diniy va milliy axloqiy qadriyatlar asosida jamiyat boshqaruvini ta'minlaydigan hukumat shakli.
Ashram	Ashram	Ashram	hinduiylikda diniy jamoa
Animism	Animizm	Animizm	ibtidoiy tasavvurlardan biri

			bo'lib, tabiatda ruhlarning ta'siri mavjudligiga ishonish.
Arabic sciences	Arabskiye nauki	Arab ilmlari	kalom, fiqhshunoslik va hadisshunoslik kabi diniy ilmlar.
Asceticism	Asketizm	Asketizm	moddiy dunyo noz-ne'matlaridan voz kechib, ruhiy kamolot yo'lida uzlatga chekinishdir.
Mythological thought	Mishleniya (mifologicheskaya misl)	Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash)	insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir.
Atomism	Atomizm	Atomizm	materiyaning uzluksiz, diskret (dona-dona) tuzilishi haqidagi ta'limot.
Ethics	Etika	Axloq	(arab. xulq so'zining ko'pligi) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalar yig'indisi.
Teaching about eternal return	Ucheniye o vechnom vozvrashenii	Abadiy qaytish ta'limoti	Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur.
Agnositism	Agnostitsizm	Agnostitsizm	Bilishni inkor qiluvchi ta'limot.
Antinomy	Antinomiya	Antinomiya	Isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo'lgan haqiqatlar yoki qoidalar.
Apologetics	Apologetika	Apologetika	So'zning lug'aviy ma'nosi himoya qilmoq demakdir, ya'ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir.
A priori	Aprior	Aprior	Tajribagacha bo'lgan bilim.
A posteriory	Aposterior	Aposterior	Tajribadan keyingi bilim.
Association	Assotsiatsiya	Assotsiatsiya	Bilishdagi munosabat-asoslari.
Ethical rationalism	Ratsionalnaya etika	Axloqiy ratsionalizm	Bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo'ladi.
Brakhma	Braxma	Braxma	braxmanizm diniy ta'limotiga ko'ra, yagona real dunyoviy ruh, ilohiy substansiya, hayot manbai, borliqning asosi.
Brakhmans	Braxmani	Braxmanlar	– Qadimgi Hindistonda davlat rahbarlari, ziyolilar va donishmandlardan tashkil topgan ijtimoiy qatlam.

Brakhmachary	Braxmachariya	Braxmachariya	Gandiy va jaynizm ta'limotida o'z-zoif xatti-harakatlarga yo'l qo'yishdan o'zini tiyish hamda insonda o'z fikru hayollari, so'zlari va harakatlarini qat'iy idora etishi tamoyili.
Buddha	Budda	Budda	(qad. sanskritcha – “nurlangan”) buddaviylik ta'limoti asoschisi, tarixiy shaxs Sidxarta Gautama.
Argument	Dovod	Burhon	isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar.
Busury	Busuri	Busuri	Nisi Amanening falsafiy qarashlarida tabiat qo–nunlari tushunchasi
Bkhakthy	Bxakti	Bxakti	<p>“Bxakti” so‘zi sanskrit tilidan olingan bo‘lib “mehri”, “sadoqat” degan ma‘nolarni anglatadi. Bxakti diniy harakat sifatida avval X–XII asrlarda Hindistonning janubida, u yerdan quvg‘inlikka uchraganidan so‘ng esa XIV asrlardan boshlab Hindistonning shimolida keng yoyila bordi va XV–XVI asrlarda esa Hindistonning shimoli bxakti harakatining eng yirik markaziga aylandi. Ramanand va Ramanuja, Vallabxacharya, Chaytannya, Nimbarkacharya, Xit Xarivansh kabi faylasuflar bxaktining asoschilaridir. Faylasuflarning bxaktini targ‘ib qilishdan bosh maqsadlari umidsizlikka tushib qolgan hind xalqini hayotga qaytarish, ularning ongida so‘ngan ishonchni yana qayta uyg‘otish, kelajakka, ertangi kunga ishonib yashash tuyg‘ularini mustahkamlash edi. Bxakti diniy-islohotchilik harakati hinduizm diniy fanatizmiga qarshi kurashda xuddi tasavvufdek bunyodga kelgan bo‘lsa-da, o‘sha davrda hind jamiyati hayotida bir vaqtning o‘zida hukmdor bo‘lgan bir qancha dinlarning fanatizmiga ham qarshi juda muvafaqqiyatli ravishda kurashdi va bu yo‘lda</p>

			o'z maqsadiga erisha oldi.
Biological anthropology	Biologicheskaya antropologiya	Biologik antropologiya	Insonni biologik mavjudot sifatidagi jihatlarini bo'rttirib o'rganuvchi ta'limot.
Primary quality	Pervichniye kachestva	Birlamchi sifatlar	Narsalarning mohiyatliy belgilari.
Primary	Pervonachalo	Boshlang'ich ibtido	Substansiya, birinchi ibtido, asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.
Vaysheshics	Vaysheyshiki	Vayshiyalar	Hinduiylikda dehqonlar va hunarmandlar varnasi, tabaqasi.
Vakhdat al-vujud	Vaxdat al-vujud	Vahdat ul-vujud	tasavvuf ta'limotining yetakchi g'oyasi, xudo va olam birligi.
The Vedas	Vedi	Vedalar	Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta'lim beruvchi birinchi manbalar.
Vedkhanta	Vedanta	Vedanta	vedalar oxiri degan ma'noni anglatuvchi qadimgi hind falsafiy maktablaridan biridir.
Wajib al-wujud Primary cause	Vajib al-vujud	Vojib ul-vujud	arab-musulmon falsafasida borliqning birinchi sababi, ya'ni bor bo'lishi shart bo'lgan borliq – xudodir.
Voluntarism	Volyuntarizm	Volyuntarizm	(lot. Voluntas – iroda) – iroda borliqning eng oliy ko'rinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda V.da tarixiy jarayonlarning ob'ektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan o'zboshimchalik bilan o'z hohish-irodasini yuqori qo'yuvchi faoliyatdir.
The doctrine of Gandhism	Ucheniye gandiizma	Gandiychilik ta'limoti	M. Gandiy (1869–1948) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta'limot. Gandiychilik hinduiylik, jaynizm, insonparvarlik va kuch ishlatmaslik g'oyalariga asoslangan.
Hedonism	Gedonizm	Gedonizm –	Lazzatlanish, huzurlanish.
The hylozoism	Gilozoizm	Gilozoizm	Hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.
Geocentric teaching	Geotsentrizm	Geotsentrizm	Er - Olamning markazi, degan ta'limot.
Humanism	Gumanizm	Gumanizm	Insonning dunyodagi o'rni, mohiyati va vazifasi, borlig'ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.
Taosism	Daosizm	Daosizm	qadimgi Xitoydagi falsafiy ta'limot. D. Chjango davrida ("Urushayotgan davlatlar",

			mil.av. 6-5 asrlar) vujudga kelgan. D.ning asoschisi Lao-szi (mil.ol. 579–499 yillar) hisoblanadi. Lao szining asosiy g‘oyalari "Dao-de-szin" asarida bayon qilingan. Uning fikricha, barcha narsalar faqatgina, "dao" ga mos holda vujudga keladi va o‘zgaradi, shuningdek u kishilarni tabiat bilan uyg‘unlikda, tabiiy hayot kechirishga chaqiradi.
Deism	Deizm	Deizm	(lot. deus – xudo) xudoning, olamning shaksiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot. D. atamasi birinchi marotaba 1564 yilda paydo bo‘ldi.
Determinism	Determinizm	Determinizm	Zaruriy shartlanganlik tamoyili.
Drakhms	Draxmi	Draxmalar	buddaviylikka ko‘ra, “o‘zining belgilariga ega bo‘lgan zarrachalar” yoki “unsurlar” .
Deduction	Deduksiya	Deduksiya	Umumiydan xususiya borish.
Deductive method	Deduktivniy metod	Deduktiv metod	Umumiy bilimdan xususiya bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi deduktiv metodni ilgari suradi.
Dialectics	Dialektika	Dialektika	Raqib bilan bahs-munozara yurita olish san’ati.
Wisdom	Mudrost	Donolik	Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal birligi.
Dualism	Dualizm	Dualizm	Nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud.
Jaynism	Djaynizm	Jaynizm	miloddan avvalgi bir minginchi yilning o‘rta-larida vujudga kelgan ta’limot. Mazkur ta’limotning asoschisi Vardxamana bo‘lib, qalandarona hayot kechirgan. Bu ta’limotning asosida materiya va jon yotadi. Jaynistlarning ko‘rsatilishicha, insonning asosiy maqsadi tashqi olamning hukmronligidan qutilish va o‘z kamoliga erishishdir. Inson tabiati ham moddiy, ham ruhiydir. Jon bir vaqtning o‘zida nafis jon (Jiva) va dag‘al materiya (ajiva)ning

			birligidan iborat.
Jnana	Djnana	Jnana	Ramakrishna ta'limotida bilish yo'li.
Necessity	Neobxodimost	Zarurat	Olamdagi hamma narsa belgili asosda paydo bo'ladi, obektiv zaruratdan paydo bo'ladi.
Social treaty	Obshestvenniy dogovor	Ijtimoiy kelishuv	Jamiyatni shartnoma asosida paydo bo'lganligi haqidagi ta'limot.
I	I	I	xitoy falsafasiga ko'ra, halol ijrochilik tushunchasi.
Dual wisdom	Dvoynaya mudrost	Ikki donishmandlik	Nosir Xisrav fikricha, bu qadimgi yunon falsafasi (yunon donishmandligi) va qarmatilylik ilohiyotidir.
Induction	Induksiya	Induksiya	bo'lakdan butunga tomon hukm yuritish.
In and yan	In i yan	In va yan	xitoy falsafasiga ko'ra, borliqdagi o'zgarish va rivojlanishlarning sababi bo'lgan azaliy qarama-qarshi ibtidolar.
Social justice	Sotsialnoye spravedlivost	Ijtimoiy adolat	Jamiyatdagi adolat shakli.
Dual truth	Dvoynaya istina	Ikki haqiqat	Dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.
Secondary quality	Vtorichniye kachestva	Ikkilamchi sifatlar	Narsalarning tashqi sifatiy belgilari.
Early Christianity	Rannaya xristianstva	Ilk xristianlik	Xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.
Inductive method	Induktivniy metod	Induktiv metod	Tajriba orqali olingan materiallarni miyada qayta ishlash usulidir.
Human existence	Chelovecheskoye bitiye	Inson borlig'i	Inson borlig'ini "ekzistensiya" deb atadilar.
Human gear, Man-mechanism	Chelovek-mexanizm	Inson-mexanizm	Inson mexanika qoidalariga bo'ysinuvchi mavjudot.
Human philosophy	Filosofiya cheloveka	Inson falsafasi	Inson ma'naviy hayotining ichki qonuniyatlarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma'nosi, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning o'ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobiy tomonga yo'naltiruvchi ta'limot.
Irrationalism	Irratsionalizm	Irratsionallik	Obektiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», subekt ongining hodisalarini tahlil qilishga o'tdilar.
Jewel	Dragotsennost	Javhar	arabcha so'z bo'lib, Sharq falsafasida olamning birlamchi



			sababi, moddiy yoki ruhiy asosi, degan ma'noda keng qo'llanilgan.
Dialectic	Dialekticheskiy	Jadal	dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo'linuvchi savol-javob hukmlari kabilar.
Jen	Jen	Jen	Qadimgi Xitoy falsafasidagi insoniylik tushunchasi.
Kali	Kali	Kali	hinduiylikda hudoning yaratuvchilik, saqlovchilik yoki yemiruvchilik faol holatidagi nomi.
Caste	Kastantsvo	Kastachilik	Hinduiylikda insonlarning qat'iy tabaqalarga, kastalarga bo'linishi.
Ki	Ki	Ki	Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasida tabiat va inson paydo bo'lishining moddiyuncha ibtidosi
Kalam teaching	Ucheniye kalama	Kalom ilmi	o'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida vujudga kelgan maxsus bilimlar tizimi.
kwankhakpha	Kvanxakpxa	Kvanxakpxa	o'rta asrlarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.
Kirin	Kirin	Kirin	(“ki” - erkak, “rin” – “ayol”) qadimgi koreys mifologiyasiga ko'ra, o'zida dunyo paydo bo'lishining dastlabki besh elementlarini mujassamlashtirgan afsonaviy hayvon.
Kodo	Kodo	Kodo	“Yaponizm” mafkurasida “Imperator yo'li” tamoyilining nomlanishi.
Cosmic mind	Kosmicheskiy razum	Koinotiy idrok	Pravas Chaudxuri falsafiy ta'limotidajodiy yaratuvchilik vazifasiga ega ibtido.
Kun-tsi	Konfusiy i Konfusianstvo	Konfusiy va konfusiychilik	milodgacha bo'lgan VI–V asrlarda qadimgi Xitoyda yuzaga kelgan falsafiy oqim. Konfusiy (Kun szi, melodgacha 551 – 479 y.lar) – mazkur ta'limotning asoschisi bo'lib, u hozirgi Shandun viloyati hududida Lu xonligi davrida tug'ildi. Konfusiylar bu

			<p>vaqtlarda deyarli kambag‘allashgan eski zodagonlar oilasiga mansub edi.</p> <p>K. asoschisining qarashlari uning izdoshlari tomonidan yozilgan "Lun yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") nomli falsafiy kitobda bayon etilgan. K.lar ta'limotida "chjun" (podshohga sadoqat), "i" (burchga sadoqat), "syao" (o'g'illarcha ehtirom) va b. g'oyalarni ifoda etuvchi, "jen" (insonparvarlik) qarashlari sistemasi markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosida ushbu hislatlarni o'ziga singdirgan "szyun–szi (olijanob kishilar) haqidagi g'oya turadi. Kishilarni "szyun – szi" (olijanoblar) va "syao – jen" (past tabaqalar)ga ajratish shundan kelib chiqqan.</p> <p>Unga ko'ra, boshqaruv birinchilar tomonidan amalga oshirilishi, keyingilar esa faqat itoat etishlari zarur bo'lgan.</p>
Cosmopolitanism	Kosmopolitizm	Kosmopolitizm	vatansizlik g'oyasini ilgari suruvchi falsafiy ta'limot. Ushbu ta'limot butun yer sayyorasinigina vatan sifatida tan oladi.
Kshatry	Kshatri	Kshatriylar	Hinduiylik kastachiligida harbiylar var–nasi, tabaqasi.
Kojiky	Kodziki	Kodziki	Yaponiyadagi qadimgi kishilarning qilmishlari haqidagi bitiklar.
Li	Li	Li	xitoy falsafasiga ko'ra, ruhiy olam, ruhiy substansiY.
Legists	Legisti	Legistlar	miloddan oldingi IV asrda siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan legizm falsafiy oqimining tarafdorlaridir.
Matter	Materiya	Materiya	Moddiy asos.
Mayya	Mayya	Mayya	Vedantizmda real va noreal, moddiy dunyo.
Materialism	Materializm	Moddiyunchilik	(lot. Materialis – moddiy, moddiylashgan) olam moddiy, ongimizga bog'liq bo'lmagan holda, ob'ektiv tarzda mavjud, materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy

			mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin, deb qarovchi falsafiy oqim.
Ideology	Ideologiya	Mafkura	(arab. «mafkura» – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar sistemasi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.
Administrative philosophy	Adminstrativniy filsofiya	Ma’muriyat falsafasi	Svami Ranganatxananda falsafiy qarashlarida jamiyat rivojiga turli darajadagi ma’muriyat hodimlari o’z his-salarini qo’shishi zarurligini o’zida ifoda etadigan ta’limot.
Moral synthetic unity	Nravstvennoye sinteticheskoye yedinstvo	Ma’naviy sintetik mushtaraklik	Svami Rangatxanandaning Hindistonda hinduizm va islom orasida tinch-totuvlik va hamkorlik munosabatlari mumkinligi va zarurligini mantiqan isbotlagan ta’limoti.
Enlightenment	Prosvesheniye	Ma’rifatparvarlik	kapitalistik munosabatlar shakllanishi davrida, madaniy–mafkuraviy va falsafiy oqim–larning vujudga kelishi bilan bog’liq, yuzaga kelgan, qonuniy bosqich. M. milliy xususiyatlardan qat’iy nazar quyidagi umumiylikka ega: demokratizm, ya’ni keng ommani madaniyat va bilim manbalaridan foydalanish uchun sharoit yaratib berish, inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga ishonish. M. tushunchasi birinchi bor, Fransiyada shakllanib, XVIII asrning boshlarida rivoj topa boshladi. Fransuz jamiyatida M. Volter, Sh.L.Monteske, J.Mile bilan bog’liqdir.
Mythology	Mifologiya	Mifologiya	Afsonalar va asotirlar haqidagi ta’limot. Qadimda falsafani manbasi, material vazifasini o’tagan.
Nationalism	Natsionalizm	Millatchilik	milliy mahdudlik va maqtanchoqlikni targ’ib va tashviq qilishga asoslangan, o’z millati kuch-qudrati va salohiyatiga chuqur ishonch va

			o'zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo'g'rilgan nazariya va amaliyot
Monotheism	Monoteizm	Monoteizm	(yunon. Monos – yakka, yagona, theos – xudo) – yakkahudolikka asoslangan diniy e'tiqod.
Islamic theologists Mutakallimin	Mutakallimiti	Mutakallimlar	kalom ilmi vakillari, ularning eng mashhurlari, Abul Hasan al-Ash'ariy va Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiydir.
Islamic theologists	Mutaziliti	Mu'taziliylar	(arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri bo'lib, diniy hukm va aqidalarni aql doirasida qabul qiluvchilar.
Metaphysics	Metafizika	Metafizika	Tabiatdan oldin, birinchi falsafa ma'nosida ham qo'llaniladi.
Method	Metod	Usul	Usul haqidagi ta'limot.
Modus	Modusi	Moduslar	Narsalarning sifatleri.
Monads	Monada	Monada	Birlamchi asoslar, ruhiy substansiyalar.
World of substances	Mir veshey	Narsalar dunyosi	O'tkinchi, yo'q bo'luvchi, o'zgaruvchan dunyo.
Philosophy of theory	Teoreticheskiy filofosiya	Nazariy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko'ra, metafizika (oliy fan), matematika (o'rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iborat ilmlar majmui.
Nirwana	Nirvana	Nirvana	buddaviylik ta'limotiga ko'ra, azaliy karma iplaridan xalos bo'lish va abadiy ruhiy xotirjamlik.
Norito	Norito	Norito	Qadimgi Yaponiyadagi sintoistik e'tiqod bo'lib, u duo ifodalarini o'qish, qurbonliklar (guruch, sabzavot, baliq) keltirish bilan bog'liqdir.
Prophecy	Prorochestvo	Nubuvvat	payg'ambarlik, ilohiy xabar – vahiy orqali Alloh yer yuziga o'z elchisini yuborib, insonlarni zalolatdan qutqarishi.
Relativity	Otnositelnost	Nisbiylik	Hamma narsa o'zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukunat esa vaqtinchalik, nisbiydir.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Neoplatonizm	Yangi afltunchilik, ellin davrida rivojlangan oqim.
Accidensy	Aksidensiya	Oraz	aksidensiya, narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan, tasodifiy, o'zgaruvchan, ahamiyatsiz

			xossasini bildiradi.
Consciousness	Soznatelnost	Onglilik	Onglilik bu hodisalarning yuzaki qismidir. Bizning butun tashqi, ichki taassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruhiy holatlar bilan bog'liqdir.
Progress	Progress	Progress	Taraqqiyot haqidagi ta'limot.
Pantheism	Panteizm	Panteizm	(yunon. ran – hamma, theos – xudo) – tarixan shakl–langan falsafiy ta'limot bo'lib, u xudo bilan tabiat bir–biriga, tamoman, mos bo'lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir–biriga qarama–qarshi qo'yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi, deb da'vo qiladi.
Pacifism	Patsifizm	Pasifizm	hech narsaga ozor bermaslik tamoyili.
Purans	Purani	Puranlar	Hinduizmni o'rganishning eng dastlabki manbalaridan biri bo'lib, ular turli rasm-rusumlar va mifologik syujetlar kiritilgan asardir.
Rationalism	Ratsionalizm	Ratsionalizm	Bilishda aqlni rolini oshirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Rationality	Ratsionalnost	Ratsionallik	Kantdan Gegelgacha bo'lgan yo'l - bu insonning tanqidiy baholovchilik qobiliyati sifatida tushunilgan oliy aqlning gegelcha «ilohiy» aql aqidasi o'rin bo'shatib berishi yo'lidir.
Regress	Regress	Regress	Orqaga ketish.
Renaissance	Renessans	Renessans	Uyg'onish davri.
Revolution	Revolyusiya	Inqilob	(lotin. "revolutio" – to'ntarish, burilish) – tabiat, jamiyat yoki bilish jarayonida biron–bir narsa, hodisada sodir bo'ladigan chuqur sifat o'zgarishi va rivojlanishni ifodalaydigan tushuncha.
Sallimkhakpha	Sallimxakp-xa	Sallimxakp-xa	o'rta asrlarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.
Sati	Sati	Sati	Hindistonda beva qolgan ayolni erining jasadi yon–dirilayotgan gulxanda birga yondirilishi marosimi.
Satory	Satori	Satori	yaponcha so'z bo'lib, ichki tuyg'u bilan tushunish, yoritilish lahzasini anglatadi.
TwaddleVerbiag	Pustosloviye	Safsata	noto'g'ri hukmlar, boshqalarni

e			aldash, yolg'olni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralozimlar.
Swadesh	Svadeshi	Svadeshi	Hindiston Milliy Kongress partiyasining ingliz mahsulotlariga bo'kot e'lon qilish g'oyasi.
Swaraj	Svaraj	Svaraj	Hindiston Milliy Kongress partiyasi ilgari surgan "O'z-o'zini boshqarish" g'oyasi.
Sensualism	Sensualizm	Sensualizm	Bilishda sezgilarni rolini, ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Scepticism	Skeptitsizm	Skeptitsizm	yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ko'rib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalanyapman degan ma'nolarni bildiradi. Bu oqimning ko'zga ko'ringan vakillari – Pirron, Agripp, Ensidem, Sekst Empirik.
Chaos,Element	Stixiya	Stixiya	Tabiatning ongsiz harakati.
Subjectivism	Subyektivizm	Subektivizm	Bilishda inson ongini, xislarini o'rnini ko'tarib ko'rsatuvchi ta'limot.
Natural right	Yestestvenniye pravo	Tabiiy huquq	Insonni tug'ilgandan yashashga bo'lgan huquqlari.
Natural equality	Yestestvennoye ravenstvo	Tabiiy tenglik	Insonni tug'ilgandan hamma insonlar teng degan ta'limot.
Focusingattention, treatment	Sosredotocheniye vnimaniya, obrasheniye	Tavajjuh	butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.
Tanasukh	Tanosux	Tanosux	inson vafot etgandan so'ng, ruhning bir tanadan boshqa tanaga ko'chib o'tishi haqidagi nazariya.
Tapasya	Tapasya	Tapasya	Gandiy va jaynizm ta'limotida azob chekish va o'g'rilikdan o'zini tiyish tamoyili.
Theism	Teizm	Teizm	(yunon. theos – xudo) – diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, olamni, xudo tomonidan yaratilganini tan oladi.
The Tendai Sect	Sekta Tenday	Tenday mazhabi	o'rta asrlarda Xitoyda gullab-yashnagan budda-viylikning "Bir lahzada uch ming dunyo", ya'ni kosmologik nazariya qoidasiga amal qiluvchi mazhabi.
Tolerance	Tolerantnost	Tolerantlik	(lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat) – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari,

			g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag'rikenglik.
Totemism	Totemizm	Totemizm	ibtidoiy tasavvur shakllaridan biri bo'lib, borliqdagi o'zgarishlarni va rivojlanishlarni tushunishda hayvonlarning g'ayritabiiy ta'siriga ishonish.
It	"Ono"	"U"	Tushunchasiga esa onglikni tashkil etuvchi ongsizlik kiradi.
The Upanishads	Upanishadi	Upanishadlar	(haqiqatni bilish maqsadida o'qituvchi oldida o'tirish) Vedalarning to'rttasidan biriga an'anaviy tarzda qo'shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi.
The Renaissance	Epoxa vozrojdeniya	Uyg'onish davri	Yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.
Universal	Universalii	Universaliiylar	Umumiy tushunchalar haqidagi ta'limot.
Fatalistic determinism	Fatalisticheskii determinizm	Fatalistik determinizm	Taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo'ladi, degan ta'limot.
Fazza	Fatszya	Faszya	siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy oqim. Legizm falsafiy oqimi jamiyatni boshqarish siyosatida zo'ravonlikka (totalitar) asoslangan umumiy koidani joriy qilishni, byurokratiya ustidan nazorat o'rnatishni, jamiyatda xalqqa nisbatan tub va keskin choralar kurishni tavsiya kildilar Legizm ma'rifatli bo'lgandan ko'ra, xalqni jaholatda tutishni afzal ko'radi. Legizm asoslarini Xan Fey-szin, Shan Yan kabi arboblardan ishlab chiqishgan
The science of the laws of Sharia	Nauka o zakonax shariata	Fiqh	islom huquqshunosligi bo'lib, bu soha rivojida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Ahmad al-Kosoniy kabilarning ulushi katta bo'lgan.
The city of virtues	Gorod dobrodeteley	Fozil shahar	Forobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ideal jamiyat.
The phenomenon	Fenomen	Fenomen	Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga

			sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va "mohiyat" tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.
Charisma	Xarizma	Xarizma	insonning o'ta qobiliyatli va o'ziga xosligi. Sotsiologiya faniga E.Trelch tomonidan kiritilgan bo'lib, u M.Veber tomonidan uning xukmronlikning ideal tiplari konsepsiyasida tahlil qilingan
Memory	Vospominaniye	Xotirlash	Haqiqiy dunyodagi hayotini eslash.
Rhetoric	Ritorika	Xitoba	ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar.
Khodjagon	Xodjagon	Xojagon	yassaviya va naqshbandiya oqimlaridan iborat bo'lgan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri.
Hastasoft	Xuastuanift	Xuastuanift	moniylikning tavba namozi.
Qi	Si	Si	xitoy falsafasiga ko'ra moddiy ashyolar.
Civilization	Sivilizatsiya	Tamaddun	(lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma'noda ishlatgan edilar.
Cyclic movement	Siklicheskiye dvijeniye	Siklik harakat	Olamda turli davrlar, bosqichlarning navbatma-navbat o'rin almashishi, aylanma harakati.
Scandalli	Chandalli	Chandallar	hind kastachiligida to'rtta kastaga kirmaydigan eng quyi tabaqa vakillari.
Chistia	Chishtiya	Chishtiya	o'rta asrlarda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf tariqati oqimi.
Charvaka	Chorvaki	Chorvaklar	bu ta'limotga ko'ra, olamning asosida to'rt unsur – suv, olov, havo va tuproq yotadi.
Shahid who died for the faith	Shaxid, pogibshiy za veru	Shahid	Islom e'tiqodida insonning din uchun kurashda halok bo'lishi, jon berishi.



Form	Forma	Shakl	Borliq ma'nosi, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.
Verse	Stix	She'r	she'riy hukmlar. She'r yozish san'ati, uning vazifalari.
Chauvinism	Shovinizm	Shovinizm	boshqa millatlarni mensi-maslikni va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar sistemasi va amaliyoti. Shovinizm - millatchilikning eng xunuk ko'rinishi. Shovinizm atamasi fransuz yozuvchilari aka-uka I. va T.Konyarning «Uch rangli kokarda» nomli komediyasining qahramonlaridan biri, o'zining tajovuzkor millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola Shoven nomi bilan bog'liq holda XIX a.ning birinchi yarmida paydo bo'lgan.
Sudras	Shudri	Shudralar	Hinduiylikda kastalarning eng quyi varnasi, tabaqasi, ulardan hazar qilingan.
Evolution	Evolyusiya	Evolyusiya	(lot. yevolutio – ochilish, yozilish, takomillashish)–tadrijiy rivojlanish. Umumilmiy va falsafiy ta'limot hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va ruhiy–ma'naviy, rivojlanish konsepsiyalarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiladi. E. tushunchasi keng ma'noda, rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.
Emanation	Emanatsiya	Emanatsiya	tajalliy etish jarayoni, ya'ni o'zidan nur taratish oqibatida yangi hodisani vujudga keltirish.
Ethnic culture	Etnokultura	Etnomadaniyat	millatga tegishli bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an'ana, qadriyatlari, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma'naviy merosi, tafakkuri, ongi, g'oyaviy hamda axloqiy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi ma'naviy boyligidir.
Ethnicity	Etnos	Etnos	(yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) etnik birlik, ijtimoiy tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan odamlar ijtimoiy guruhining bir turi. E. urug', qabila, elat va

			millat shakllarida namoyon bo'ldi. Etnos tushunchasi 1921-1923 y.da S.M.Shirokogorov tomonidan chuqur tahlil qilingan. U e.ni insoniyat lokal guruhi mavjudligining asosiy shakli deb hisoblagan. Uning asosiy belgilari deb esa, - «kelib chiqish, urf-odatlar, til va turmush tarzi birligi» deb bilgan.
Ethnocentrism	Etnotsentrizm	Etnotsentrizm	(grek. –guruh, xalq va lot. centrum - markaz)- o'z xalqi xulqi, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo'lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha.
Giron	Yugiron	Yugiron	XV-XVI asrlarda Koreyada moddiy asos – “ki”ning birlamchiligini tan olgan materialistik maktab.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik	eramizning boshlarida vujudga kelgan, Plotin, Prokl, Porfiriya kabi faylasuflar tomonidan Aflatun g'oyalarini jonlantirish va rivojlantirishga asoslangan ta'limot.
The inevitability of fate	Neizbejnost iz sudbi	Qazo va qadar	islom diniga ko'ra, taqdiri azalga so'zsiz ishonish.
Sect Kariatidy	Karmatidi	Qarmatiylar	Ismoiliylar falsafiy oqimining bir shahobchasi.
Comparison	Sravneniye	Qiyos	deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar.
Judgment day	Sudniy den	Qoim	ismoiliylar falsafasiga ko'ra, Qiyomat kuni Muhammad ibn Ismoilni Imom Mahdiy suratida qaytishi.
substance	substansiya	Hayulo	birlamchi sabab, moddiy asos, substansiya.
Ideological vacuum	Ideyniy vakuum	G'oyaviy bo'shliq	jamiyat hayotida mafkurasizlik, maq-sadsizlik va boshboshdoqlikning namoyon bo'lishi.
The world of ideas	Mir idey	G'oyalar dunyosi	Haqiqiy, abadiy, o'zgarmas dunyo.
Harijana	Xaridjani	Harijanlar	hind kastachilik tizimidagi “qo'l tekizib bo'lmas”lar tabaqasi, ular eng iflos mehnat – ko'chalarni supurish, axlatni tozalash kabi ishlarni qilishlari kerak.

## **VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha

- rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm- fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.  
// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.
20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688- modda.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

#### **SH. Maxsus adabiyotlar**

1. Ahmedova M.A. Xan V.S. Koreya falsafasi (qisqacha tarixiy bayon). –T.: TDSHI nashriyoti. 2009.
2. Istoriya Vostoka.V 6-tomax. T.1. Vostok v drevnosti.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.
3. Istoriya Vostoka.V 6-tomax. T.2. Vostok v sredniye veka.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.
4. KoreY. Sifri i fakti. –Seul, 1993.
5. Istoriya Korei. T. 1. Per. s kor. –M., 1960.
6. Opisanije Korei. –M., 1960.
7. Ushkov A.M. Nekotoriye voprosi istorii filosofskoy misli v Koreye epoxi feodalizma.//Voprosi filosofii, 1962.№5.
8. Chon Chin Sok, Chon Son Chxol, Kim Chxan Von. Istoriya koreyskoy filosofii. Per. s kor.– M., 1966.
9. Ionova Y.V. Predstavleniya koreysev o dushe.// Mifologiya i verovaniya narodov Vostochnoy i Yujnoy Azii. –M., 1973.
10. Veber M. Xozyaystvennaya etika mirovix religiy. –M., 1985.
11. Vostochnaya filosofiY. Perevod s cheshskogo kan.filos.nauk. I.I.Boguta. – M.: Misl, 1991
12. Drevnekitayskaya filosofiY. V 2 tomax. –M., 1972.

13. Istoriya Vostoka.V 6-tomax. T.1. Vostok v drevnosti.–M.: Vostochnaya literatura RAN. –2002.
14. Kitayskaya filosofiY. Ensiklopedicheskiy slovar. –M.: Misl, 1994.
15. Konfusiy. Uroki mudrosti –M.: Eksmo.FOLIO, 2007.
16. Filosofskaya ensiklopediY. T.3. –M., 1964.
17. Istoriya filosofii v kratkom izlojenii. –M.:Misl, 1991.
18. Yaspers K. Istoki istorii i yeyo sel. Yaspers. Smisl i naznacheniyе istorii. –M., 1994.
19. Trofimova Z.P. Gumanizm, religiya i svobodomisliye. –M., 1993.
20. Ahmedova M., Yo‘ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi.// Sharq falsafasi. –T.:ToshdSHI nashriyoti. 2006.
21. Nizomiddinov N.G‘. Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari va Islom. –T.:Zar qalam, 2006.
22. Vosem gimnov Rig-Vedi. Per. N. V. Krushevskogo. –Kazan, 1879.
23. Larin B. Iz oblasti vediyaskoy poezii. //Vostok, 1924. –№4.
24. Ragozina Z.A. Istoriya Indii vremen Rig-Vedi. –SPb, 1905.
25. Tompson M. Vostochnaya filosofiY. –M.:Grand. 2001.
26. Fortunatov F. Samaveda – Aranyaka Samhita. Issledovaniye. –M., 1875.

#### **IV. Internet saytlar**

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy- metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
6. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
7. [www.nimfogo.uz](http://www.nimfogo.uz)
8. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
9. <http://press.natlib.uz>